**Bu jarayonlar aloxida olingan issiklik almashinish qurilmalarida yoki texnologiya qurilmasining uzida amalga oshiriladi.**

**Issiklik almashinish qurilmalari asosan ikkiga bo'linadi: issiklik almashinish qurilmalarining uzi va reaktorlar. Issiklik almashinish qurilmalarida issiklik almashinish jarayoni asosiy jarayon hisoblanadi. Reaktorlarda esa fizik – kimyoviy jarayonlar asosiy hisoblanib, issiklik almashinish esa yordamchi jarayondir.**

**Kimyo, neft kimyosi, neftni kayta ishlash korxonalarida ishlatiladigan texnologik uskunalarning katta qismini issiklik almashinish qurilmalari tashkil kiladi.**

**Sanoatda turli-tuman issiklik almashinish qurilmalari ishlatiladi. Ish printsiptiga kura issiklik almashgichlar uchga bo'linadi: 1)rekuperativ; 2) regenerativ; 3) aralashtiruvchi.**

**Rekuperativ (yoki yuzali) issiklik almashgichda issiklik tashuvchi agent bir – biri bilan devor orkali ajratilgan va issiklik birinchi issiklik tashuvchi muxitdan ikkinchisiga ularni ajrtuvchi devor orkali utadi.**

**Regenerativ issiklik almashgichda kattik jismdan tarkib topgan bir xil yuza navbat bilan turli issiklik tashuvchi agentlar orkali kontaktda bo'ladi. Kattik jism unga tegib utgan issiklik tashuvchidan issiklik olib isiydi; boshqa issiklik tashuvchi utganda esa kattik jism uz issikligini unga berib soviydi. Demak, regeneratordlarda issiklik tashuvchi agentlarning harakatidan tashkari kattik jismning mavjud bo'lishi zarur.**


**Aralashtiruvchi qurilmalarda issiklik tashuvchi agentlarning uzaro uchrashuvi va aralashuvi natijasida issiklikning almashinish yuz beradi.**

***Kobik – trubali issiklik almashgichlar.***

**GOST 9929 – 82 ga asosan kobik – trubali issiklik almashinish qurilmalari pulatdan quyidagi tiplar buyicha tayyorlanadi: N – kuzgalmas truba turlari bilan; K – temperatura yuqori bo'lganda kobik va trubalarning uzayishini hisobga oluvchi va kobikda joylashgan kompensator bilan; P – harakatchan kalpokchali; Y – simon trubali; PK – harakatchan kalpokchali va undagi kompensator bilan.**

**Misli kobik trubali qurilmalar GOST 11971-77 ga asosan ikki tipda (N va K ) tayyorlanadi. Kobik trubali qurilmalar issiklik almashgich, sovitgich, kondensator va bug'latgich sifatida ishlatilishi mumkin, ular bir va kup yulli kilib tayyorlanadi.**

**Bunday issiklik almashgichlar kobik ichiga joylashgan trubalar tuplamidan iborat bo'lib, trubalarning uchi turlarga maxkamlangan bo'ladi. (8.1-rasm).**



8.1 –rasm 1-kobik; 2-truba turlari; 3-trubalar; 4-kopkok; 5,6 –issik tashuvchi agentlar kiradigan va chiqadigan shtutser 1;7-bolt; 8-kistirma.

Qurilmaning yuqorigi va pastki qismlaridagi kopkok flanets yordamida truba turiga biriktiriladi. Yuqorigi va pastki kopkoklarga isitilayotgan yoki sovitilayotgan agentlarni berish uchun shtutser muljallangan. Issiklik tashuvchi agentning birinchisi trubaning ichidan, ikkinchisi esa truba va qurilmaning ichki devori oraligidagi bushlikdan utadi. Bir yunalishli kobik-trubali issiklik almashinish qurilmasida isitiluvchi gaz yoki suyuqlik kopkokdagi trubka orkali bitta trubadan kirib, usha trubadan chiqib ketadi. Asosan bu tipdagi isitgichlarda isitilayotgan va issiklik berayotgan muxit bir – biriga karshi yunalishda harakat kiladi. Isituvchi agent doim isitgichning yuqorigi qismidan va isitilayotgan muxit esa qurilmaning pastki qismidan trubalar ichiga beriladi. Bu muxitning yunalishi isitgichdagi yunalishga mos keladi, chunki isitilayotgan vaqtda temperatura ortishi va kamayishi bilan ularning zichligi uzgaradi. Masalan, bug' uz issikligini berib sovishi natajasida uning zichligi oshib, pastga karab harakatlanadi. Muxitning bu yunalishida ularning tezligi bir xil taksimlanib, qurilmaning kundalang kesimida issiklik almashinish uzgarmas bo'ladi.

Bu issiklik almashgichlarda suyuqlikning sarfi kam bo'lganda ularning trubadagi tezligi kichiq bo'lib, issiklik almashinish koeffitsienti kam bo'ladi. Issiklik tashuvchi agentning tezligini oshirish uchun kup yulli isitgichlar ishlatiladi.

Kimyo sanoati tarmoklarida 2, 4, 6 yulli issiklik almashgich ishlatiladi. Yullarning soni ortishi bilan gidravlik karshilik ortib, issiklik almashinish qurilmasining konstruksiyasi murakkablashadi.


Bir yulli va kup yulli kobik – trubali issiklik almashgich vertikal va gorizontal holatda bo'ladi. Vertikal issiklik almashinish qurilmalarini ishlatish kulay, ularning tuzilishi sodda va kam joyni egallaydi. Gorizontal issiklik almashinish qurilmalari kupincha kup yulli kilib tayyorlanadi.

*Kobik trubali qurilmalarni konstruksiyasiga kura kullanish turlari.*

Kobik-trubali qurilmalarda kobik bilan trubalar orasidagi temperaturaning farkiga karab truba va kobikning uzayishi har xil bo'ladi. Shuning uchun kobik-trubali qurilmalar konstruksiyasiga kura ikki xil bo'ladi: 1) kuzgalmas turli issiklik almashgichlar; 2) kompensatsiyalovchi qurilmali issiklik almashgichlar.

Kuzgalmas turli issiklik almashgichda issiklik ta'sirida truba va kobik har xil uzayadi, shu sababli bunday qurilmalar trubalar va kobik urtasidagi temperaturalar farki katta bo'lmaganda (50o S gacha) ishlatiladi.

Temperaturalar farki 50o S dan katta bo'lganda truba va kobikning har xil uzayishini yukotish uchun linza kompensatorli, harakatchan truba turli, v - simon trubali issiklik almashinsh qurilmalari ishlatiladi (8.2-pacm).




8.2-rasm. Kobik va trubalarning turlicha uzayishini kompensatsiya kiladigan kobik – trubali issiklik almashgichlar.

a) linza kompensatorli; b) harakatchan kalpokchali; v) v – simon trubali; 1- kobik; 2- trubalar; 3-linzali kompensatorlar; 4-harakatchan kalpokcha.

4. Kobik trubalai issiklik almashgichlarda trubalarni turda joylashishi.

Kobik trubali issiklik almashgichlarda trubalar turga uch xil usul bilan joylashtiriladi;a) tugri oltiburchakning kirralari buylab; b) kontsentrik aylanalar buyicha; v) kvadratning tomonlari buylab(8.3- rasm)



Trubalarni truba turlariga joylashtirish usullari:

- a) tugri oltiburchakning kirralari buylab;
- b) kvadratning tomonlari buylab;
- v) kontsentrik aylanalar buylab.

Kobik – trubali qurilmalarda yuqori issiklik berish koeffitsientiga erishish uchun issiklik tashuvchi agentlarning tezligi ancha katta bo'lishi kerak: gazlar uchun 8-30 m/s, suyuqliklar uchun eng kami bilan 1,5 m/s.

Kobik trubali issiklik almashinsh qurilmalarini afzalliklari: ixcham, metall kam sarf kilinadi, issiklik almashinsh yuzasi katta, trubalarning ichini tozalash oson.

Bu qurilmalarni kamchiliklari: issiklik tashuvchilarni katta tezlik bilan o'tkazish kiyin, trubaning tashkarisidagi bushlikni tozalash va tuzatish imkoni kam.

Kush trubali, namlovchi va zmeevikli issiklik almashgichlar

**Kush trubali issiklik almashgichlarni «truba ichida truba» tipidagi issiklik almashgich deb xam yuritiladi. Bunday qurilmalar bir necha elementdan tuzilgan. Har bir element katta diametrli tashki truba va konsentrik holda joylashgan ichki trubadan iborat. Ichki trubadan isitilayotgan muxit harakatlanisa, trubalararo bushlikdan esa sovitilayotgan agent harakatlanadi.**

**Kush trubali issiklik almashgichlar yigma yoki noyigma xolida bir va kup oqimli kilib tayyorlanadi.**

**Bir oqimli noyigma (ya'ni qismlarga ajratilmaydigan) issiklik almashgich bir necha elementdan tuzilgan bo'lib, har bir element tashki (yoki kobik sifatidagi) truba (1) va (yoki issiklik almashuvchi) truba (2) dan iborat bo'ladi. Elementlar vertikal katonga tuzilgan bo'lib, issiklik almashinish sektsiyasini tashkil etadi. Ichki trubalar tirsaklar (3) orkali, tashki trubalar esa flanetslardagi shtutserlar (4) yordamida yoki payvandlash yuli bilan birlashtiriladi. Issiklik almashinish sektsiyasi metallardan kilingan kobirgalariga tutkichlar yordamida mustaxkamlangan (8.4 –rasm, a.).**

**Noyigma qurilmalarda trubalar kuzgalmas kilib joylashtirilgan bo'ladi. (8.4 – rasm, a), shuning uchun bunday issiklik almashgichlardan trubalar temperaturalari orasidagi fark 70o S gacha kullanish mumkin. Trubalar temperaturalari urtasidagi fark ancha katta bo'lsa (>70oS) va trubalararo bushlikni mexanik usul bilan tozalash zarur bo'lganda, kompensatsiya moslamali issiklik almashgichlar ishlatiladi (8.4-rasm, b). Bunday sharoitda trubalar oraligidagi xalkasimon tirkishlar bir tomondan zich payvand kilinadi, ikkinchi tomondan esa koplama (salnik) bilan berkitiladi.**

**Bu tipdagi qurilmalarning afzalliklari: issiklik tashuvchi agentlar katta tezlikka ega bo'lganligi uchun issiklik o'tkazish koeffitsientining qiymati xam katta, qurilmani tayyorlash oson, gidravlik karshiligi kam.**

**Kamchiliklari: bu tipdagi qurilmalar issiklik almashinish kursatkichlari bir xil bo'lgan sharoitda kobik-trubali qurilmaga nisbatan ulchami katta bo'ladi va tayyorlanishi uchun kup metall sarflanadi.**

#### **Issiklik almashgichlarning ish jarayoni**

**Namlovchi issiklik almashgichlar tashki tomonidan suyuq holdagi issiklik (odatda suv) tashuvchi bilan namlanib turuvchi zmeeviklardan iborat (8.5-rasm). Purkab beruvchi tarnov orkali suv yukorigi trubaga berilib, undan keyin pastki trubaga tushadi. Ketma – ket hamma trubalardan utgach, suv trubalarning tagida joylashgan yiggichga tushadi. Odatda bunday sovitkichlar ochiq xavoda joylashtirilgan bo'ladi.**

**Afzalliklari: sovituvchi suvning sarfi kam, tuzilishi sodda va arzon, trubalarni tozalash oson.**

**Bu qurilmalar suyuqlik yoki gazlarni sovitish xamda bug'larni kondensatsiyalash maksadida ishlatiladi.**

**Zmeevikli issiklik almashgichlar 25 75 mm li trubalardan tayyorlangan spiralsimon zmeeviklar suyuqlik bilan tuldirilgan idishda urnatiladi. Botirilgan zmeevik trubalaridan gaz yoki bug' harakatlanadi. Zmeevikli issiklik almashgichning diametri idishning ulchamiga kura 300 2000 mm ga teng bo'lishi mumkin.**

**Suyuqlik bilan tuldirilgan idishning hajmi katta va idish ichidagi suyuqlikning tezligi juda kichik bo'lgani uchun zmeevikning tashki devori tomondagi bug' bilan suyuqlik orasidagi issiklik berish koeffitsienti xam kichik qiymatga ega bo'ladi. Qurilmaning**

hajmini kamaytirish va suyuqlikning tezligini oshirish uchun uning ichiga stakanga o'xshash idish tushiriladi.

Zmeevik trubalarida harakatlanayotgan bug' bosimi 0,2 0,5 MPa gacha bo'lganda zmeevik uzunligining truba diametriga nisbati 200 245 bo'lishi kerak. Agar bu nisbatning mikdori katta bo'lsa, bug' kondensati zmeevik trubalarning pastki qismida yigilib, issiklik almashinish tezligi kamayadi va gidravlik karshilik ortib ketadi.


Afzalligi: tuzilishi sodda, tayyorlash oson, issiklik almashinish yuzasini almashtirish kulay, idishdagi suyuqlikning hajmi katta bo'lganligi sababli rejimning o'zgarishlariga uncha sezgir emas.

Kamchiliklari: ulchami va gidravlik karshiligi katta, idishdagi suyuqlikning tezligi kam bo'lganligi uchun zmeevikning tashkarisidagi issiklik berish koeffitsienti kichiq, trubalarning ichki yuzasini tozalash kiyin.

### 3. Gilofli issiklik almashgichlar

Gilofli issiklik almashgichlarda isitish yoki sovitish boshqa jarayonlar bilan (masalan kimyoviy) birgalikda olib boriladi. Bunday qurilmalarda issiklik almashinish yuzasi vazifasini reaktorning devori bajaradi. Gilof(2) kobik (1) ga flanetslar (3) yordamida biriktirilgan. Qurilma devorining tashki yuzasi va gilof oraligidagi bushlikda (1) issiklik tashuvchi agent tsirkulyatsiya kiladi. Qurilmaning ichida esa (II) issiklik tashuvchi agent bor. Bu tipdagi qurilmalarning yuzasi chegaralangan (10 m<sup>2</sup> gacha) bo'lib, gilofdagi ortikcha bosim 1 MPa dan oshmasligi kerak.

Yuqori bosimlarda (7,5 MPa gacha) ishlash uchun gilofni kup sondagi teshiklari bo'lgan listlardan kilinadi; bunda listlarning chekkalari teshiklarning perimetrlari buylab egiladi, qurilma kobigiga payvandlanadi (8.4-rasm, a,b).



8.4 – rasm. Gilofli qurilma. a) past bosimlar uchun 1- kobik; 2- gilof; 3- flanets

### Gorelkali issiklik almashgichlar.

Gorelkali issiklik almashgichlarda yonish mahsulotlari tugridan – tugri isitilayotgan suyuqlik bilan kontaktda bo'ladi (8.5-rasm). Suyuqlik bilan tuldirilgan idish (1) ga gorelka (3) tushirilgan bo'ladi. Gaz bilan xavo aralashmasi gorelkada yonadi. Yonish mahsulotlari tur (2) orkali utganida barbotaj jarayoni yuz berib, gaz oqimi mayda pufakchalarga ajraladi. Pufakchalar suyuqlik yuzasiga kutarilib uz issikligini suyuqlikka beradi xamda shu paytning uzida suv bug'lari bilan tuyinadi. Okibat ssiklik berish koeffitsientining qiymati ancha kupayadi. Shtutser (4) qurilmani suyuqlikdan bushatish uchun xizmat kiladi.

Yonish mahsulotlari tugridan-tugri suyuqlik bilan kontaktda uchraganda issiklikning yukolishi juda kam bo'ladi. Suyuqlikning qaynashi uchun botirilgan gorelka

kullanilgan paytda yokilgining yonish issikligidan foydalanish koeffitsienti 95-96 % ga yetadi.

Gorelkali qurilmalar bug'latish qurilmalarida korroziyaga aktiv suyuqliklarni kuyiltirish uchun ishlatiladi.

8.5-rasm Botirilgan gorelkali issiklik - almashinish qurilmasi. b) yuqori bosimlar uchun 1-kobik; 2-tur; 3-gorelka; 4-shtutser

#### Amaliy mashG'ulot №14

Issiklik almashgichlarda konstruktiv hisoblash tartibi.

Isitish yuzasini topish.

Issiklik almashgichning isitish yuzasi  $F(m^2)$  issiklik o'tkazishning umumiy tenglamasidan topiladi:

$$F = \frac{Q}{K\Delta t_{yp}}$$

Bu yuza uchun kabo'l kilingan isitgichning sxemasi trubalarning diametri va uzunligiga kura joylashtiriladi.

Konstruktiv hisoblashning umumiy maksadi issiklik almashinish qurilmasining asosiy ulchamlarini topishdan iborat. Bunda quyidagilar aniqlanadi: qurilma trubali qismining ulchamlari, trubalarning soni, turda trubalarning joylashuvi, qurilma diametri, qurilma balandligi, patrubkalar diametri.

Qurilma trubali qismining ulchamlarini aniqlash. Bitta yuldagi trubalarning kundalang kesimini topamiz:

$$f_T = \frac{G}{\rho g}, \quad (8.16)$$

Bu yerda  $G$  - suyuqlikning sarfi, kg/s;  $\rho$  - suyuqlikning zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $g$  - suyuqlikning tezligi, m/s.

Bitta yuldagi trubalarning soni:

$$n_1 = \frac{f_m}{0,785 \cdot d_u^2} \quad (8.17)$$

$d_u$  – trubaning ichki diametri, m.

Hamma yuldagi trubalarning uzunligi:

$$L = \frac{F}{\pi d_x n_1} \quad (8.18)$$

Bu yerda  $F$  - isitkichning isitish yuzasi,  $m^2$ ;  $d_x$  – trubalarning hisobiy diametri,  $m$ ;  $d_x$  – trubalarning hisobiy diametri,  $m$ ;  $d_x$  ning qiymati  $L_1$  va  $L_2$  ning nisbatlariga bog'liq. Agar  $L_1 \approx L_2$  bo'lsa,  $d_x = 0,5(d_u + d_T)$ ,  $L_1 \gg d_2$  bo'lsa,  $d_x = d_u$ ,  $L_1 \ll L_2$  bo'lsa,  $d_x = d_T$ .

Yullar soni:

$$Z = \frac{L}{\ell} \quad (8.19)$$

Bu yerda  $\ell$  - trubalarning kabo'l kilingan uzunligi ( $\ell = 1 \div 3M$ ).

Turda joylashgan trubalarning umumiy soni:

$$n = Z \cdot n_1, \quad (8.20)$$

Amaliy mashg'ulot №15

.Trubalarni turda joylashtirish usullar.

Trubalar turda uch xil usul bilan joylashtirilishi mumkin: tugri oltiburchaklarning kirralari buylab; kvadratning tomonlari buylab; konsentrik aylanalar buylab. Kupincha birinchi usuldan foydalaniladi. Bunda turdagi trubalarning soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n_o = 3a(a-1) + 1 = \frac{3}{4}(\delta^2 - 1) + 1 \quad (8.21)$$

$a$  – katta oltiburchakning bitta tomonida joylashgan trubalar soni;  $\delta = 2a-1$  – katta oltiburchakning diagonali buylab joylashgan trubalar soni.

Trubalar oltiburchakning kirralari buyicha joylashtirilganda turning bir qismi foydalanilmay qoladi. Shu sababli, agar  $a > 8$  bo'lganda, q'o'shimcha yana  $m$  mikdordagi trubalarni joylashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunda umumiy trubalarning soni kupayadi:

$$n = n_o + m \quad (8.22)$$

odatda

$$m = (0, 1 \div 0,18)n$$

Qurilma kobigining ichki diametrini aniqlash. Kobik ichiga joylashtirilgan trubali turning maydoni quyidagi tenglama orkali topiladi:

$$\Phi = \Phi_\phi + \Phi_\psi = \frac{\Phi_\phi}{\Psi}, \quad (8.23)$$

Bitta truba uchun trubali turning foydali maydonini aniqlash.

Bu yerda  $\Phi_\phi$  – trubalar tomonidan egallangan foydali maydon;  $\Phi_\psi$  – trubalar joylashmagan erkin maydon;  $\Psi$  - truba turidan foydalanish koeffitsienti; oltiburchaklar kirralari buyicha joylashtirilganda  $\Psi = 0,6$  kup yulli,  $0,9$  – bir yulli qurilmalar uchun.

Bitta trubaning foydali maydoni (10.13-rasm)  $t \sin \alpha$  ga teng ( $t$ - trubalarning joylanish kadami,  $\alpha = 60^\circ$  – truba katorlarining markaziy chiziqlari xosil kilgan burchak). Bunda hamma trubalar  $n$  uchun trubali turning maydoni:

$$\Phi = \frac{nt^2 \sin \alpha}{\Psi} \quad (8.24)$$

(10.24) tenglamaga asosan bitta yulli trubalarning isitish yuzasi ( $d_{x1} = d_T$  bo'lganda) :

$$F = n \pi d_T \ell \quad (8.25)$$

bundan

$$n = \frac{F}{\pi d_T \ell} \quad (8.26)$$

Agar  $\Phi = \frac{\pi D_o^2}{4}$  hisobga olinganda kobikning ichki diametri  $D_o$  (m hisobida)

quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$D_o = \sqrt{\frac{4\Phi}{\pi}} = \sqrt{\frac{4nt^2 \sin \alpha}{\pi\Psi}} = \sqrt{\frac{4Ft^2 \sin \alpha}{\pi\Psi \pi d_T \ell}} = 0,635 \frac{t}{d_T} \sqrt{\frac{F d_T \sin \alpha}{\ell \Psi}} \quad (8.27)$$

Amaliy mashg'ulot №16

Qurilmaning tula balandligini topish.

**Issiklik almashinish qurilmasining balandligi (yoki uzunligi) quyidagi tenglama bilan topiladi:**

$$H = \ell + 2\delta + 2h \quad (8.28)$$

Bu yerda - trubalarning uzunligi; - turning kalini, m; h - kiruvchi va chiquvchi kameralarning balandligi, m.

**Patrubkalarining diametrini aniqlash. Patrubkalarining ichki diametri berilgan muxitning sarfiga va harakat tezligiga karab aniqlanadi:**

$$D_n = \sqrt{\frac{4V}{\pi\omega}} \quad (8.29)$$

Bu yerda V – muxitning sarflanish mikdori, m<sup>3</sup>/c;  $\omega$  - muxitning harakat tezligi, m/s.

Hisoblashlar uchun quyidagi tezlik qiymatlaridan foydalanish mumkin: suyuqliklap 0,1 ÷ 2,5 m/s; gazlar 2 ÷ 20 m/s; suv bug'i 15 ÷ 60 m/s.

Gidravlik hisoblashdan asosiy maksad issiklik almashinish qurilmasidagi ishkalanish xamda maxalliy karshiliklarni yengish uchun ketgan bosimni va ish muxitini qurilmadan o'tkazish uchun kerak bo'lgan kuvvatni topishdan iborat.

Kobik-trubali issiklik almashgichning trubali qismi xamda kundalang tusiklari bo'lmagan trubalararo bushligi uchun gidravlik karshilik ( $\Delta P, Pa$ ) ni quyidagi tenglama orkali aniqlash mumkin:

$$\Delta T = \Delta P_u + \Delta P_{MK} = \lambda \frac{Z\ell}{d_3} \rho \frac{\omega^2}{2} + \sum \xi \frac{\rho \omega^2}{2} \quad (8.30)$$

bu yerda  $\Delta P_u$  – ishkalanish karshiliklarini yengish uchun yukotilgan bosim, Pa;  $\Delta P_{MK}$  – maxalliy karshiliklarni yengish uchun yukotilgan bosim, Pa;  $\lambda$  - ishkalanish koefitsienti;  $\ell$  - trubalarning bitta yuli uzunl ekvivalent diametr, m;  $\rho$  - suyuqlik yoki gazning zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $\omega$  - oqimning tezligi, m/s;  $\xi$  - maxalliy karshilik koefitsienti.

Ishkalanish koefitsienti - muxitning harakat rejimiga va truba devorlarining g'adir – budirlik darajasiga bog'liq. Laminar rejimda ( $Re < 2300$ ) g'adir – budirlik ishkalanish koefitsientiga amaliy jixatdan ta'sir kilmaydi va dumalok kesimli trubalar uchun ning qiymati quyidagi tenglama bilan topiladi:

$$\lambda = \frac{64}{Re} \quad (8.31)$$

Turbo'lent rejimda ( $2300 < Re < 10^4$ ) gidravlik tekis trubalar (shisha, mis, kurgoshin) uchun:

$$\lambda = \frac{0,316}{Re^{0,25}} \quad (8.32)$$

Gidravlik g'adir- budir trubalar (pulat, chuyanli) uchun turbo'lent rejimda ( $Re > 2300$ )  $\lambda$  ni hisoblash uchun quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$\frac{1}{\sqrt{\lambda}} = -2 \lg \left[ \frac{\varepsilon}{3,7} + \left( \frac{6,81}{Re} \right)^{0,9} \right] \quad (8.33)$$

$Re > 10^5$  bo'lganda turbo'lent rejim uta rivojlangan bo'lib, ning qiymati  $Re$  ga bog'liq bo'lmay qoladi. Bunday holat avtomodel rejimi deb yuritiladi. Ushbu rejimda ning qiymati quyidagi tenglama orkali aniqlanadi:

$$\frac{1}{\sqrt{\lambda}} = 2 \lg \frac{3,7}{\varepsilon} \quad (8.34)$$

bu yerda  $\varepsilon = k/d$ , trubaning nisbiy g'adir- budirligi;  $d$  – trubaning ekvivalent diametri;  $k$ - truba yuzasining urtacha absolyut g'adir – budirligi,  $k$  ning taxminiy qiymati tegishli kullannmalarda berilgan bo'ladi.

Ekvivalent diametr  $d_e$  suyuqlik yoki gaz utadigan kanalning shakliga kura uzgaradi. kanallar kundalang kesimining shakliga kura ekvivalent diametrning qiymati 10.1- jadvaldan foydalanib hisoblanadi:

Ekvivalent diametrning qiymatini aniqlash.

Kundalang kesimning	Eslatma
---------------------	---------

shakli	
Xalkasimon D - du	D- tashki diametr, du – ichki diametr
Kvadrat a	a- kvadratning tomoni
Tugri to'rtburchakli	a a v – tugri to'rtburchakning tomonlari
Trubalar orasidagi bushlik	D – qurilmaning ichki diametri. d- trubalarning tashki diametri. n- trubalar soni

#### Amaliy mashG'ulot№ 17

.Maxalliy karshiliklar koeffitsientini aniqlash

Maxalliy karshiliklar koeffitsientlarining qiymati tajriba yuli bilan aniqlanadi va tegishli kullanmalarda berilgan bo'ladi. Kobik – trubali issiklik igi, m; Z - yullarning soni; d<sub>3</sub> – almashinish qurilmalari uchun hisoblash paytida maxalliy karshiliklar koeffitsientining qiymatini quyidagicha olish mumkin:

#### Trubali bushlik

Kiruvchi yoki chiquvchi kamera - 1,5

Yullar yoki sektsiyalar oraligida 180o ga burilishi - 2,5

Trubalarga kirish yoki ulardan chiqish - 1,0

#### Trubalararo bushlik.

Trubalararo bushlikka kirish yoki undan chiqish -1,5

Trubalararo bushlikdagi tusik orkali 180o ga burilish - 1,5

Trubalararo bushlikda 90o ga burilish - 1,0

Issiklik almashgich uchun R ning qiymati aniqlangandan sung, suyuqlikni qurilma orkali xaydash uchun kerak bo'lgan nososning kuvvati (NkVt) topiladi:

$$N = \frac{G\Delta P}{1000\rho\eta}, \quad (8.35)$$


Bu yerda G – suyuqlik sarfi, kg/s;  $\rho$  - suyuqlik zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $\Delta P$  – nasos tomonidan xosil kiladigan bosim farki, Pa;  $\eta$  - nasosning foydali ish koeffitsienti.

Issiklik almashinish qurilmalarni loyixalashda issiklik, konstruktiv va gidravlik hisoblashlardan sung mexanik hisoblashlar amalga oshiriladi.

Amaliy mashG'ulot №18

Yuzali kondensatorlarni hisoblash tartibi.

Yuzali kondensatorni hisoblashda bug'ning holatiga ahamiyat beriladi. Odatda kondensatsiyalashga yuborilgan suv bug'i ikki xil kurinishda bo'ladi: a) uta kizigan bug'; b) tuyingan bug'. Kondensiyalanish paytida temperaturaning o'zgarishi 8.10 – rasmda berilgan. Uta kizigan bug'ni kondensiyalashda issiklik almashinish yuzasi (8.10-rasm, a) shartli ravishda uch soxaga bo'linadi: I – uta kizigan bug'ning sovishi; II- bug'ning kondensiyalanishi; III- kondensatning sovishi. Tuyingan bug'ni kondensiyalashda issiklik almashinish yuzasi (8.10-rasm, b) shartli ravishda ikki soxaga bo'linadi: bug'ning kondensatsiyalanishi; конденсатнинг совиши.



8.8-rasm. Kondensatsiyalashda ish – muxit temperaturasi o'zgarishi. a-uta kizigan bug'ning kondensatsiyalanishi;

b- tuyingan bug'ning kondensatsiyalanishi; I – bug'ning sovish soxasi; II- kondensatsiyalanish soxasi; III- kondensatning sovish soxasi.

Tuyingan bug'ning kondensatsiyalanishi doimiy temperatura  $tT$  da yuz beradi. Har bir zonada issiklik sarfi  $Q(Bt)$  har bir soxa uchun aloxida topiladi:

$$Q_{II} = Dc = Wc(t_2 - t_a), \quad (8.35)$$

$$Q_{III} = Dc(tT - T_2) = Wc(t_a - t_1), \quad (8.36)$$

Bu yerda  $D$  – kondensatsiyalanayotgan bug'ning sarfi, kg/s;  $S_1$  – kondensatning solishtirma issiklik sigimi, j/(kg · K);  $W$  - sovituvchi suvning sarfi, kg/s;  $c$  – Sovituvchi suvning solishtirma issiklik sigimi, J/(kg · K);  $tT$  - kondensatsiyalanish temperaturasi, °C;  $T_2$  – kondensatning sovish temperaturasi, °C;  $t_1$  va  $t_2$  – sovituvchi suvning boshlangich va oxirgi temperaturasi, °C;  $t_a$ - suvning kondensatsiyalanish va sovish shartli chegarasidagi temperatura °C.

(8.35) va (8.36) tenglamalardan quyidagi ifodaga erishamiz:

$$\frac{t_2 - t_a}{t_a - t_1} = \frac{Q_{II}}{Q_{III}} \quad (8.37)$$

Ushbu tenglamadan  $t_a$  qiymati aniqlanadi. Sungra soxalar buyicha temperaturalar farki, issiklik o'tkazish koeffitsienti va isitish yuzasini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi:

$$F_{II} = \frac{Q_{II}}{K_{II}\Delta t_{II}}; \quad F_{III} = \frac{Q_{III}}{K_{III}\Delta t_{III}} \quad (8.38)$$

#### Amaliy mashg'ulot №19

O'ta kizigan bug'ning kondenslanish jarayoni

O'ta qizigan bug''ning kondensatsiyalanishini kurib chiqamiz. Muxit qarama- qarshi harakat kilganda, agar isitish devori yuzasining temperaturasi,  $t_D$  kondensatsiyalanish temperaturasi  $t_T$  dan yuqori bo'lsa, I soxada uta kizigan bug'ning faqat sovishi yuz beradi, bunda bug'dan devorga bo'lgan issiklik berish koeffitsienti xuddi gazlar kabi aniqlanadi.  $T_D = t_T$  bo'lganda kondensatsiyalanish jarayoni boshlanadi.

Birinchi soxa uchun issiklik sarfi quyidagicha topiladi:

$$Q_1 = D c_6 (T_1 - T_T), \quad (8.39)$$

bu yerda  $c_6$  – uta kizigan bug'ning urtacha solishtirma issiklik sigimi  $\text{Ж}/(\text{кг} \cdot \text{K})$ .  $\Delta t_1$  va  $K_1$  ning qiymati topilgandan sung I soxa uchun issiklik almashinish yuzasi aniqlanadi:

$$F_1 = \frac{Q_1}{K_1 \Delta t_1}. \quad (8.40)$$

Kondensatorning umumiy issiklik almashinish yuzasi:

$$F = F_I + F_{II} + F_{III},$$

bu yerda  $F_{II}$   $F_{III}$ - bug'ning kondensatsiyalanish va kondensatning sovish soxalarining yuzalari (8.38) tenglamalari orkali aniqlanadi. Barometrik kondensatorni hisoblash tartibi. Barometrik kondensatorni hisoblashda quyidagilar aniqlanadi: 1) sovituvchi suvning sarfi; 2) kondensatorning ulchami; 3) tokchalar soni; 4) barometrik trubalar ulchami; 5) tortib olinishi zarur bo'lgan xavo mikdori.

Kondensatorning issiklik balansi quyidagi kurinishga ega:

$$D(i - ct_2) = W C_c (t_2 - t_1) \quad (8.41)$$

Bu yerda  $D$  – bug' sarfi,  $\text{kg/s}$ ;  $W$  - sovituvchi suv sarfi,  $\text{kg/s}$ ;  $i$  - bug'ning solishtirma entalpiyasi,  $\text{J/kg}$ ;  $s$  – kondensatning solishtirma issiklik sigimi,  $\text{J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ ;  $t_1$  – sovituvchi suvning temperaturasi,  $^{\circ}\text{S}$ ;  $t_2$ - barometrik suvning temperaturasi,  $^{\circ}\text{S}$ ;  $S_s$  – suvning solishtirma issiklik sigimi,  $\text{J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ . (8.41) tenglamadan sovituvchi suvning solishtirma sarfini (1kg bug'ni kondensatsiyalash uchun sarf bo'lgan kg hisobidagi suvning mikdori) aniqlash mumkin:

$$m = \frac{W}{D} = \frac{i - ct_2}{C_c(t_2 - t_1)} \quad (8.42)$$

Odatda  $m = 15 \text{ } 60 \text{ kg suv /bug'}$ . Kabo'l kilingan  $m$  ning qiymatiga asosan suvning sarfi topiladi:  $W = mD$ . Kondensatorning ulchami uning diametri  $DR$  ga karab topiladi. Kondensatorning diametrini hisoblash uchun bug'ning tezligini  $W = 35 \text{ } 55 \text{ m/s}$  ga teng deb olamiz. Bug' utishi uchun bushlik yuza kondensator kundalang kesimi yuzasining  $30 - 37 \%$  iga teng bo'ladi.

Tokchalar soni 5-7 ta olinadi. Yukorigi tokchalar orasidagi masofa  $R_{min} = 0,3 DR$ ; pastki tokchalar orasidagi masofa esa  $h_{max} = 0,6 DR$ ; urtacha hur =  $0,4 DR$  ga teng deb olinadi.

Shtutserning diametri tezlikka nisbatan kabo'l kilinadi: bug' uchun tezlik 40-50 m/s, xavo uchun 15 m/s, sovuk suv uchun 1 m/s. barometrik trubadagi suvning tezligi 1-2 m/s.

Barometrik kondensatorlarda bug'ning kondensatsiyalanishi vakuum (yoki siyraklanish) ta'sirida boradi. Odatda kondensatoridagi absolyut bosimning qiymati 0,1 - 0,2 at (vakuum 0,9 - 0,8 at) ga teng bo'ladi. Barometrik trubaning balandligi (m) quyidagi tenglik bilan aniqlanadi:

$$H = h_B + h_D + 0,5 \quad (8.43)$$

Bu yerda  $h_B$  - kondensatoridagi vakuum qiymatini (yoki kondensatoridagi bosim va atmosfera bosimi urtasidagi ayirmani) muvozanatda ushlab turish uchun zarur bo'lgan barometrik trubadagi suv ustuni, m;  $h_D$  - barometrik trubada dinamik bosim xosil qilish uchun (ya'ni suyuqlikning trubadagi harakatini ta'minlash uchun) zarur bo'lgan suv ustuni, m; 0,5 m - q'o'shimcha balandlik, bu balandlik bosim atmosfera bosimidan ortib ketganda kondensatorning bug' shtutseriga suv kirib ketishining oldini olish uchun kushiladi.

$h_B$  ning qiymati (m) quyidagi nisbat orkali aniqlanadi:

$$h_B = 10,33 \frac{B}{760}, \quad (8.44)$$

bu yerda  $B$  - kondensatoridagi siyraklanishning qiymati, mm simob ustuni.

$h_D$  balandligi (m) quyidagi tenglama yordamida topiladi:

$$h_D = \frac{\omega^2}{2g} \left( 2,5 + \lambda \frac{H}{d} \right) \quad (8.45)$$

bu yerda  $\omega$  - suyuqlikning barometrik trubadagi tezligi, m/s;  $d$  - barometrik trubaning diametri, m;  $\lambda$  - ishkalanish koefitsienti.

680 mm simob ustuniga teng vakuumga erishish uchun barometrik trubaning uzunligi 11 m ga teng bo'ladi.

Barometrik trubaning diametri quyidagi tenglama orkali aniqlanadi:

$$D = \sqrt{\frac{0,004(D + N)}{3,14 \cdot 3600 \cdot \omega}}; \quad (8.46)$$

Bu yerda  $D$  - kondensatsiyalanayotgan bug' mikdori, kg/soat;  $\omega$  - suyuqlikning barometrik trubadagi tezligi, m/s;  $W$  - suv sarfi, kg/soat;

Bug'ning tarkibida xavo borligi kondensatsiyalanish jarayonida issiklik berish koeffitsientini anchaga pasaytiradi, natijada qurilmaning ish unumdorligi kamayadi. Shu sababli xavo kondensatordan vakuum – nasos yordamida uzluksiz ravishda surib turilishi kerak. Surib olinishi kerak bo'lgan xavoning hajmi (m<sup>3</sup>/s) quyidagi tenglama orkali topiladi:

$$\gamma = MД \frac{273 + t}{760 - B}, \quad (8.47)$$

M = 0,0688 – bug'dagi gaz mikdorini harakterlovchi koeffitsient; t - nasosga kirayotgan xavo temperaturasi, odatda B = 660 .... 680 mm simob ustuni.

### Ba'zi terminlarning ta'rifi

Apparat (lat.), asbob, texnik qurilma, moslama. Darslikda apparat termini urniga qurilma suzi ishlatiladi. Masalan, mexaniq, gidromexaniq, issiklik yoki modda almashinish qurilmalari. Barbotaj (frants.), aralashtirish, suyuqlik katlamidan gaz yoki bug'ni bosim bilan o'tkazish.

Barbotyor (frants.), idishning ichiga suv bug'i yoki gaz berishga muljallangan turli shaklga ega bo'lgan teshikli truba. Vakuum (lat.), idishga kamalgan, bosimi atmosfera bosimidan anchagina past bo'lgan gaz holati. Vakuum -nasos (lat.,rus.), siyrak gazlar (vakuum<sup>0</sup> xosil qilish maksadida idishlardan gaz yokibug'larni surib oladigan qurilma. Ventel (nem), trubada harakatlanuvchi suyuqlik, gaz yoki bug' berish mikdorini zolotnik yordamida rostlaydigan berkitish--ochish moslamasi. Ventilyator (lat.), xonalarni shamollatish, aeroaralashmalarni trubalarda uzatishda xavo yoki boshqa gazlarni xaydash uchun kichiq bosim(0,01 Mpa gacha) xosil kiladigan qurilma. Venturi trubasi (Italiya olimi J.Venturi nomidan), bosimlar tafovutiga kura, suyuqlik, bug' yoki gaz tezligi yoki sarfi ulchanadigan qurilma. Gazoduvka (rus.), xavo yoki boshqa gazlarni sikish va xaydash uchun urtacha bosim (0,01 dan 0,3 Mpa gacha) xosil kiladigan qurilma. Gazlift (rus.), suyuqliklar (neft, suv turli eritmalar va boshqalar)ni ularga aralashtirilgan gaz energiyasi hisobiga kutarish qurilmasi. Agar qurilmada gaz urniga sikilgan xavo ishlatilsa erlift deb ataladi. Gidravlika (yunon.), suyuqliklarning harakati va muvozanat konunlarini xamda bu konunlarni injenerlik masalalarini xal qilishda tatbik etish usullarini urganuvchi fan. Ggidrodinamika (yunon.), gidromexaniqaning sikilmaydigan suyuqliklar harakatini va ularning kattik jismlar bilan uzaro tasirini urganadigan bo'limi.

Gidromexaniqa (yunon.), suyuqlikning muvozanati va harakati, shuningdek, suyuqlikning unga botirilgan yoki unda harakatlanayotgan jism bilan uzaro tasirini urganadi

Gidrostatika (yunon.), gidromexaniqaning kuyilgan kuchlar tasirida suyuqliklarning ularga botirilgan jismlarga va idish devorlariga tasirini urganadigan bo'limi.

Gidrotsiklion (yunon.), bir-biridan massalari bilan fark kiladigan mineral donachalarni suv muxitida ajratadigan qurilma.

Gorelka (rus.), gazzimon, suyuq yoki changsimon yokilgilarning xavo yoki kislorod bilan aralashmasini xosil kiladigan va uni yOqish joyiga uzatadigan qurilma.

Gradirnya (nem.), suvni atmosfera xavosi bilan sovutish qurilmasi.

**Granulalash (lat.),** moddaga mayda bo'laklar (granulalar) shaklini berish jarayoni.

**Dezintegrator (lat.),** kam abraziv murt materiallarini yanchish (dagal maydalash) mashinasi. **Diafragma (yunon.),** teshikli yoki teshiksiz plastinka (tusik).

**Dispergirlash (lat.),** kattik yoki suyuq jismlarni mayin kilib maydalash.

**Diffuziya (lat.),** moddaning bir muxitdan konsentratsiyasi kamayish yunalishda tarkalishi. Diffuziya ionlar, atomlar, molekulalar, shuningdek ancha yirik zarralarning issiklik harakati tufayli yuz beradi .

**Zadvijka (rus.),**truboprivodidagi oqim mikdorini pona shakliga ega bo'lgan zatvor yordamida rostlaydigan berkitish-ochish moslamasi. **Zaslonka (us.),** kanal (truba)ning kesim yuzini uzgartiradigan xamda shu yo'l bilan undan utadigan gaz yoki suyuqlik massasi va hajmini rostlaydigan moslama **Zolotnik (rus.),** sirpanadigan sirtidagi teshiklarga nisbatan siljib ,ish suyuqligi yoki gaz oqimini kerakli kanalga yunaldiruvchi kuzgaluvchan element.

**Zmeevik (rus.),** issiklik almashinish qurilmalarida isituvchi yoki sovituvchi eltkich yuborish uchun ishlatiladigan spiralsimon truba. **Klapan (nem.),** mashinalar va truboprovodlarda gaz, bug' yoki suyuqlik sarfini boshqaradigan detal. Klapan bosimlar farkini xosil qilish (droselli klapanlar.), suyuqlikning teskari oqimi paydo bo'lishiga yo'l kuymaslik (teskari klapanlar.), gaz, bug' yoki suyuqlik bosimi belgilanganidan ortganda ularni qisman chiqarib yuborish ( saklash klapanlari.),bosimni pasaytirish va uni maromida tutib turish (reduksion klapanlarda)da ishlatiladi.

**Kompressor (lat.),** xavo yoki gazni 0,3 Mpa va undan yuqori bosim bilan sikadigan mashina. **Konvektsiya (lat.),** muxit (gaz,suyuqlik ) makroskopik qismning siljishi, massa ,issiklik va boshqa fizik mikdorlarning kuchishiga sabab bo'ladi .

**Kondensat (lat.),** gaz yoki bug'ni kondensatsiyalashda xosil bo'ladigan suyuqlik.

**Kondensator (lat.),** moddalarni sovitish yuli bilan gaz (bug') holatda suyuq holatga o'tkazadigan issiklik almashtirgich. **Korpus (lat.),** mashina detali, odatda, mashinaning barcha asosiy mexanizmlarini kutaradigan asosi, negizi hisoblanadi.

**Laminar oqim (lat.),** yopishkok suyuqlik yoki gazning tartibli oqimi suyuqlik kushni katlamlarini uzaro aralashib ketmasligi bilan karakterlanadi.

**Manometr (yunon.),** suyuqlik va gaz bosimini ulchaydigan asbob. Atmosfera bosimini ulchash uchun barometrlar ,nolga yakin bosimlarni ulchash uchun vakuummetrlar ishlatiladi .

**Modellash (rus.),** murakkab obektlar, xodisalar yoki jarayonlarni, ularning modellarida yoki haqiqiyo qurilmalarda tajriba o'tkazish va ishlashiga o'xshash modellarini kullab tadvik qilish usuli.

**Mufta (nem.),** val tortki, truba kanat, kabel va boshqalar biriktiriladigan qurilma.

**Napor (rus.),** suyuqlik oqimining berilgan nuktada solishtirma energiyasini belgilovchi chiziqli kattalik. **Nasadka (rus.),** ayrim qurilmalarning ichiga solib kuyiladigan har-xil shaklli kattik jismlar.

**Patrubik (rus.),** asosiy truba, rezurvuvar va qurilmalardan gaz, bug' yoki suyuqlik olinadigan kiska truba. **Protsess (lat.),** xodisalarning izchil almashinib turishi, biror narsaning tarakkiyot holati, jarayon. **Psixrometr (yunon.),** xavoning temperaturasi va namligi aniqlanadigan asbob. **Regeneratsiya (lat.),** ish bajargan jismning dastlabki

sifatlarini tiklash ,masalan ,adsorblash jarayonida adsorbentlarning xossalarini tiklash.

Rekuperator (lat.), issiklik almashinish qurilmasi, unda issiklik eltuvchilarni ajratib turgan devor orkali ular orasida issiklik almashib turadi.

Separatsiya (lat.), suyuq yoki kattik zarrachalarni gazlardan,kattik zarralarni esa suyuqliklardan ajratish, kattik yoki suyuq aralashmalarni tarkibiy qismlarga ajratish. Skrubber (ingliz.), changli gazlarni yuvish yuli bilan tozalaydigan qurilma. Texnologiya (yunon.), mahsulot ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo, material yoki yarimfabrikatga ishlov berish, tayyorlash, ularning holati, xossalari va shaklini uzgartirish usullari majmui.

Turbina (frants.), berilayotgan ish jismi (bug', gaz, suv )ning Kinetik energiyasini mexanik ishga aylantirib beradigan birlamchi dvigatel. Turbo'lent oqim (lat.), zarrachalari murakkab traektoriyalar buyicha turgunlashmagan tartibsiz harakatlanadigan suyuqlik (yoki gaz ,) oqimi . Bunday holatda suyuqlik tezligi va uning bosimi oqimning har bir nuqtasida tartibsiz uzgaradi.

Flanets (nem.), truba, armatura, rezurvar, vallar va boshqalarning birlashtiruvchi qismi, odatda, boltlar yoki shpilkalar o'tkazish uchun bir tekisda joylashgan teshiklari bo'lgan yassi xalka yoki diskdan iborat. Tsapfa (nem.), uk yoki valning podshipnikka tiralib turadigan qismi.

Shtutser (nem.) uchi rezbali biriktirish patrubogi. Rezurvarlar yoki qurilmalarning trubalariga yoxud chiqish patruboklariga payvandlanadi ,kavsharlanadi yoki burab kuyiladi. Elevator (lat.), yuklarni tik yoki kiya yunalishlarda uzluksiz tashiydigan qurilma.

Kondensat (lat.), gaz yoki bug'ni kondensatsiyalashda xosil bo'ladigan suyuqlik.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOLAR**

- 1. A.A. Lashinskiy, A.R.Tolchinskiy. «Osnov konstruirovaniya i raschyot ximicheskoy apparatur». L: Mashinostroenie 1970 g.**
- 2. A.G.Kasatkin. «Osnovn protsess i opparat ximicheskoy texnologii. Ximiya 1973 g.**
- 3. Z.Salimov, I.Tuychiev. «Ximiyaviy texnologiya jarayonlari va qurilmalari». Toshkent 1987 yil.**

**4. P.G. Romankov, M.I.Kurochkina, Yu.A.Mozjerin, N.N.Smirnov. «Protsess i apparat ximicheskoy promshlennosti». L.: Ximiya 1989 yil.**

**5. A.M.Kutepov, T.N.Bondaryova, M.G. Berengorten «Obshaya ximicheskaya texnologiya» M. Vsshaya shkola 1990 yil**

**Tajriba  
materiallari**

**mashg'ulotlarning**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO MUXANDISLIK - TEXNOLOGIYA  
INSTITUTI**

**“KIMYOVIY  
KAFEDRASI**

**TEXNOLOGIYALAR”**

**5320400 –Kimyoviy texnologiya ( tarmoqlar texnologiyasi  
bo`yicha)**

**“ASOSIY TEXNOLOGIK JARAYONLAR  
VA QURILMALAR”  
fanidan**

# **TAJRIBA MASHG'ULOTLARINI bajarishuchun uslubiy ko'rsatma**

**Buxoro – 2015**

**Tuzuvchilar:** Ismatov S.Sh.– “KT” kafedrası dotsenti.

Sharipova M. – “TJBAKT” kafedrası assistenti.

Yuldasheva Sh. - “KT” kafedrası assistenti.

**Taqrizchilar:** M.S.Sharipov – BDU“Kimyo” kafedrası dotsenti

“Kimyoviy texnologiyalar” kafedrasining 2015 - yil \_\_\_\_\_dagi yig'ilishining  
№ \_\_ bayoni bilan uslubiy kengash muhokamasiga tavsiya qilindi.

Bux MTI uslubiy kengashining 2015 - yil \_\_\_\_\_dagi № \_\_ majlisi bayoni bilan chopqilishga tavsiya qilindi.

## **Annotatsiya**

Ushbu uslubiy ko`rsatma “Kimyoviy texnologiyalar” yo`nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun «Asosiy texnologik jarayonlar va qurilmalar» fani bo`yicha tajriba ishlarini bajarishga oid bo`lib, unda tajriba ishlarini bajarish tartibi hamda gidromexani, mexanik, issiqlik, modda almashinish va elektrofizik jarayonlarga oid tajriba ishlarining yozuvi kiritilgan. Har bir tajriba ishining yozuvida ushbu ishga oid nazariy ma`lumotlar, ishning maqsadi, tajriba qurilmasining tuzilishi, hamda ishni bajarishga tayyorlanish uchun tavsiya qilinayotgan adabiyotlar ro`yxati kiritilgan. Talaba ma`ruza darslarida olgan bilimni amaliy jihatdan mustahkamlashga muvaffaq bo`ladi.

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
Tajriba ishini bajarishda texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishish.....	5
Suyuqliklarni oqish rejimini aniqlash.....	7
Cho`ktirish doimiylari va muhitning qarshilikkoefitsentini aniqlash.....	12
Mavhumqaynashqatlamidazarrachalarningqaynashvauchibchiqishtezkiklarinianiqlash .....	17
Fil`trlash doimiylarini aniqlash.....	22
Aralashtirish uchun sarf bo`lgan quvvatni aniqlash.....	28
Distilyasiya jarayonini tadqiq qilish.....	34
Bir korpusli vakuum bug`latgichni sinash.....	39
Nasoslarning tuzilishini, ish tarzini o`rganish. nasoslarning prinsipial sxemalarini chizib olish.....	46
Birvaikkiyo`lliisitgichdaissiqlikalmashinishjarayoninitadqiqqilish.....	52
Issiqlikalmashinishjarayonlarini “Trubaichidatruba” tipidagiisitgichdatadqiqqilish	60
Nam havoning asosiy parametrlarini o`lchash va hisoblash.....	67
Mahsulotlarni konvektiv quritish jarayonini tekshirish.....	74
Mahsulotlarni maydalash jarayonining asosiy xarakteristikalarini aniqlash.....	82
Sochiluvchi materiallarni dispersligini aniqlash.....	91
<b>Ilovalar</b> .....	95
<b>Adabiyotlar</b> .....	100

## KIRISH

Xalq xojaligining asosiy tarmoqlaridan biri bolgan kimyoviy texnologiya sanoati bugungi kunda tez rivojlanayotgan, yangi texnika va texnologiyalar joriy qilinib, mahsulot assortimenti va sifati talab va ehtiyojdan kelib chiqib yaxshilanib borayotgan soha hisoblanadi.

Kimyo sanoatini mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashda shu yo`nalishdagi oily oquv yurtlariga katta mas'uliyat yuklangan. Chunki sanoatning intensiv rivojlanayotgan bu tarmog'ida zamonaviy texnika va texnologiyalarni boshqara oladigan kadrlarga bo`lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Bu yo`nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun «Asosiy texnologik jarayonlar va qurilmalari» fani asosiy fanlardan biri bo`lib, bu fan ularga o`z ixtisosliklarini chuqur egallashlariga, umummuhandislik fanlaridan olgan bilimlarini mustahkamlashga hamda texnologik jihozlardan unumli foydalanish usullarini o`rganishlariga ko`maklashadi.

Kimyo ishlab chiqarish korxonalarida turli texnologik jarayonlar amalga oshiriladi. Texnologik jarayonlar ichida gidromexanik, mexanik, issiqlik, modda almashinish va elektrofizik jarayonlar ham asosiy o`rinni egallaydi. Chunki ushbu soha korxonalarining barchasida suyuqlik gaz va qattiq moddalarni bir joydan ikkinchi joyga uzatish turli jinsli gaz va suyuqlik aralashmalarni ajratish, qattiq moddalarni maydalash, saralash jarayonlarini uchratish mumkin.

Bu kurs kimyo texnologiyasining nazariy asosi bo`lib, jarayonlarni tahlil qilish va hisoblashga, optimal parametrlarni aniqlashga, jarayonlar borishi uchun apparatlar loyihasini ishlab chiqishga imkon beradi. Bunda laboratoriya sharoitidagi jarayonlar va qurilmalardan sanoat miqiyosiga masshtabli o`tishning qonuniyatlari o`rganiladi. Ushbu qonuniyatlarni bilish kimyo texnologiyasida zamonaviy, ko`p tarmoqli sanoat jarayonlarini loyihalash va yaratish uchun zarurdir.

Talaba ushbu uslubiy korsatmadan foydalanish natijasida, ma`ruza darslarida olgan bilimni amaliy jihatdan mustahkamlashga muvaffaq bo`ladi.

### **Tajriba ishini bajarishda texnika xavfsizligi boyicha asosiy qoidalar.**

«Asosiy texnologik jarayonlar va qurilmalari» laboratoriyasida ishlaganda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak.

1. Uskunalarni ishlatishdan oldin texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishish.

2. Elektr toki bilan ishlaydigan priborlarda (texnika va elektr xavfsizligi qoidalari bilan tanishish.

3. Laboratoriyada mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi bo'yicha instruktsiyalar bilan tanishish.

4. Uskunalarni ishlash vaqtida ularni harakatlantiruvchi mexanizmlarni to'xtatish va chiqqan qayishlarini o'rnatish uchun qo'l, tayoq va boshqa jihozlarni qo'llash ta'qiqlanadi.

5. Uskunalarning ishlash vaqtida aylanadigan mexanizmlardan himoya qobiqlarini olish va qo'yish ta'qiqlanadi.

6. Mashina va uskunalarni ishlash vaqtida aylanadigan va harakatlanadigan qismlarini tozalash, moylash va boltlarni tortish ta'qiqlanadi.

7. Laboratoriyadagi uskuna va asboblarni belgilanmagan boshqa maqsadlarda ishlatishga ruxsat berilmaydi.

8. Kimyoviy moddalar bilan ishlaganda tozalikka rioya qilish kerak. Moddalarni qo'lga tegishidan ehtiyot bo'lish kerak. Kimyoviy moddalar bilan ishlagan vaqtda qo'lni ko'z va betga tegizish, ovqat iste'mol qilish mumkin emas. Ishni tugatgandan keyin qo'lni sovun bilan yaxshilab yuvish kerak.

9. Yonuvchi va engil alanganuvchi moddalar (etil spirti, spirt, atseton va boshqalar) bilan ishlaganda ochiq olovdan foydalanish ta'qiqlanadi. Bu kimyoviy moddalarni isitgich qurilmalari yonida saqlash ta'qiqlanadi.

10. Zaharli va ishqorli moddalar bilan bog'liq bo'lgan ishlar havo tortuvchi shkaflarda bajariladi. O'zidan issiqlik chiqaradigan moddalarni aralashtirish uchun farforli yoki issiqlikka chidamli idishlar qo'llanadi.

11. Ishlatilgan ishqorli suyuqliklarni va organik yonadigan eritmalarni havo tortuvchi shkaflarda maxsus idishlarga qo'yiladi.

12. Simobli termometrlar bilan ishlaganda juda ehtiyot bo'lish kerak. Agar tajriba ishlarini bajarishda termometr sinib ketsa, simob darhol maxsus shyotka bilan mis idishga yiqib olinishi, simob tekkan yuzaga (pol, stol va boshqalar) 20 % li temir xlori eritmasi bilan ishlov berilishi kerak.

13. Teri engil kuyganda yuviladi, keyin glitserin yoki vazelin surtish kerak. Agar terida kuchli kuyish sodir bo'lgan bo'lsa, kuygan joyni kaliy permanganatning kontsentrlangan eritmasi bilan yuvish kerak, keyin kuyishga qarshi malham surtish kerak.

14. Kislotali kuyishda kuygan joyni ko'p miqdordagi suv bilan yuvish kerak, keyin kuchsiz iste'mol sodasi eritmasi bilan yuvish kerak.

Ishqorli kuyishda kuygan joyni suv bilan, keyin suyultirilgan sirka kislotasi bilan yuviladi.

15. Ko'zga ishqor yoki kislota kirganida ularni suv bilan yaxshilab yuvish kerak. Keyin suyultirilgan borli kislotali eritma bilan (agar ko'zga ishqor kirgan bo'lsa) yoki 1 % li bikarbonat eritmasi bilan (agar ko'zga kislota kirgan bo'lsa) artib, tezda vrachga murojat qilish kerak.

16. Yonuvchi suyuqliklar alanga olgan hollarda ularni isitishi uchun ishlatiladigan qizdirgichlarni butunlay o'chirish va alangani qum bilan ko'mish kerak. Katta alanga olov o'chirgich yordamida uchiriladi.

17. Agar kiyim olov olsa, kiyimi yonayotgan odamning ustiga xalat, junli odeyal va boshqa yopib bo'ladigan buyumlarni yopish kerak.

## **Tajriba ishining bajarilishiga qo`yiladigan talablar**

Har bir tajriba ishini bajarishdan oldin talabalar mustaqil ravishda ko`rsatmada ko`rsatilgan adabiyot va ma`ruza konspekti yordamida ishga tayyorlanishi lozim. Bu shart talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga imkon beradi.

Tajriba ishini bajarishni boshlashdan oldin o`qituvchi talabaning darsga tayyorligini o`tgan darsni birma-bir so`rab chiqib tekshiradi. O`tgan tajriba ishini bajargan talabalargina keyingi ishni bajarishi mumkin.

Har bir ishni bajarishda ishga tayyorlanish uchun berilgan savollarga to`liq javob tayyorlash kerak.

## **1 - Tajriba ishi**

### **SUYUQLIKLARNING OQISH REJIMLARINI ANIQLASH.**

**Ishning maqsadi:** Suyuqlikning oqim holatlarni tajribada kuzatish. Suyuqlikning oqimiga ta'sir qiladigan kattaliklarni o'rganish. Reynol'ds kriteriyasining qiymatlarini tajribada aniqlash.

#### **Umumiy tushuncha**

Ko'pchilik texnologik jarayonlar suyuqlik va gazlarning xarakati bilan bog'liq bo'lib, ularni xisoblashda, suyuqliklar va gazlarning oqish rejimlarini bilish kerak bo'ladi.

Aylana va boshqa shakldagi ko'ndalang kesim yuziga ega bo'lgan kanalda suyuqlik ikki xil, ya'ni laminar yoki to'lqinsimon oqim rejimida harakat qiladi.

Suyuqlikning oqim rejimlarini birinchi bo'lib 1883 yilda ingliz fizigi O. Reynol'ds aniqladi. U rangli suyuqlik yordamida suyuqlikning ikki xil laminar va to'lqinsimon xolatda oqishini tajriba qurilmasida ko'rsatib berdi.

Reynol'ds o'z tajribalari natijasida suyuqliklarning oqish xolatlarini aniqlaydigan quyidagi o'lchamsiz kompleks formulani keltirib chiqardi:

$$\text{Re} = \frac{v_{o'r} \cdot d \cdot \rho}{\mu} \quad (1.1)$$

bu ifodada,

$v_{o'r}$  - oqayotgan suyuqlikning o'rtacha tezligi, m/s

$d$  - suyuqlik oqimning diametri, m

$\rho$  - oqayotgan suyuqlikning zichligi, kg/m<sup>3</sup>

$\mu$  - oqayotgan suyuqlikning dinamik qovushqoqligi, Pa. s.

Bu formula Reynol'ds kriteriyasi deb ataladi. Bu formulaning fizik ma'nosi xarakatlanayotgan suyuqlik qovushqoqligi bilan uni xarakatga keltirayotgan inertsiya kuchlarini o'zaro nisbatini ko'rsatadi.

Suyuqliklarning xarakat xolati Reynol'ds kriteriyasining kritik qiymati  $\text{Re}_{kp}$  - bilan aniqlanadi.  $\text{Re}_{kp} = 2320$  ga teng. Agar  $\text{Re} \leq 2320$  bo'lsa, laminar oqim agar  $\text{Re} \geq 2320$  bo'lsa to'lqinsimon oqim bo'ladi.

Laminar oqim - qovushqoq suyuqliklarning tartibli oqimi bo'lib, suyuqlik qo'shni qatlamlarining o'zaro aralashib, u suyuqlik qo'shni qatlamlarining o'zaro aralashib ketmasligi bilan xarakterlanadi. Laminar oqim Reynol'ds soni  $\text{Re} \leq \text{Re}_{kp}$  ni qanoatlantiruvchi qiymatlarda sodir bo'ladi.

Laminar oqim suyuqliklarni xarakat tezliklari kichik bo'lganda sodir bo'ladi, bu oqim beqaror bo'lib tasodifiy ta'sirlar ostida to'lqinsimon oqimga aylanadi.

To'liqsimon oqim suyuqlik zarrachalarining murakkab traektoriyalari bo'yicha, turg'unlashmagan, tartibsiz oqimdir. To'liqsimon oqimda tezlik va bosim, oqimning xar bir nuqtasida tartibsiz o'zgaradi. Bu oqimda suyuqliklar intensiv aralashadi.

To'liqsimon oqim laminar oqim turg'unligi yo'qolishi natijasida vujudga keladi va bunda Reynol'ds soni kritik qiymatdan katta bo'ladi. Bu oqim soni Reynol'ds soni  $Re \succ Re_{kp}$  tengsizligini qanoatlantiruvchi qiymatlarda sodir bo'ladi.

Suyuqliklar harakatini dumaloq kesim yuzali trubalardan tashqari har xil kanallarda aniqlash uchun  $Re$  kriteriyasidagi diametr o'rniga ekvivalent diametr kattaligi ishlatiladi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$d_e = \frac{4 \cdot S}{P} \quad (1.2)$$

bu ifodada,

$S$  - suyuqlik oqimining ko'ndalang kesim yuzasi,  $m^2$

$P$  - ho'llangan perimetr,  $m$

Suyuqlikning to'liqsimon oqim rejimi o'z navbatida ikki turga, ya'ni o'tish va turg'un to'liqsimon harakat rejimlariga bo'linadi.  $Re = 2300 \div 10000$  chegarada o'zgarsa o'tish sohasi bo'lib, bunda bir vaqtning o'zida trubada ikki xil harakat mavjud bo'ladi, ya'ni truba o'rtasida suyuqlik to'liqsimon devor yaqinida laminar harakatda bo'ladi. Bunga sabab, suyuqlik oqim tezligining truba ko'ndalang kesimi bo'yicha bir xil taqsimlanmaganligidir.

$Re \succ 10000$  bo'lganda oqim turg'un to'liqsimon bo'ladi.

### **Tajriba o'tkaziladigan qurilmaning tuzilishi**

Tajriba o'tkaziladigan qurilmaning tuzilishi 1.1 - rasmda ko'rsatilgan. Qurilma suyuqlik to'ldirilgan idish 1, shisha truba 2, suyuqlik sarfini o'zgartirish uchun mo'ljallangan jo'mrak 3 dan iborat. Suyuqlik temperaturasini o'lchash uchun termometr 8 o'rnatilgan. Rangli suyuqlik 4 idishdan 5 shlang orqali shisha truba ichiga uzatiladi. SHlangning uchiga naycha o'rnatilgan. Suyuqlik sarfini o'lchash uchun o'lchov stakani 9 dan foydalaniladi. Rangli suyuqlik 7 jumrak orkali rostlanadi.

### *Ishni bajarish tartibi:*

Tajribani boshlashdan oldin 1 - idishni suv bilan to'ldiriladi va imkoniyati bo'lsa tajriba davomida idishda suvning sathini bir xilda saqlab turish kerak, chunki idishdagi suv satxining o'zagrishi, suvning 2- trubadagi oqim tezligiga ta'sir qiladi. 3,7- jumraklarning holati hamda 4-idishdagi suyuqlikning holati ham tekshiriladi.


Tajriba ikki qismdan iborat. Tajribaning birinchi qismida suvning harakatini rostlab turuvchi jumrak 3, asta-sekin ochiladi. Suv oqimining tezligi kichik bo'lganda rangli suyuqlik suvga aralashmasdan to'g'ri chiziq buylab gorizonta ip shaklida harakat qiladi. Bunda shisha truba 2 dan oqayotgan suv bilan rangli suyuqlikning tezligi bir xilda bo'ladi. Bunda laminar oqim bo'ladi.

Shundan so'ng rostlovchi, jumrak 3 ni ko'proq ochib suv oqimining tezligi kupaytiriladi, bunda rangli suyuqlik shisha truba buylab tulqinsimon harakat qilib suvning butun hajmga aralashdi. Bunda oqim tulqinsimon bo'ladi.

Tajribaning ikkinchi qismida, Reynol'ds kriterisining qiymatini aniqlash uchun, rostlovchi jumrak 3 yordamida suvning oqimi laminar holatiga keltiriladi va jumrakdan oqayotgan suvning miqdori, o'lchov kolbasi 9 yordamida o'lchanadi, kolba to'lishi uchun ketgan vaqt sekundomer bilan o'lchanadi, o'lchash 4 - 5 marotaba takrorlanadi. Xuddi shunday o'lchash tulqinsimon holat

uchun ham takrorlanadi. Tajriba o'tkazishda suvning temperaturasi ham o'lchanadi.

O'lchov ishlari tugaganidan so'ng, rostlovchi kranlar bekitiladi va hisoblash ishlari bajariladi.



### 1.1– rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi

1-idish, 2-shisha truba, 3,7-jumrak, siyox idish, 5-rezina shlang, 6-naycha, 8-termometr, 9- o'lchov idish.

### Tajriba natijalarini hisoblash va hisobot tuzish.

Shisha truba 2 dan oqayotgan suvning harakat tezligi quyidagi ifodadan aniqlanadi.

$$g = \frac{4 \cdot G}{\pi \cdot \rho} \text{ yoki } g = \frac{V}{t \cdot S} \quad (1.3)$$

bu ifodada:

G - suvning massaviy sarfi, kg/s

d - shisha trubaning

$\rho$  - suvning zichligi, kg/m<sup>3</sup>

V- xajmiy sarf, m<sup>3</sup>/s

t- vaqt, s

S- kundalang kesim yuza (shisha truba), m<sup>2</sup>

Suvning zichligi va qovushqoqligi ilovadagi 2-jadvaldan aniqlanadi. Fizik kattaliklar aniqlangandan so'ng Reynol'ds kriteriysining qiymati quyidagi ifodadan hisoblanadi.

$$\text{Re} = \frac{V_{or} \cdot d \cdot \rho}{\mu} \quad (1.4)$$

kuzatish natijalari va hisoblashlar quyidagi jadvalga yoziladi.

**Jadval 1.1**

Tajriba	Suvning massaviy sarfi, G  kg/s	Suvning temperatu rasi  t, °C	Cuv-ning qovushq oqligi  $\mu$ , Pa.s	Suv- ning tezligi  $\vartheta$ , m/s	Re	Oqim- ning holati

Tajriba natijalari asosida Reynol'ds kriteriysi bilan suvning oqish tezligi Re -  $\vartheta$  o'rtasidagi bog'linishi ifodalovchi grafik chizilib, bu grafikdan, suvning kritik tezligi  $\vartheta$  aniqlanadi.

**Takrorlash uchun savollar.**

- 1.Qanday oqim laminar oqim deb aytiladi?
- 2.Truboprivoddan oqayotgan suyuqlik tezligi qanday topiladi?

3. Qanday oqim to'liqinsimon oqim deb aytiladi?
4. Qanday kattaliklar suyuqliklarning oqim xolatlarini xarakterlaydi?
5. Reynol'ds kriteriysi deb nimaga aytiladi, uning o'lchov birligi?
6. Reynol'ds kriteriysining kritik qiymati tug'ri va dumaloq trubalarda qanday bo'ladi?
7. Reynol'ds kriteriysining qaysi - qiymatlarida, suyuqlik oqimi o'tish holatidan to'liqinsimon holatga o'tadi?
8. Tajriba o'tkazish tartibini tushuntirib bering.
9. Suyuklikning qovushqoqligi deb nimaga aytiladi?

## **2- Tajriba ishi**

### **CHO'KTIRISH DOIMIYLARI VA MUHITNING**

### **QARSHILIK KOEFFITSIENTINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** Shar shaklidagi zarraning suyuq muhitda cho'kish nazariyasini o'rganish. Zarraning cho'kish tezligini tajribada aniqlash. Cho'ktirish asosiy tenglamasi doimiylari; shuningdek muhitning qarshilik koeffitsientini tajribada aniqlash.

### **Umumiy tushuncha**

Cho'ktirish usuli suspenziya, emul'siya va changli gazlarni ajratish uchun ishlatiladi. Cho'ktirish jarayoni turli jinsli sistema tarkibidagi qattiq jism mayda zarrachalarining og'irlik kuchi ta'sirida apparat tubiga cho'kishga asoslangan.

Cho'ktirish tezligini aniqlash uchun alohida olingan sharsimon zarrachaning suyuqlik muhitidagi muvozanat shartidan foydalanamiz. Muhitdagi zarrachaga og'irlik kuchi  $G$ , ko'tarish kuchi  $A$ , muhitning qarshilik kuchi  $R$  ta'sir qiladi. Jarayonning harakatlantiruvchi kuchi og'irlik va ko'tarish kuchlari orasidagi farq, ya'ni zarraning suyuqlikdagi og'irligidir.

$$P = G - A = \frac{\Pi \cdot d^3}{6} q(\rho_{k.z} - \rho_s) \quad (2.1)$$

bu erdagi  $d$  -zarra diametri, m

$(\rho_{k.z} - \rho_s)$  - mos ravishda qattiq jism zarrasi va suyuqlik zichliklari,  $\text{kg/m}^3$

Muhitning qarshiligi  $R$ - zarra harakat yunalishiga qarama-qarshi bo'lib, ishqalanish va inertsiya kuchlaridan tashkil topgan.

Laminar oqimda ishqalanish kuchlari inertsiya kuchlaridan katta bo'ladi. Stoks konuniga ko'ra, laminar rejim uchun:

$$R = 3 \cdot \Pi \cdot d \cdot \mu \cdot \omega_r \quad (2.2)$$

Zarra dastlab tezroq cho'kadi, bir oz vaqtdan keyin harakatlantiruvchi kuch qarshilik kuchi bilan tenglashganda o'zgarmas tezlik bilan cho'ka boshlaydi. Shu o'zgarmas tezlik cho'kish tezligi deyiladi.

$P=R$  shartidan foydalanib cho'kish tezligini aniqlaymiz.

$$\frac{\Pi \cdot d^3}{6} q(\rho_{k.z} - \rho_s) = 3\Pi \cdot d \cdot \mu \cdot \omega_r \quad (2.3)$$

$$\omega_r = d^2 \cdot q(\rho_{k.z} - \rho_s) / (18 \cdot \mu) \quad (2.4)$$

Bu tenglama Stoks tenglamasi deyiladi va  $Re < 2$  bo'lganda ishlatiladi.

Turbulent rejimda ( $Re > 500$ ) inertsiya kuchlari ishqalanish kuchlaridan ustun bo'ladi. Bu holda qarshilik kuchi N'yuton qonunidan topiladi.

$$R = \xi \cdot F \frac{\rho_s \cdot \omega_r^2}{2} \quad (2.5)$$

$\xi$  - qarshilik koeffitsienti;

F - zarraning harakat yunalishiga perpendikulyar bo'lgan tekislikdagi proektsiya yuzasi.

$\xi = 0,44$  agar  $Re > 500$  bo'lsa,

$\xi = 18,5 / (Re)^{0,6}$  agar  $2 < Re < 500$  bo'lsa.

Turbulent rejim uchun quyidagi tenglikni yozish mumkin:

$$\frac{\pi d^3}{6} \cdot g(\rho_{k.z} - \rho_s) = \xi \cdot F \frac{\rho_{k.s} \cdot \omega_r^2}{2} \quad (2.6)$$

Bu erdan

$$\omega_r = 5,45 \sqrt{\frac{d \cdot (\rho_{k.z} - \rho_s)}{\rho_s}}$$

Sharsimon bo'lmagan zarralarning cho'kish tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\omega = \omega_r \cdot \varphi \quad (2.7)$$

bu erda

$\varphi$  - shakl koeffitsienti

$\varphi$  - 0,77 - dumaloq zarralar uchun:

$\varphi$  -0,43 - Yapaloq zarralar uchun:

$\varphi$  -0,66 - uchburchak shaklidagi zarralar uchun:

Ishlab chiqarishda cho'ktirish jarayoni ma'lum hajmda, qattiq zarralarning kontsentratsiyasi katta bo'lganda olib boriladi. Bunda siqilgan holatdagi cho'kish yuz beradi. Siqilgan holatdagi cho'kish tezligi erkin cho'kish tezligidan kichik bo'ladi.

Cho'ktirish jarayoni cho'ktiruvchi va quyultiruvchi apparatlarda olib boriladi. Cho'ktiruvchi apparatlar davriy, uzluksiz va yarim uzluksiz rejimda ishlatiladigan apparatlarga bo'linadi. Uzluksiz ishlaydigan apparatlar bir yarusli, ikki yarusli va ko'p yarusli bo'ladi.

### **Tajriba qurilmasining tuzilishi.**

Qurilmaning tuzilishi 2.1- rasmda ko'rsatilgan. U suyuqlik bilan to'ldirilgan shaffof tsilindr (1) dan iborat. TSilindrda cho'ktirishning boshlanishi va tugashini qayd qilish uchun belgilar (2) mavjud.

Sharning diametrini aniqlash uchun shtangentserkuldan foydalaniladi. Sharning massasi analitik tarozida aniqlanadi. Sharlar tsilindrning yuqori qismidan tushiriladi va tsilindrning pastki qismida yig'iladi.

#### ***Ishni bajarish tartibi:***


1. Tsilindrda uning yuqori belgisidan balandroq qilib suyuqlik qo'yiladi.
2. Suyuqlikning temperaturasi o'lchanadi. Agar suyuqlik uzoq vaqt davomida tsilindrda turgan bo'lsa, uning temperaturacini xona temperaturasiga teng deb olsa ham bo'ladi.

3. Har xil diametrli va turli materiallardan yasalgan sharlar tanlanadi. Ularning diametri mikrometr yoki shtangentsirkul bilan aniqlanadi, massasi analitik tarozida o'lchanadi.

4. Shar materiallarning zichligi hisoblanadi.

5. Shar tsilindrga tushiriladi va cho'kish davomiyligi ya'ni sharning yukori belgidan pastki belgigacha bo'lgan masofani o'tish vaqti aniqlanadi.

6. Har qaysi suyuqlik va shar uchun tajriba 5-6 marta takrorlanadi. O'lchash va hisoblash natijalari sinov jadvaliga kiritiladi.



**2.1 – rasm. Tajriba qurilmasi.**

*1 – tsilindr, 2 – belgilar.*

### **Tajriba natijalarini tahlil qilish.**

1. Suyuqlikning o'lchangan temperaturadagi zichligi va dinamik qovushqoqlik koeffitsienti ilovadagi jadvaldan topiladi.

2. Shar materialining zichligi ilovadagi jadvaldan topiladi.



--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--


5. Cho'ktirishning kriterial tenglamasi logarifmlanadi:

$$Re = KA_r^m$$

$$A_r = \frac{(\rho_{kz} - \rho_s) \cdot d^3 \cdot g \cdot \rho_s}{\mu^2} \quad (2.10)$$

$$\lg Re = \lg K + m \lg A_r$$

6. Hisob natijalari asosida  $\lg A_r = f(\lg Re)$  grafigi ko'riladi. (2.2 rasm)



(2.2 rasm)

7. Grafikdan  $\lg K$  va  $m = tg \alpha$  ning qiymatlari topiladi. Keyin  $K$  hisoblanadi.

8. Suyuqlikning qarshilik koeffitsenti  $\xi$  aniqlanadi.

$$R_e^2 = \frac{3}{4} \xi A_r \quad (2.11)$$

## Takrorlash uchun savollar

1. Cho'ktirgichlarda qanday kuchlar hisobiga cho'ktirish boradi.
2. Qanday holda zarra yuqoriga ko'tariladi?
3. Turli jinsli sistemalar nima va ular qanday sinflarga bo'linadi?
4. Qaysi holda turli jinsli sistemalarni cho'ktirish usuli bilan ajratib bo'lmaydi?
5. Nimaga zarra asosan doimiy tezlik bilan cho'kadi?
6. Zarraning cho'kish tezligini aniqlashda nimaga asoslanib kuchlar muvozanati tenglamasidan foydalaniladi?
7. Nimaga qarshilik koeffitsientini oldindan hisoblay olmaymiz?

## 3 - Tajriba ishi

### MAVHUM QAYNASH QATLAMIDA ZARRACHALARNING QAYNASH VA UCHIB CHIQISH TEZKIKLARINI ANIQLASH

*Ishning maqsadi: Mavhum qaynash qatlamining holatlari va turlarini o'rganish. Mavhum qaynash qatlamining asosiy gidromexanik xarakteristikalarini (kritik tezlik, gidrodinamik qarshilik, bo'sh hajm)ni aniqlash.*

### Umumiy tushuncha

Hozirgi vaqtda oziq-ovqat turli sohalarida mavhum qaynash usuli keng qo'llanilmoqda. Issiqlik almashinish, quritish, adsorbtsiyalash kabi jarayonlarda. Bu usulning qo'llanilishi katta natijalar bermokda. Mavhum qaynash jarayonida fazalarning kontakt yuzasi katta bo'lishi tufayli jarayon bir necha marta tezlashadi. Natijada apparatning ish unumdorligi oshadi. Mavhum qaynash qatlamining gidravlik qarshiligi nisbatan kichik.

Mavhum qaynash ikki xil (bir jinsli va turli jinslar) ko'rinishda yuz beradi. Sanoatda asosan qattiq modda - gaz sistemasidagi turli jinsli ko'rinishdagi mavhum qaynash qatlami ko'proq ishlatiladi.

Donador zarrachalar mavhum qaynash qatlamini hosil qilish uchun sim - to'r bilan ikkiga ajratilgan ixtiyoriy shakldagi idishga to'r ustiga donador mahsulot solinadi va to'r orqali pastdan yuqoriga kichik tezlikda gaz yoki suyuqlik oqimi yuboriladi. Dastlab qatlam o'zgarmay qoladi. Oqim tezligi asta - sekin oshirib borilsa, tezlikning ma'lum qiymatida qatlamdagi mahsulot og'irligi oqimning gidrodinamik bosim kuchiga teng bo'lib qoladi, bu holda qattiq zarrachalar gidrodinamik muvozanat bo'lmaydi, qatlam mavhum qaynash holatini egallaydi, ya'ni qatlam xuddi qaynayotgandek ko'rinadi.

Qatlamning o'zgarmas holatidan mavhum qaynash holatiga o'tishiga to'g'ri keladigan muhitning oqim tezligi mavhum qaynashning boshlanish tezligi yoki birinchi kritik tezlik deyiladi. Agar oqim tezligini oshiraversak, tezlik mavhum qiymatga etgach gidrodinamik bosim kuchlari mahsulotning og'irlik kuchidan oshib ketadi, natijada mahsulot zarralari oqim bilan birga chiqib keta boshlaydi. SHu holatga to'g'ri keluvchi tezlik chiqib ketish tezligi yoki ikkinchi kritik tezlik deyiladi. SHunday qilib, mavhum qaynash birinchi va ikkinchi kritik tezliklar o'rtasida yuz beradi.

Agar zarralar o'lchami kattalashib, apparatning diametri kichiklashsa va gazning tezligi oshsa o'zaro porshenli qatlam paydo bo'ladi.

Namligi yuqori bo'lgan qattiq mahsulot yoki o'lchami juda kichik mahsulot mavhum qaynash holatiga keltirilsa kanal hosil qiluvchi qatlam paydo bo'ladi.

Konussimon yoki konus - tsilindrsimon apparatlarda kanal hosil qiluvchi qatlam fontanli qatlamga aylanadi.

## **Tajriba qurilmasining tuzilishi.**

Tajriba qurilmasining tuzilishi 4.1 - rasmda tasvirlangan. Qurilma ventilyator 1, vertikal holda joylashgan prizmasimon shisha idish 2 dan iborat. Havo sarfini o'zgartirish uchun ventillyatorning so'rish trubasiga erkin siljitish imkoni bo'lgan to'siq 3 o'rnatilgan. Material 4 ni ushlab turish uchun idishning ichiga sim to'r 5 o'rnatilgan.


### *Ishni bajarish tartibi:*

Sinovni boshlashdan oldin donador qatlamni tavsiflovchi kattaliklar 4.1. jadvalda qayd qilinadi: materialning massasi  $m$  (kg); uning zichligi  $\rho$  (kg/m<sup>3</sup>); zarraning o'rtacha o'lchami  $a$  (m); uskunaning ichki yuzasi  $S$  (m<sup>2</sup>).

So'ngra qurilmani ishga tayyorlashga kirishiladi. Birinchi navbatda ventillyator ishga tushiriladi. Havoning mavhum qaynash rejimiga mos keluvchi tezligi o'rnatiladi. Buning uchun anemometr dan foydalaniladi. Mahsulot qatlamining balandligi o'lchanadi.

Havo tezligini anemometr yordamida o'lchash quyidagicha amalga oshiriladi: anemometr ko'rsatkichi ( $n$ ) o'nlik, yuzlik va mingliklarda yozib olinadi. So'ngra sekundomerni ishga tushirish anemometrni gorizontol holatda havo oqimi yo'lida joylashtiriladi. Anemometrni havo oqimida 100 sekund ushlab turgach uchta tsiferblat bo'yicha uning ko'rsatkichi ( $n_2$ ) yozib olinadi. Ylchash boshidagi va oxiridagi anemometr ko'rsatkichlari orasidagi farq aniqlanadi. Olingan farqni 100 sekundga bo'lib havo oqimining tezligi aniqlanadi, (m/s).

$$V_x = \frac{n_2 - n_1}{100} \quad (3.1)$$



**4.1 - rasm. Tajriba qurilmasining tuzilishi.**

1 - ventilyator, 2 - prizmasimon shisha idish, 3 - to'siq,

4 - donasimon material qatlami, 5 - sim to'r.

Ventilyator so'rish trubasidagi to'siqni ko'tarib havo sarfi, mos ravishda uning tezligi o'zgartiriladi. SHunday qilib havo sarfi va tezligining uch xil qiymatida sinov o'tkaziladi. O'lchash natijalari 4.1. jadvalga kiritiladi.

Mahsulot massasi -  $m = 80 \text{ gr}$

zarraning o'rtacha o'lchami -  $a = 2,5 \text{ sm}$

uskunaning ichki yuzasi -  $S_{ap} = 0,06 \text{ m}$

zarraning zichligi -  $\rho = 20 - 30 \text{ kg/m}^3$

Jadval 4.1

№	Havo oqimining tezligi $v$ , m/s	Qatlam zichligi $\rho_k$ , kg/m <sup>3</sup>	Material qatlami balandligi $H$ , m

### Tajriba natijalarini hisoblash.

1. Mavhum qaynash boshlanishiga mos keluvchi havo oqimi tezligi Lev formulasi bo'yicha aniqlanadi.

$$V = 9,35 \cdot 10^{-3} \left( a^{1,82} / \gamma^{0,88} \right) \left( \frac{\rho_z - \rho_{\delta}}{\rho_{\delta}} \right) \quad (3.2)$$

bu erda:  $a$  – zarraning o'rtacha o'lchami, m;

$\gamma$  - havoning kinematik qovushqoqlik koeffitsienti, havo temperaturasiga bog'liq holda ma'lumotlar to'plamidan aniqlanadi, m<sup>2</sup>/s.

$\rho_z$  - zarraning zichligi, kg/m<sup>3</sup>.

$\rho_x$  - havoning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ .

2. Havoning sarfi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G_x = V_x \cdot S_T \quad (3.3)$$

bu erda  $S_T$  - havo kirayotgan trubkaning ko'ndalang kesim yuzasi,  $\text{m}^2$ ;

3. Mavhum qaynash qatlamidagi bosimlar farqi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta P_k = (\rho_3 - \rho_x) \cdot g(1 - \varepsilon) \cdot h \quad (3.4)$$

bu erda  $\varepsilon$  - qo'zg'almas qatlam bo'sh hajmi;

$g$  - erkin tushish tezlanishi,  $\text{m/s}^2$ ;

$h$  - mavhum qaynash qatlamining balandligi, m.

$$\varepsilon = 1 - \frac{\rho_k}{\rho_z} \quad (3.5)$$

4. Havo oqimining ichidagi soxta tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\omega_o = G_x / S_{an} \quad (3.6)$$

bu erda  $S_{an}$  - apparatning ko'ndalang kesim yuzasi,  $\text{m}^2$ .

5. Havo oqimining apparat ichidagi haqiqiy tezligi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\omega = \frac{\omega_0}{\varepsilon} \quad (3.7)$$

6. Qaynayotgan qatlamdagi zarralarning aralashish tezligini xarakterlovchimavhum qaynash soni quyidagicha aniqlanadi:

$$N = \frac{\omega}{V_{kp}} \quad (3.8)$$

Hisoblash natijalari 3.2 – jadvalga yoziladi.

Jadval 3.2.

№	Havoning sarfi $G_x \quad m^3 / s$	Bo'sh hajm, $\varepsilon$	Bosimlar farqi $\Delta P_k, \quad Pa$	Mavhum qaynash soni $N$

Olingan natijalar bo'yicha  $\Delta P_k = f(\omega)$  grafigi quriladi.

#### Takrorlash uchun savollar.

1. Mavhum qaynash qatlamining qanaqa holatlari mavjud?
2. Mavhum qaynash qatlami nima maqsadlarda foydalaniladi?
3. Mavhum qaynash tezligi tajribada qanday aniqlanadi?
4. Mavhum qaynash sonining fizik ma'nosi nima va u son qanday aniqlanadi?
5. Bo'sh hajm deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
6. Solishtirma yuza nima?

#### 4- Tajriba ishi

##### FIL'TRLASH DOIMIYLARINI ANIQLASH

**Ishning maqsadi:** Nutch-fil'trning tuzilishi bilan tanishish. Nutch-fil'trda tajribalar o'tkazish va tajriba natijalirga ko'ra:

- a) fil'trlash doimiylarini aniqlash;
- b) fil'trlash tezligini aniqlash.

Fil'trlash grafigini qurish.

### **Umumiy tushuncha**

O'zaro erimagan va kimyoviy birikmagan moddalarning mexanik aralashmasiga (masalan, suyuqliq-qattik modda, suyuqlik gaz va hokazo) turli jinsli sistema deb ataladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarida va mahsulot olishda turli jinsli sistemalarni alohida qismlarga ajratish kerak. Buning uchun oziq-ovqat sanoatida quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Cho'ktirish
2. Fil'trlash
3. Tsentrifugalash
4. Suyuqlik yordamida ajratish
5. Elektr maydon ta'sirida

Fil'trlash deb qattiq va suyuq fazali turli jinsli sistemani g'ovak to'siqlar (fil'tr to'siqlari) dan o'tkazib tarkibiy kislmlarga ajratadigan jarayonlarga aytiladi.

Fil'tr-to'siqlar sifatida paxtadan, yung va sintetik moddalardan olingan gazlamalardan, keramika va asbestdan olingan materiallardan foydalaniladi.

U yoki bu materialdan tayyorlangan fil'trlash materiali quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. G'ovaksimon bo'lishi;
2. Fil'trlanadigan suyuqlik bilan kimyoviy reaksiyaga kirishmasligi;

3. Mexanik kuchga nisbatan mustahkam bo'lishi;

4. Issiqlikka chidamli bo'lishi.

Fil'trlash jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan kattaliklar umumiy holda quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{dV}{F \cdot d\tau} = \frac{\Delta P}{R} \quad (4.1)$$

Bu tenglama fil'trlash tenglamasi deb aytiladi.

Bu tenglamada:

$dV$  – elementar  $d\tau$  vaqt davomida olingan fil'tratning hajmi;

$dV/(F \cdot d\tau)$  - fil'trlash tezligi

$\Delta P$  - fil'trlash jarayonini yuzaga keltiruvchi kuch (bosimlar farqi);

$R$  - fil'trlash jarayonining qarshiligi.

Fil'trlash jarayonini fil'tr to'siqning ikkala tomonidagi bosimlar farqi yuzaga keltiradi. Bu bosimlar farqi quyidagi usullarda hosil qilinadi.

a) fil'trlanadigan suyuqlik qatlamining gidrostatik bosim yordamida;

b) fil'trlanadigan suyuqlikni nasos yordamida uzatish bilan;

v) fil'tr to'siq ostida siyraklanish hosil qilish bilan;

Fil'trlash jarayonining qarshiligi fil'trlash materialining qarshiligi va hosil bulgan cho'kmaning qarshiligidan iborat.

$$R = R_m + R_r \quad (4.2)$$

Fil'trlash jarayonining intensivligi va fil'tr apparatining ish unumi fil'trlash tezligi bilan xarakterlanadi.

Fil'trlash tezligi vaqt birligi ichida fil'tr to'siq yuza birligidan o'tgan fil'tratning hajmini ko'rsatadi. Fil'trlash tezligi ajratilayotgan suspenziyaning fizik-kimyoviy xossalriga, hosil bo'layotgan cho'kmaning xaraketri, fil'tratning xossasi, fil'trlash rejimi va boshqa kattalaiklarga bog'liq. Fil'trlash tezligi har doim bosimlar farqiga tug'ri va suspenziyaning qovushqoqligiga, cho'kma va fil'tr tusiqlarning gidravlik qarshiliklariga teskari proporsionaldir. Fil'trlash jarayonida vaqt o'tishi bilan bosimning farqi va cho'kmaning gidravlik qarshiligi o'zgarib boradi. Shu sababli fil'trlash tezligi differentsial ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{dV}{F \cdot d\tau} = \frac{\Delta P}{\mu \cdot \left( r_o \cdot x_o \frac{V}{F} + R_T \right)} \quad (4.3)$$

$\mu$  - suspenziyaning qovushqoqligi;

$dV$  - cho'kma hajmi;

$V$  - fil'trat hajmi;

$r_o$  - cho'kmaning solishtirma qarshiligi;

$F$  - fil'tr to'siqning yuzasi;

$R_T$  - fil'tr to'siqning qarshiligi.

Fil'trlash tezligiga ta'sir qiluvchi faktorlarning ba'zilarini aniqlash qiyin, shuning uchun fil'trlarni loyihalashda va hisoblashda oldindan fil'trlash doimiylari aniqlanadi.

Agar  $\Delta\rho = const, r_o = const$  bo'lsa (3.3) tenglamani ma'lum o'zgartirishlardan sung 0 dan  $\tau$  gacha va 0 dan V gacha integrallaymiz;

$$\mu \cdot r_o \cdot x_o \int_0^v V \cdot dv + \mu R_T \cdot F \int_0^v dv = \Delta\rho \cdot F^2 \int_0^\tau d\tau \quad (4.4)$$

o'zgartirishlardan so'ng quyidagiga ega bo'lamiz;

$$V^2 + 2 \frac{F \cdot R_T}{r \cdot X_o} \cdot V = \frac{2 \cdot \Delta P \cdot F^2}{\mu \cdot r_o \cdot X_o} \cdot \tau \quad (4.5)$$

Ushbu tenglamani ikkila tomonini. V ga bo'lib, hosil bo'lgan tenglamadan  $\frac{\tau}{V}$  ni topib olsak, u quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\frac{\tau}{V} = \frac{\mu \cdot r_o \cdot X_o}{2 \cdot \Delta P \cdot F^2} \cdot V + \frac{R_T \cdot \mu}{\Delta P \cdot F} \quad (4.6)$$

Bu tenglamadagi o'zgarmaydigan kattaliklarni quyidagicha belgilab olamiz:

$$M = \frac{\mu \cdot r_o \cdot X_o}{2 \cdot \Delta P \cdot F^2} \quad N = \frac{R_T \cdot \mu}{\Delta P \cdot F} \quad (4.7)$$

Buni hisobga olsak (3.6) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\frac{\tau}{V} = M \cdot V + N \quad (4.8)$$


Bu tenglama  $\frac{\tau}{V} = f(v)$  funktsiya to'g'ri chiziqli grafikka ega ekanligini bildiradi va tenglamadagi M va N fil'trlash doimiylari deyiladi.

Ularning qiymati tajriba natijalari asosida ko'rilgan  $\frac{\tau}{V} = f(v)$  funktsiyaning grafigidan aniqlanadi, ya'ni  $N$  – grafikning

$\frac{\tau}{V}$  o'q bilan nuqtasi bo'lsa,  $M$ - grafikning gorizonttal o'qqa og'ish burchagining tangensidir.

### Tajriba qurilmasining tuzilishi

Fil'trlash doimiylarini aniqlash maqsadida tayyorlangan tajriba qurilmasining sxemasi 4.1 – rasmda keltirilgan.



**4.1-rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi.**

Qurilma quyidagi elementlardan tashkil topgan. 1-kompressor. 2,5 – havoventillatorlari, 3-monometr, 4-havo sig'imi (resiver), 6-fil'trlash qurilmasi, 7-menzurka.

## Ishni bajarish tartibi

1. Qurilmaning germetikligi tekshiriladi. Buning uchun 5-ventilni yopib, 2-ventil ochiq holatida 1-kompressor ishga tushiriladi va 3- manometr ko`rsatkichi  $2 \text{ kg/sm}^2$  darajasiga yetguncha kompressor yordamida resiverga havo haydaladi. Shu holatda kompressor ishdan to`xtatilib, 2-ventil berkitiladi. Agar sistemada yetarli germetiklik mavjud bo`lsa manometrning ko`rsatkichi vaqt o`tishi bilan o`zgarmaydi. Agar sistemadagi havo bosimi kamayib borsa, kamchilikni bartaraf qilish choralari ko`rilib, sistemadagi bosim qayta tiklanadi.
2. Fil`tr qurilmasining ishchi holatda ekanligi tekshiriladi. Buning uchun qurilmada fil`trlash materiali va tekis turishini ta`minlovchi metall to`rning mavjudligi, fil`trlash materialining tekis turganligi, qurilmadagi biriktiruvchi flanetslar orasida rezina prokladkaning mavjudligi tekshiriladi.
3. Boltli birikmalar yordamida fil`trlash qurilmasi germetik yopiladi.
4. Fil`trlash qurilmasining suspenziya qo`yiladigan qopqog`i ochilib, unga tayyorlab qo`yilgan suspenziya qo`yildi va germetik yopiladi.
5. Tajriba qurilmasidagi 5-ventil ochiladi va shu bilan bir vaqtda sekundomer ishga tushiriladi.
6. Ventil ochilgandan keyin har 15 sekunda fil`tr to`siqdan o`tgan fil`trat miqdori yozib olinadi va 3.1 jadvalga kiritiladi. Qurilmadan fil`trat chiqishining to`xtashi tajribaning yakunlanganligini bildiradi.
7. Cho`kmaning umumiy hajmi aniqlanadi.
8. Fil`tratning umumiy hajmi aniqlanadi.


	$\Delta P$	$\rho$	V	$\tau$	$\frac{\tau}{V}$	$V_f$	$V_r$	$X_0$	M	N	$r_2$	$R_f$
								=				

F,	<i>Pa</i>	kg/	m <sup>3</sup>	S		m <sup>3</sup>	m <sup>3</sup>	$\frac{V_r}{V_f}$				
m <sup>2</sup>		m <sup>3</sup>										

Jadval 4.1.

### Tajriba natijalarini tahlil qilish.

1. Fil'tr tusiqling F yuzasi aniqlanadi;
2. Suspenziyaning dinamik qovushqoqlik koeffitsienti aniqlanadi;
3.  $\frac{\tau}{V} = f(V)$  grafigi ko'riladi:



4. Grafikdan M va N ning qiymatlari aniqlanadi;
5. Quyidagi tenglamalar yordamida cho'kmaning solishtirma hajmiy qarshiligi va fil'tr to'siqning qarshiligi hisoblanadi.

$$M = \frac{\mu \cdot r_o \cdot x_o}{2 \cdot \Delta P \cdot F^2} \quad N = \frac{\mu \cdot R_T}{\Delta P \cdot F} \quad (4.9)$$

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Fil'trlash jarayonining mohiyati nimadan iborat?
2. Oziq-ovqat sanoatida uchraydigan fil'trlash jarayonlaridan misollar keltiring?
3. Fil'trlash jarayonining harakatlantiruvchi kuchi nima va uni qanday usullar bilan hosil qilish mumkin?
4. Fil'trlash tezligi nima va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Cho'kmaning xarakteri (siqiladigan va siqilmaydigan) fil'trlash tezligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

### **5 – Tajribaishi**

#### **ARALASHTIRISHUCHUN SARFBO'LGAN QUVVATNI ANIQLASH**

.

**Ishning maqsadi:** Aralashtirgichning ishlash printsipi va konstruktiv qismlari bilan tanishish. Aralashtirish organining aylanishlar soni turlicha bo'lganda, energiya sarfini aniqlash. Tajriba natijalarini umumlashtirish va hisoblash.

#### **Umumiy tushuncha**

Texnologik jaryonlarni amalga oshirish, gomogen sistemalar hosil qilish issiqlik va modda almashinish jarayonlarini tezlatish uchun suyuqlik muhitlarini aralashtirish keng qo'llaniladi. Suyuq fazalarni aralashtirish uch xil usulda amalga oshiriladi:

1. Mexanik usul – bu usulda aralashtirish mexanik kuch yordamida yakorli, parrakli, propellerli va turbinali aralashtirgichlarda amalga oshiriladi.
2. Pnevmatik usul – bu usulda aralashtirish siqilgan havo va inert gazni aralashtiriladigan suyuqlik katlamidan purkash yordamida amalga oshiriladi.
3. Nasos yordamida – bu usulda aralashtiriladigan suyuqlik, idishning ostki qismidan nasos yordamida olinib, ustki qismiga quyiladi.

Har qanday aralashtirgich qurilmasining ishi ikki xil kattalik bilan xarakterlanadi:

1. Aralashtirish samaradorligi.
2. Aralashtirish uchun sarf bulgan energiya miqdori.

Sanoatdagi turli jarayonlar uchun aralashtirish samaradorligi turlicha bo'ladi. Masalan, agar suspenziya tekshirilayotgan bo'lsa, aralashtirish samaradorligi qattiq modda zarrachalarining suyuqlikda bir xil tarqalish vaqti bilan belgilanadi.

Aralashtirish samaradorligi, aralashtirgich ishchi organining ma'lum bir vaqt ichidagi aylanishlari soni bilan ifodalanishi mumkin.

Ikkinchi muhim kattalik, bu aralashtirishda, aralashtirgichni aylantirish uchun sarf bulgan energiya miqdori yoki quvvatidir. Bu energiya aralashtiriladigan suyuqliklarning aralashtirgichning ishchi organiga ta'sir qilayotgan qarshiligini engishga sarf bo'ladi.

Gidrodinamika nuqtai nazaridan aralashtirishni xuddi suyuqlik oqimining xarakatidek qarash va shunga asoslanib uni quyidagi umumiy kriteriy orqali ifodalash mumkin:

$$E_u = f(\text{Re}, F_r, F_D, \Gamma_v, \Gamma_u) \quad (5.1)$$

bu erda

$E_u = \Delta P / (\rho \cdot \omega^2)$	- Eyler kriteriyasi;
$\text{Re} = \omega \cdot d \cdot \rho / \mu$	- Reynol'ds kriteriyasi;
$F_r = \omega^2 / (g \cdot d)$	- Frud kriteriyasi;
$F_D = \frac{D}{d};$  $\Gamma_u = \frac{v}{d}; \quad \Gamma = \frac{H}{d}$	- Geometrik o'xshashlik, bu o'xshashliklar aralash-tirish organining o'lchamlarini xarakterlaydi;

D – idishning diametri, m;

d – aralashtirish organining diametri, m;

v – aralashtirish organing qalinligi, m.

N – suyuqlik sathining balandligi, m

R – bosimning yuqolishi, Pa;

W – oqim harakatining o'rtacha tezligi, m/ s;

$\mu$  - dinamik quvoshqoqlik koeffitsienti, N.s/m;

g – erkin tushish tezlanishi; m/ s<sup>2</sup>

Aralashtirgich uchun, geometrik o'lchamni xarakterlaydigan kattalik qilib aralashtirish organining diametri qabul qilingan. Aralashtirilayotgan suyuqlikning tezligini aniqlash juda ham murakkab, shuning uchun unga proporsional bo'lgan kattalik, aralashtirgichning ishchi organing aylanishlar soni qabul qilingan, bulardan tashqari bosimning yo'qolishi o'rniga sarf bo'lgan quvvat qabul qilingan. Bunda (5.1) ifoda quyidagicha yoziladi:

$$\frac{N}{\rho \cdot n^3 \cdot d^3} = C \left( \frac{\rho \cdot n \cdot d^2}{\mu} \right)^m \cdot \left( \frac{n^2 \cdot d}{g} \right)^n \quad (5.2)$$

bu erda:

n – aylantirish organining aylanishlar soni, ayl/min;

N – aylantirish organi valining kuvvati, Vt.

Agar aralashtirilayotgan suyuqlik sathida voronka hosil bo'lmasa, aralashtirish organi suyuqlikka to'liqligicha cho'kkan bo'lsa, bunda og'irlik kuchining ta'siri kamayadi va uni hisobga olmasa bo'ladi. Unda (5.2) ifoda quyidagicha ko'rinishni oladi:

$$\frac{N}{\rho \cdot n^3 \cdot d^3} = C \left( \frac{\rho \cdot n \cdot d^2}{\mu} \right)^m \quad (5.3)$$

bu erda:

C – va m – lar o'zgarimas sonlar bulib, tajribadan topiladi.


### Tajriba o'tkaziladigan qurilmaning tuzilishi.

Tajriba o'tkazish qurilmasining tuzilishi, 5.1 – rasmda ko'rsatilgan. U aralashtirish kerak bo'lgan suyuqliklar solinadigan idish 1, parrakli aralashtirish organi 2, elektrodvigatel' 3, tutkich 4, aylanishlar sonini o'lchaydigan taxometr 5, tok kuchini o'lchaydigan ampermetr 6, kuchlanishni o'lchaydigan vol'tmetr 7, elektrodvigatelga kelayotgan kuchlanishni o'zgartiradigan latr 8 va namuna olish uchun o'rnatilgan jumrak 9 dan tashkil topgan.

### Ishni bajarish tartibi:

Sinovni boshlashdan oldin sinov qurilmasi va suyuqlikning asosiy parametrlari: idishning diametri D, suyuqlik qatlamining balandligi N, suyuqlikning zichligi  $\rho$ ; temperaturasi t; dinamik qovushqoqlik koeffitsienti  $\mu$ ; aralashtirish organining aylanish diametri d, parrak kengligi b, parraklar soni aniqlanadi.

Parrakli aralashtirgich sinovi nazorat o'lchrv asboblari (vol'tmetr, ampermetr, taxometr)ni tekshirishdan boshlanadi. So'ngra ishchi organing berilgan aylanishlar sonida, idishda suyuqlik bo'lmaganda aralashtirgichning salt ishlashi uchun sarflanadigan energiya mikdori aniqlanadi.



5.1 – rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi.

1 – idish, 2 – aralashtirgich, 3 – elektrodvigatel', 4 – shtativ, 5 – taxometr, 6 – ampermetr, 7 – vol'tmetr, 8 – latr, 9 – jo'mrak.

Buning uchun vol'tmetr va ampermetr yordamida kuchlanish va tok kuchining qiymati o'lchanadi. So'ngra quyidagi formula yordamida sarflanadigan quvvat hisoblanadi:

$$N = J \cdot U \quad (5.4)$$

Idish suv bilan to'ldirilib, uning temperaturasi o'lchanadi. SHu temperaturada ilovadagi jadvaldan suvning kerakli fizik kattaliklarning qiymatlari aniqlanadi.

Aralashtirgich ishga tushirilib, aralashtirish uchun sarf bo'ladigan quvvat miqdori aniqlanadi.

Aralashtirgichning turli aylanishlar sonida tajriba 5 marta takrorlanadi. Olingan natijalar 5.1 – jadvalda qayd qilib boriladi.

Jadval 5.1

Quvvat	Aylanishlar soni, min <sup>-1</sup>				
	1	2	3	4	5
Salt aylanishda Nc					
Suyuqlikni aralashtirishda, Nu					

#### Tajriba natijalarini hisoblash

Aralashtirish jarayoni uchun hisoblashning kriterial qonuniyati quyida formula bilan ifodalanadi.

$$E_v = C \cdot Re^m \quad (5.5)$$

$E_u$  va  $Re$  ning qiymati quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi.

$$E_u = \frac{N}{\rho \cdot n^3 \cdot d}; \quad Re = \frac{n \cdot d^2 \cdot \rho}{\mu} \quad (5.6)$$

$E_V$  va  $Re$  ning hisoblangan qiymatlari bo'yicha  $lg Re$  ning  $lg E_V$  ga bog'liklik grafigi ko'riladi:

Ushbu grafik bo'yicha  $s$  va  $m$  ning qiymatlari aniqlanadi. (5.5) formulani logarifmlash to'g'ri chiziq tenglamasini beradi.

$$\lg E_u = \lg c + m \lg Re \quad (5.7)$$

Daraja ko'rsatkich  $m$  qurilgan to'g'ri chiziqning gorizonta o'kka og'ish burchagining tangensiga teng.

Doimiy son  $s$  qurilgan to'g'ri chiziqning ordinata o'qi bilan kesishish nuqtasi koordinatasi bilan aniqlanadi.

Aralashtirgich validagi quvvat, quyidagicha topiladi.

$$N_b = N_1 \cdot \eta_{dv} \cdot \eta_{uzat} \quad (5.8)$$

$N_1$  - vol'tmetr va ampermetrning ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblangan quvvat, Vt;

$\eta_{dv}$  - elektrodvigatelning foydali ish koeffitsienti;

$\eta_{uzat}$  - uzatmaning foydali ish koeffitsienti.

Tajriba va hisoblash natijalari 5.2 jadvalga yoziladi, so'ngra quvvatning ishchi organ aylanishlar soniga bog'liqligi haqida xulosa qilinadi.

Jadval 5.2.

N	n	$\eta_{uz}$	$\eta_{dv}$	I	V	N	$E_i$	$lg E_i$	$Re$	$lg Re$	$lg C$	C	m

### Takrorlash uchun savollar.

1. Aralashtirgichlar nima uchun qo'llaniladi?
2. Suyuqlikning qovushqoqligi aralashtirish uchun sarf bo'layotgan energiya miqdoriga qanday ta'sir qiladi?
3. Aralashtirish usullari.
4. Mexanik aralashtirgichlarning konstruktiv tuzilishi?
5. Aralashtirgichlarning ishini xarakterlaydigan kattaliklar?
6. Quvvat va Reynol'ds kriteriyalarini yozing.
7. Qaysi hollarda pnevmatik aralashtirish usuli qo'llaniladi?
8. Ishni bajarish tartibini tushuntirib bering.
9. Qaysi hollarda parrakli, yakorli va turbinali aralashtirgichlar qo'llaniladi?

10. Aralashtirish uchun sarflanadigan quvvatga qanday faktorlar ta'sir kursatadi.

## 6- Tajriba ishi

### DISTILLYATSIYA JARAYONINI TADQIQ QILISH

**Ishning maqsadi:** Oddiy haydash jarayonini o`rganish. Distillyat va qoldiq tarkibi hamda miqdorini tajribada aniqlash. Sinov va hisoblash natijalarini solishtirish.

#### Umumiy tushuncha

Oddiy haydash kubli distillyatsion qurilmada amalga oshiriladi. Oddiy haydashda qaynash temperaturasi past bo`lgan suyuqlik tezroq bug` holatiga o`tadi, uning suyuqlikdagi konsentratsiyasi kamayib boradi. Shunday qilib jarayon davomida suyuqlikning qaynash temperaturasi oshib boradi hamda hosil bo`ladigan bug`ning tarkibida past temperaturada qaynaydigan komponent miqdori kamayib boradi.

Oddiy haydash komponentlarning qaynash temperaturasi keskin farq qilganda va aralashmani to`la ajratish talab qilinmagan hollarda qo`llanadi.

#### Tajriba qurilmasining tuzilishi.


Jarayonni o`rganish quyidagi qismlardan iborat bo`lgan qurilmada (1-rasm) amalga oshiriladi. Dastlabki aralashmaning ma`lum miqdori 1-haydash kubiga 9-truba orqali qo`yiladi. Aralashmani isitish 2-elektr isitgich yordamida amalga oshiriladi. Kubdagi bosim 3-manometr bilan o`lchanadi.

Aralashma qaynashi natijasida hosil bo`lgan bug` 4-sovitgich-kondensatorga yuboriladi. Kondensator zmayevigi orqali o`tish davomida bug` suv bilan sovutiladi va hosil bo`lgan distillyat 5-idishda to`planadi. Qoldiq 10 - jo`mrak orqali olinadi.

#### *Ishni bajarish tartibi:*

Ajratish uchun 40% etil spirti va 60% suvdan iborat bo`lgan ma`lum miqdordagi aralashma hosil qilinadi va haydash kubiga quyiladi.

Dastlabki aralashmadagi spirt konsentratsiyasi ( $X=0,4$ ) bo'yicha 1-jadvaldan [3], uning qaynash temperaturasi  $t_k$  aniqlanadi.



**6.1-rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi**

So'ngra elektr isitgich tok manbaiga ulanadi. Aralashmaning temperaturasi o'zgarishi 6-termometr yordamida kuzatib boriladi. Aralashma temperaturasi  $t_k$  ga tenglashgan vaqt sinov boshlanishi hisoblanadi. Sinov boshlangach har 10 minutdan so'ng quyidagi o'lchovlar o'tkaziladi: 6 - termometr yordamida kubdagi aralashma temperaturasi, yig'gichdagi distillyatning temperaturasi, kubdagi bug' bosimi, menzurka yordamida hosil bo'lgan distillyat miqdori, sovituvchi suv sarfi, suvning kondensatorga kirishdagi va undan chiqishdagi temperaturasi. Shuningdek har minutda 7-kran orqali kubdagi aralashmadan proba olinib, uning konsentratsiyasi aniqlanadi.

Sinov qoldiqdagi spirt miqdori 5% ga tushguncha davom ettiriladi. Olingan natijalar 1- jadvalga yozib boriladi. Sinov oxirida qoldiq miqdori  $G_k$  o`lchanadi.


### **Sinov natijalarini hisoblash.**

Distillyatning tarkibi va miqdorini, shuningdek qoldiq miqdorini aniqlash uchun quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$lH \frac{G_{\delta}}{G_k} = \int_{x_k}^{x_{\delta}} dx / (y - x) \quad (6.1)$$

bu yerda:  $G_{\delta}$  va  $G_{k1}$  - mos holda, boshlang`ich aralashma va qoldiq miqdorlari;

$x_{\delta}$  va  $x_k$  - mos holda, spirtning boshlang`ich aralashma va qoldiqdagi kontsentratsiyasi, %.



6.2-rasm.

Tenglamani yechish uchun grafik usulidan foydalaniladi. Buning uchun millimetrli qog`ozda ma`lum masshtabda spirt-suv aralashmasi uchun 2-jadvaldan [5] foydalanib  $1/(u-x)$  ning  $x$  bilan bog`lanish grafigi quriladi (2-rasm).

$x_b = 0,4$  dan  $x_k = 0,05$  gacha chegarada ushbu integral qiymati shtrixlangan yuza  $S$  ( $\text{mm}^2$  da) tasvirlanadi. U holda:

$$\int_{0,05}^{0,4} dx/(y-x) = S \cdot M_s \quad (6.2)$$

bu yerda  $M_s$  - yuza grafigidagi masshtab.

U holda  $\ln(G_b/G_k) = S M_s$  formuladan  $G_b/G_k$  nisbatni topish mumkin.

Shartga ko`ra boshlang`ich aralashma miqdori aniq ( $G_b = 2-5$  kg), noaniq  $G_k$  - qoldiqning nazariy qiymati aniqlanadi.

6.1. - jadval

Boshlang`ich aralashma - etil spirti - suv.

Miqdori -  $G_b$

Tarkibi -  $\chi_{\delta}$

Aralashmaning boshlang`ich temperaturasi -  $t_b$

Qoldiq:

Miqdori -  $G_k$

Konsentratsiyasi -  $x_k$

O`lchovlar orasidagi	Sinov boshlanishi- danhisoblangan vaqt , $\tau$	Aralashmaqaynash temperaturasi	Oson qaynadigan komponent (spirt bo`yicha tarkib)			Kubdagibosim	Distill.		Sovituvchi suv	
			Dast labki erit ma	Dist ilyat	Qoldiq		Miqdori	Temperatura	Miq Dor i	Temperatu ra
			$x_{\delta}$	$x_{\partial}$	$x_k$		R, Pa	$G_b$ , l	$t_g$ $^{\circ}C$	Bos hl $t_{\delta}^c, ^{\circ}C$
			Massaviy ulushlarda							

Qoldiq tarkibi bo`yicha undagi spirt miqdori aniqlanadi (kg):

$$G_c^k = G_k \cdot X_k \quad (6.3)$$

Distillyat miqdori (kg)

$$G_g = G_\delta - G_k \quad (6.4)$$

Distillyatdagi spirt miqdori (kg):

$$G_c^g = G_c - G_c^k \quad (6.5)$$

bu yerda  $G_c^{\delta}$  - boshlang'ich aralashmadagi spirt miqdori (kg)

$$G_\delta \approx G_\delta \cdot x_\delta \quad (6.6)$$

$G_c^k$  - qoldiqdagi nazariy spirt miqdori, kg.

Distillyatning spirt bo'yicha tarkibi (%):

$$x_g = \frac{G_c^g \cdot 100}{G_g} \quad (6.7)$$

2. - jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosan distillyatdagi spirt miqdori aniqlanadi:

$$G_c^{\delta} = G_{\delta} \cdot X_{\delta} \quad (6.8)$$

6.2-jadval

Ko`rsatkichlar	Qoldiq miqdori	distillyat miqdori	distillyat tarkibi	Dist.dagi Spirt miq.

Nazariy hisob bo`yicha:				
Sinov natijasi bo`yicha: farq%				

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Suyuqlik sistemalarini haydash jarayonining mazmuni?
2. Oddiy haydash (distillyatstsiya) va rektifikatsiya jarayonlarining bir-biridan farqi?
3. Distillyatsiya jarayonining amalga oshirish usullarini ayting.
4. Distillyatsiya va bug`latish jarayonlari orasidagi farqni tushuntirib bering.
5. Boshlang`ich eritma, qoldiq va distillyatning bir-biridan farqi nimada?
6. Distillyatsiya jarayonining harakatlantiruvchi kuchi nima?

### **Adabiyotlar:**

1. Salimov Z., Tuychiyev I. – Ximiyaviy texnologiya protsesslari va apparatlari. Toshkent, O`qituvchi, 1987. – 408 b. [285 – 293]
2. Г.Д.Кавецкий. Процессы и аппараты пищевой технологии. М.: 1999. – 620 с. (345-346, 351-356)
3. Гинзбург А.С. и др. Лабораторный практикум по процессам и аппаратам пищевых производств. М.: Агропромиздат, 1990. 225 с.

## **BIRKORPUSLIVAKUUMBUG`LATAKICHNISINASH**

**Ishning maqsadi:** Bir korpusli bug`latgichning tuzilishi va ishlash prinsipi bilan tanishish. Vakuum bug`latgichning ish unumdorligini aniqlash. Vakuum bug`latgichning issiqlik uzatish koeffitsientini aniqlash.

### **Umumiy tushuncha**

Uchuvchan bo`lmagan moddalar eritmalarini, uning tarkibidagi erituvchini qaynatish paytida chiqarib yuborish yo`li bilan quyuqlashtirish jarayoni bug`latish deb yuritiladi. Agar bug`lanish jarayoni qaynash temperaturasidan past temperaturada suyuqlikning yuzasida ro`y bersa, bug`latish jarayonida bug` eritmaning butun hajmidan ajralib chiqadi.

Quyuqlashtirilgan eritmalar va bug`latish natijasida hosil bo`lgan qattiq moddalarni oson hamda arzon qayta ishlash, saqlash va boshqa joylarga jo`natish mumkin.

Bug`latish jarayonida isituvchi agent sifatida asosan suv bug`i ishlatiladi, bunday bug` birlamchi bug` deb yuritiladi. Qaynayotgan eritmadan ajralib chiqayotgan bug` ikkilamchi bug` deb ataladi. eritmani bug`latish uchun zarur bo`lgan issiqlik miqdori devor orqali beriladi. Faqat ayrim hollarda eritmani quyuqlashtirish uchun kerak bo`lgan issiqlik tutun gazlari yoki boshqa gazsimon issiqlik tashuvchi agentlarning suyuqlik bilan o`zaro kontakti orqali beriladi.

Bug`latish jarayoni vakuum sharoitida, atmosfera va yuqori bosimda olib borilishi mumkin. Eritmalarning xossalari va ikkilamchi bug`ning issiqligidan foydalanish zaruratiga ko`ra yuqoridagi usullardan biri qo`llaniladi.

Vakuum sharoitida bug`latish bir qator afzalliklarga ega: jarayonni ancha past temperaturada olib borish mumkin, bu hol ayniqsa yuqori temperaturada parchalanib ketishi mumkin bo`lgan moddalar eritmalarini quyuqlashtirishda

juda qo`l keladi. Bundan tashqari, bu usulda isituvchi agent va eritma temperaturasi o`rtasidagi foydali farq ko`payadi, bu esa qurilmaning isitish yuzasini kamaytirish imkoniyatini yaratadi; vakuum sharoitida bug`latish uchun nisbatan past parametrli (temperatura va bosim) isituvchi agentdan foydalanish mumkin. Bu usulda ikkilamchi bug`dan isituvchi agent sifatida foydalanish imkoni tug`iladi. Vakuum sharoitida bug`latish kamchiliklardan ham xoli emas: bu usulda bug`latish qurilmasining narxi oshadi; vakuum hosil qilish uchun kondensator, tomchi ushlagich va vakuum-nasoslar kerak bo`ladi, bundan tashqari, qurilmani ishlatish uchun zarur bo`lgan sarf ham ko`payadi.

Atmosfera bosimidan yuqori bo`lgan bosimda bug`latishda hosil bo`lgan ikkilamchi bug`dan qaytadan bug`latish jarayonida hamda bug`latish bilan bog`liq bo`lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin. Boshqa maqsadlar uchun foydalanilayotgan ikkilamchi bug` ekstra-bug` deb ataladi. Yuqori bosim bilan bug`latish jarayonida ekstra-bug`ni ajratib olib ishlatish vakuum sharoitida bug`latishga nisbatan issiqlikdan to`laroq foydalanish imkonini beradi. Yuqori bosim bilan bug`latish eritmaning qaynash temperaturasining ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, yuqori bosim bilan bug`latishni amalga oshirish uchun yuqori temperaturali isituvchi agent kerak bo`ladi. Shu sababli bu usul yuqori temperaturaga chidamli moddalarning eritmalarni quyultirishda ishlatiladi.

Atmosfera bosimi sharoitida bug`latishda ikkilamchi bug` ishlatilmaydi, u atmosferaga chiqarib yuboriladi. Bunday usul eng oddiy, ammo iqtisodiy jihatdan eng tejamsiz hisoblanadi.

Sanoatda bug`latish jarayoni bir va ko`p korpusli qurilmalarda amalga oshiriladi. Asosan ko`p korpusli, ya`ni bir necha korpusdan tashkil topgan bug`latish qurilmalari ishlatiladi. Ko`p korpusli qurilmalarning faqat birinchi korpusiga isituvchi (birlamchi) bug` beriladi, keyingi korpuslarini isitish uchun

esa oldingi korpuslardan chiqqan ikkilamchi bug` ishlatiladi. Natijada isituvchi bug`ning umumiy sarfi kamayadi.


Ishlash rejimiga ko`ra bug`latish qurilmalari davriy va uzluksiz bo`ladi. Kichik masshtabdagi ishlab chiqarishlarda va ayrim vaqtda, eritmalarni yuqori konsentratsiyalargacha bug`latishda davriy ishlaydigan bug`latish qurilmalari qo`llaniladi. Sanoatda asosan uzluksiz ishlaydigan bug`latish qurilmalaridan foydalaniladi. Zamonaviy bug`latish qurilmalari ancha katta isitish yuzasiga ega, ba`zan bitta qurilmaning isitish yuzasi 2000 m<sup>2</sup> dan ortib ketadi.

### **Qurilmaning tuzilishi**

Tadqiqotlar 7.1. - rasmda tasvirlangan qurilmada olib boriladi. Qurilma vakuum-bug`latgich (1) dan iborat bo`lib, uning ichida zmeevik shaklida tayyorlangan isitgich (2) joylashtirilgan. eritmadan ajralib chiqayotgan ikkilamchi bug`dan suyuqlik tomchilarini saqlab qolish uchun qurilmaning bug` separatori qismida tomchi ushlagich (3) joylashtirilgan. Bug`latgich ventil (4) yordamida zeevikli kondensator (5) bilan tutashtirilgan. Qurilmadagi ikkilamchi bug` bosimi vakuumometr (6) bilan o`lchanadi.

Bug`latiladigan eritma o`lchov idishi (7) va ventil` (8) orqali bug`latgichga beriladi. eritmaning qurilmadagi temperaturasi termometr (9) yordamida nazorat qilib turiladi. Quyuqlashgan eritma ventil` (10) orqali vakuum qurilmaga tutashgan o`lchov idishi (11) da to`planadi.

Issiqlik tashuvchi - kompressor moyi ichida zmeevik (12) va elektr issitgichi (13) bo`lgan idish (14) da 120-150 °S gacha isitiladi. Isituvchining temperaturasini rostlab turish uchun elektr isitgich latr (16) orqali tok manbaiga ulangan.



**7.1-rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi**

***Ishni bajarish tartibi:***

Sinovni boshlashdan oldin isitkich (13) tok manbaiga ulanib, sistemadagi moy 120 - 150 °S gacha isitiladi. Moy temperaturasi termometr (15) va latr (16) yordamida rostlab turiladi. So`ngra bug`latkichga eritma quyiladi. Buning uchun havo ventili (17) va (18) ochilib, ventil (10) yopiladi. Ventil (8) ochilib sekundomer ishga tushiriladi. O`lchov idishi (7) dan 10 l miqdordagi eritma oqib tushgach, sekundomer to`xtatilib, ventel (8) yopiladi. Sinov bayoniga qurilmani to`ldirish vaqti yozib qo`yiladi. Havo ventili (17) yopilib, ventil (4) ochiladi va sekundometr ishga tushiriladi. Vakuummetr ko`rsatkichi o`zgarmay qolgach, sekundomer to`xtatilib, sinov bayoniga siyraklanish qiymati yozib qo`yiladi.

Eritmaning boshlang`ich temperaturasi, konsentratsiyasi, isitishni boshlash vaqti bayonda qayd qilib qo`yiladi. Konsentratsiya areometr yordamida o`lchanadi.

Eritma qaynash vaqtida quyidagilar bajariladi. Ikkinchi sekundomer yordamida isitish davomiyligi aniqlanadi. (eritmaning qaynash temperaturasi termometr 9 ning ko`rsatkichi o`zgarmay qolganiga qarab aniqlanadi). Eritma qaynay boshlagach ikkilamchi bug`ning bosimi va moyning qurilmadan chiqishdagi temperaturasi qayd qilib boriladi (o`lchashlar 1,5 soat davomida har 15 minutda o`tkaziladi). Berilgan vaqt tugashi bilan ventil (4) yopilib, havo ventili (13) ochiladi.

Eritmani qurilmadan chiqarish uchun ventil` (10) ochilib sekundomer ishga tushiriladi. Sinov bayonida qurilmani bo`shatish vaqti va o`lchov idish (11) dagi quyuqlashgan eritma miqdori yozib qo`yiladi. Quyuqlashgan mahsulot konsentratsiyasini ariometr yordamida o`lchab bayonda qayd qilib qo`yiladi.

Dastlabki suyuq eritma miqdori,  $G_{\delta}$  kg

Eritmaning boshlang`ich temperaturasi,  $t_1^{\circ}C$

Isitishni boshlanish vaqti

Quyuqlashgan eritma miqdori,  $G_0$  кг

Eritmaning boshlang`ich konsentratsiyasi,  $\theta_{\delta}$

Eritmaning oxirgi konsentratsiyasi,  $\theta_o$

Eritmaning qaynash temperaturasi,  $t_2^{\circ}C$

Bug`lat tuldiril	Isitish vaqti	Vakuum xos. qilish	Bug`latis h	Qurilmani bo`shatish	Moyning qurilmadan chiqishdagi	Moyning boshl.
---------------------	------------------	-----------------------	----------------	-------------------------	--------------------------------------	-------------------

vaqti		vaqti	vaqti	vaqti	temper.	temperaturasi
$\tau_{to\grave{l}}$	$\tau_{is}$	$\tau_{vaq}$	$\tau_{bug\grave{l}}$	$\tau_{bo\grave{sh}}$	$t_{moy}^0, ^0C$	$t_{moy}^{\delta}, ^0C$
S	S	S	S	S	$^0C$	$^0C$

### Tajriba natijalarini hisoblash

Sinov natijalarini hisoblash bayonda qayd qilingan kattaliklar bo`yicha amalga oshiriladi.

Bug`latkichning ish unumdorligini aniqlash.

Ish siklining davomiyligi (soat) aniqlanadi.

$$\tau_s = \tau_{is} + \tau_{bug\grave{l}} + \tau_{vaq} + \tau_{to\grave{l}} + \tau_{bo\grave{sh}} \quad (7.1)$$

bu yerda  $\tau_{is}, \tau_{bug\grave{l}}, \tau_{vaq}, \tau_{to\grave{l}}, \tau_{bo\grave{sh}}$  - mos ravishda qaynash temperaturasigacha isitish, bug`latish, siyraklanish hosil qilish, to`ldirish va bo`shatish vaqtlari.

Qurilma ish unumdorligi (dastlabki eritma bo`yicha kg/soatlarda)

$$G = \frac{V \cdot \rho}{\tau} \quad (7.2)$$

bu yerda: V –dastlabki eritma hajmi, m<sup>3</sup>

$\rho$  - eritma zichligi (eritma temperaturasi va konsentratsiyasi bo'yicha ilovadan aniqlanadi), kg/ m<sup>3</sup>.

Issiqlik o'tkazish koeffitsienti issiqlik o'tkazishning asosiy tenglamasidan aniqlanadi:

$$K = \frac{Q_{um}}{F \cdot \Delta t_f} \quad (7.3)$$

bu yerda  $Q_{um}$  - issiqlik sarfi, Vt

F - issiqlik uzatish yuzasi, m<sup>2</sup>

$\Delta t_f$  - foydali temperaturalar farqi, °S

Issiqlik sarfi eritmani qaynash temperaturasigacha isitish, bug'latish va atrof muhitga sarflanadigan issiqlik miqdorlarining yigindisidan iborat.

Eritmani qaynash temperaturasigacha isitish uchun issiqlik miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q_1 = G_{\sigma} \cdot c \cdot (t_2 - t_1) \quad (7.4)$$

bu yerda  $G_{\sigma}$  - dastlabki eritma miqdori

s – eritmaning solishtirma issiqlik sig'imi,  $\frac{j}{kg, ^{\circ}C}$

$t_1$  - eritmaning boshlang'ich temperaturasi, °C

$t_2$  - eritmaning qaynash temperaturasi, °C

Bug'latish uchun sarflangan issiqlik miqdori

$$Q_2 = W \cdot r \quad (7.5)$$

bu yerda  $W$  - bug`latishda ajralgan ikkilamchi bug`ning miqdori, kg

$r$  - solishtirma bug` hosil bo`lish issiqligi, qurilmadagi bosimga ko`ra jadvaldan olinadi. Qurilmadagi bosim vakuumetr ko`rsatkichiga ko`ra quyidagicha aniqlanadi:

$$P = \frac{P_{bar} - B}{98071,7} = \frac{99991,5 - B}{98071,7} \quad (7.6)$$

Bug`latishda ajralgan ikkilamchi bug` miqdori moddiy balans tenglamasidan aniqlanadi:

$$W = G_6 - G_0 \quad (7.7)$$

Atrof muhitga sarflangan issiqlik miqdori 2% ga teng. U holda umumiy issiqlik sarfi:

$$Q_{um} = 1,02 (Q_1 + Q_2) \quad (7.8)$$

Temperaturalar farqi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta t_{ur} = t_{moy}^{ur} - t_2 \quad (7.9)$$

bu yerda  $t_{moy}^{ur}$  - moyning o`rtacha temperaturasi,  $^{\circ}S$ , 15, 16 - termometrlar ko`rsatkichiga ko`ra aniqlanadi.

Issiqlik almashinish yuzasini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$F = \pi \cdot D_{ur} \cdot l \quad (7.10)$$

bu yerda  $D_{ur}$  - isituvchi moy harakatlanayotgan zmeyevikning o`rtacha diametri, m.

$l$  - zmeyevik uzunligi, m.

Zmeyevikning o`rtacha diametri uning ichki va tashki diametrlarini shtangensirkul bilan o`lchab aniqlanadi.

Zmeyevik uzunligi quyidagicha aniqlanadi:

$$l = n \cdot l_{o`ram} \quad (7.11)$$

bu yerda:  $n$  - zmeyevik o`ramlarining soni;

$l_{o`ram}$  - bitta o`ram uzunligi, m.

$$l_{o`ram} = \pi \cdot D_{zm} \quad (7.12)$$

bu yerda  $D_{zm}$  - zmeyevik o`ramining diametri, m, (o`lchab olinadi).

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Bug`latish jarayonining fizik mazmunini tushuntirib bering.
2. Bug`latish jarayoni nima maqsadda foydalaniladi?
3. Bug`latish jarayonida temperaturaning yo`qolishiga sabab nima?
4. Bug`latish jarayoni qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
5. Bug`latish qurilmalarida nima maqsadda korpuslar soni oshiriladi?
6. Birlamchi, ikkilamchi va ekstra bug`ning bir biridan farqi nimada?

### **Adabiyotlar:**

1. Salimov Z., Tuychiyev I. – Ximiyaviy texnologiya protsesslari va apparatlari. Toshkent, Ukituvchi, 1987. – 408 b. [158–173]
2. Salimov Z. Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari. 1-tom. Toshkent, O`zbekiston, 1994. – 366 b. [326–333]
3. Г.Д.Кавецкий. Процессы и аппараты пищевой технологии. М.: 1999. – 620 с. [266-283]

## 8 – Tajriba ishi

### NASOSLARNING TUZILISHINI, ISH TARZINI O`RGANISH. NASOSLARNING PRINSIPIAL SXEMALARINI CHIZIB OLSH

**Ishning maqsadi:** Nasoslarning tuzilishini, ish tarzini va prinsipial sxemalarini o`rganish.

#### Umumiy tushuncha

Suyuqlikni uzatish. Suyuqliklarni uzatish uchun mo`jallangan mashinalar (qurilmalar) *nasoslar* deyiladi. Trubaning boshlang`ich va oxirgi nuqtalaridagi bosimlar farqi trubalarda suyuqlikning oqishi uchun harakatlanuvchi kuch hisoblanadi. Suyuqlik oqimining trubalardagi harakatlantiruvchi kuchi gidravlik mashinalar yoki nasoslar orqali hosil qilinadi. Nasos elektr dvigateldan mexanik energiya olib, uni suyuqlik xarakatining oqim energiyasiga aylantirib, bosimini oshiradi.

Nasoslar iqtisodiyotning barcha sohalarida: mashinasozlikda, metallurgiyada, oziq – ovqat sanoatida, er ishlarini gidromexanizatsiyalashtirishda va ko`pchilik boshqa tarmoqlarda keng qo`llaniladi.

Nasoslarning turlari va asosiy parametrlari. Nasoslar asosan ikki turga: dinamik va hajmiy nasoslarga bo`linadi.

Dinamik nasoslarda suyuqlik tashqi kuch ta`sirida harakatga keltiriladi. Nasos ichidagi suyuqlik nasosga kirish va undan chiqish trubalari bilan uzluksiz bog`langan bo`ladi. Suyuqlikka ta`sir qiladigan kuchning turiga ko`ra, dinamik nasoslar parrakli va ishqalanish kuchi yordamida ishlaydigan nasoslarga bo`linadi.

Parrakli nasoslar o`z navbatida markazdan qochma va propellerli (o`qli) nasoslarga bo`linadi. Markazdan qochma nasoslarda suyuqlik ish g`ildiragining markazidan uning chetiga qarab harakat qilsa, propellerli nasoslarda esa suyuqlik g`ildirakning o`qi yo`nalishida harakat qiladi.

Ishqalanish kuchiga asoslangan nasoslar ikki xil (uyurmaviy va oqimli) bo`ladi. Uyurmaviy va oqimli nasoslarda suyuqlik asosan ishqalanish kuchi ta`sirida harakatga keladi.

Hajmiy nasoslarning ishlash printsipti suyuqlikning ma`lum bir hajmini yopiq kameradan itarib chiqarishga asoslangan. Hajmiy nasoslar jumlasiga porshenli, plunjerli, diafragmali, shesternyali, plastinali va vintsimon nasoslar kiradi.

Sanoatda suyuqliklarni siqilgan gaz (yoki havo) yordamida uzatish uchun *gazliftlar va montejoyular* ham ishlatiladi.

Nasosning asosiy parametrlari. Nasoslardan foydalanish ish unumdorligi, napor va quvvat kabi kattaliklar bilan belgilanadi.

Nasosning vaqt birligi ichida uzatib beradigan suyuqlik miqdori ish unumdorligi (yoki sarfi) deyiladi ( $Q, m^3/s$ ).

Nasosning massa birligiga ega bo`lgan suyuqlikka bergan solishtirma energiyasi *napor* deb yuritiladi ( $N, m$ ). Nasosning napori oqimning nasosga kirish va chiqishdagi solishtirma energiyalari ayirmasiga teng.

Suyuqlikka energiya berish uchun sarflangan nasosning foydali quvvati  $N_{\text{suyuqlik}}$  sarfi miqdori  $\gamma \cdot Q$  ning solishtirma foydali energiyaga ko`paytirilganiga teng:

$$N_{\phi} = \gamma \cdot Q \cdot H = \rho \cdot g \cdot Q \cdot H \quad (8.1)$$

Nasosning o`qidagi quvvati foydali quvvatdan kattaroq bo`ladi, chunki nasosda energiyaning bir qismi yo`qoladi. energiyaning yo`qolishi nasosning foydali ish koeffitsienti (FIK)  $\eta_n$  bilan belgilanadi. Demak, nasosning o`qidagi quvvat quyidagi tenglama bilan topiladi:

$$N_e = \frac{N_{\phi}}{\eta_n} = \frac{\rho \cdot g \cdot Q \cdot H}{\eta_n} \quad (8.2)$$

Foydali ish koeffitsienti  $\eta_h$  nasosdagi quvvatning nisbiy yo`qolishini, nasosning mukammalligini va uni ishlatishning arzonligini ifodalaydi hamda quyidagi ko`paytma orqali topiladi:

$$\eta = \eta_V \cdot \eta_z \cdot \eta_M \quad (8.3)$$

bu yerda  $\eta_V$  hajmiy FIK;  $\eta_z$  - gidravlik FIK;  $\eta_M$  - mexanik FIK.

Hajmiy FIK nasosning haqiqiy ish unumdorligining nazariy ish unumdorligiga nisbatiga teng bo`lib, nasos konstruksiyasining zich bo`lmagan joylaridan sizib chiqqan suyuqlikning miqdorini belgilaydi.

Gidravlik FIK suyuqlikning nasosdan o`tishida gidravlik va mahalliy qarshiliklarni engish uchun sarf bo`lgan naporning yo`qolishini ifodalaydi.

Mexanik FIK nasos mexanizmlaridagi ishqalanishni engishga sarflangan quvvatning yo`qolishini belgilaydi.

Dvigatel' iste`mol qiladigan quvvat (yoki dvigatelning nominal quvvati) nasos o`qidagi quvvatdan ortiqroq bo`ladi, chunki quvvatning bir qismi elektr dvigatelning o`qida va elektr dvigateldan mexanik energiya nasosga berilayotganda sarf bo`ladi, ya`ni:

$$N_{gs} = \frac{N_e}{\eta_y \cdot \eta_{\partial\phi}} = \frac{N_\phi}{\eta_h \cdot \eta_y \cdot \eta_{\partial\phi}} \quad (8.4)$$

Ko`paytma  $\eta_h \cdot \eta_y \cdot \eta_{\partial\phi}$  nasos qurilmasining to`la FIK deb yuritiladi va  $\eta$  bilan belgilanadi.

Nasos qurilmalarini o`rnatish uchun zarur bo`lgan quvvat quyidagiga teng:


$$N_h = \beta \cdot N_{\partial\phi} \quad (8.5)$$

bu yerda  $\beta$  - quvvatning extiyot koeffitsienti, bu koeffitsientning qiymati dvigatelning nominal quvvatiga nisbatan topiladi (8.1 - jadval)

8.1– jadval.

$N_{\text{ob}}, \kappa Bm$	1 dan kam	1 – 5	5 – 50	50 dan ko`p
$\beta$	2 – 1.5	1.5 – 1.2	1.2 – 1.15	1.1

Markazdan qochma tipdagi nasoslar. Markazdan qochma nasoslarda spiralsimon qobiq ichida parrakli ish g`ildirak joylashgan bo`ladi. Ish g`ildirakning aylanishida markazdan qochma kuch hosil bo`ladi. Bu kuch ta`sirida suyuqlikning so`rilishi va uni haydash bir me`yorda uzluksiz boradi. 8.1 – rasmda markazdan qochma nasos sxemasi ko`rsatilgan.



8.1-Rasm. Markazdan qochma nasos.  
 1-spiralsimon qo`zg`almas kamera;  
 2- ish g`ildiragi; 3-parraklar;  
 4- bal; 5-so`ruvchi truba; 6-kirish klapani; 7-to`rli filtr;  
 8- uzatuvchi truba; 9- suyuqlik quyiladigan truba; 10 – sal`nik.

Nasos ishga tushirilishidan oldin so`rish trubasi, ish g`ildiragi va qobiq suyuqlik bilan to`ldiriladi. SHundan keyin dvigatel` tok manbaiga ulanadi va ish


g'ildiragi harakatga keltiriladi. Suyuqlik g'ildirak bilan birga aylanib, markazdan qochma kuch ta'sirida parraklar vositasida g'ildirakning markazidan chekkasiga o'tilib, spiralsimon qo'zg'almas kamerani to'ldiradi va haydash trubasi orqali balandlikka ko'tariladi. Bunda ish g'ildiragiga kirish oldida siyraklanish vujudga keladi. Suyuqlik atmosfera bosimi ta'sirida yig'gich rezervuardan kirish klapani orqali so'rish trubasidan nasosga kirib, ish g'ildirakning markaziy qismini to'ldiradi hamda g'ildirakning chekkalariga chiqarib tashlanadi va hokazo. SHunday qilib, uzluksiz markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlikning nasos orqali o'tadigan uzluksiz oqimi vujudga keladi.

Suyuqlikning ish g'ildiragi orqali oqib o'tishida dvigatelning mexanik energiyasi suyuqlik oqimi energiyasiga aylanadi. Bunda ish g'ildirakdan chiqish oldida suyuqlikning bosimi ortadi.

**Porshenli nasoslar. *Porshenli nasoslarning tuzilishi va ishlash printsiipi.*** Porshenli nasoslarda suyuqlik haydash trubasiga ilgarilanma – qaytma harakat qiluvchi mexanizmlar orqali uzatiladi. Porshenli nasoslar vositasida har qanday qovushqoqlikdagi suyuqliklarni uzatish mumkin. Porshenli nasoslardan oz miqdordagi suyuqliklarni yuqori bosimda uzatishda va suyuqlik sarfi o'zgarmas bo'lib, bosim keskin o'zgaradigan hollarda foydalanish qulay. Bu nasoslarda porshen' nasos qobig'ida gorizonta va vertikal hollarda joylashgan bo'lishi mumkin. Ishlash printsiipiga ko'ra porshenli nasoslar oddiy, ikki bosqichli va ko'p bosqichli bo'ladi.

Porshen suyuqlikni faqat old tomoni bilan siqib chiqaradigan nasos oddiy bir tomonlama ishlaydigan nasos deyiladi.

Agar nasos tsilindrida porshenning ikkala tomonida joylashgan ish kamerasi bo'lsa va porshen' ulardan suyuqlikni ketma – ket siqib chiqarsa, bunday nasos ikki bosqichli yoki ikki tomonlama ishlaydigan nasos deyiladi.



8.2 - rasm. Oddiy gorizontol holatdagi porshenli nasos

1- tsilindr; 2- porshen; 3- ilgari lanma – qaytma harakat qiluvchi mexanizm; 4,5 – so`ruvchi va uzatuvchi klapanlar; 6,7 – suro`vchi va uzatuvchi trubalar.


Oddiy porshenli nasosning ishlash printsiptini ko`rib chiqamiz (8.2 - rasm). Nasos porsheni so`rish jarayonida o`ng tomonga harakat qilganda ish kamerasing hajmi kattalashadi. Undagi bosim kamayib, siyraklanish hosil bo`ladi. Pastki rezervuardagi (nasos suyuqlikni so`rib oladigan basseyndagi) suyuqlikning erkin sirti atmosfera bosimi  $R$  ta`sirida bo`ladi. Atmosfera bosimi bilan pasaytirilgan bosim  $R_1$  orasidagi farq ta`sirida suyuqlik rezervuardan so`rish trubasi bo`ylab tsilindrda ko`tariladi hamda so`rish klapanini ochib, nasosning ish kamerasi bo`shlig`ini to`ldiradi. Porshen o`ng chekka holatni egallab, chap tomonga harakat boshlanishi bilan so`rish klapani yopilib, haydash klapani ochiladi va tsilindrda yig`ilgan suyuqlik porshen vositasida uzatish trubasiga siqib chiqariladi.

Suyuqlikning harakat tezligi va bosimlarining pul`satsiyalanishini tenglashtirish hamda suyuqlikning so`rish va haydash trubalarida bir me`yorda tekis oqishini ta`minlash uchun nasosga maxsus qurilma (havo qalpoqchalari) o`rnatiladi.

**Maxsus nasoslar.** Ishlab chiqarishda suyuqliklarni uzatish uchun markazdan qochma va porshenli nasoslardan tashqari maxsus nasoslar ham ishlatiladi. Maxsus nasoslar qovushqoqligi yuqori boʻlgan, juda ifloslangan, chuqur quduqdagi suyuqliklarni uzatish uchun qoʻllaniladi. Maxsus nasoslar sifatida rotorli (shesternyali, plastinali), vintli, oqimli, propellerli gazlift, erliftlar va montejoylar ishlatiladi.

**Rotorli nasoslar.** Qovushqoqligi juda yuqori, ifloslangan va uzatilishi qiyin boʻlgan suyuqliklarni uzatish uchun rotorli nasoslardan foydalaniladi. Bu nasoslarda suyuqlik aylanuvchi mexanizmlar harakati vositasida uzatiladi. Rotorli nasoslar porshenli nasoslardan klapan va havo qalpoqchalarining yoʻqligi bilan farqlanadi.

Rotorli nasoslar oʻz navbatida plastinali va shesternyali nasoslarga boʻlinadi. Sanoatda koʻpincha shesternyali (tishli) nasoslar ishlatiladi. Nasos qobigʻida oʻzaro ilashgan holatdagi uzluksiz aylanib turuvchi shesternyalar jufti joylashgan (8.3 - rasm).



8.3-Rasm. Shesternyallinasos.

1 – qobiq; 2,3 – bir-biriga ilashgan tishli shesternyalar; 4 – soʻruvchi potrubka;

5 – uzatuvchi potrubka.

Shesternyalar aylanganda bir shesternyaning har qaysi tishi ilashgan holatdan chiqib, ikkinchi shesternyaning chiqurchasidagi tegishli xajmni boʻshatadi. Yigʻgich rezervuardagi atmosfera bosimi taʼsirida suyuqlik boʻshagan hajmga soʻriladi. Shesternyalarning keyingi aylanishida tishlar orasidagi suyuqlik tishlar bilan birgalikda soʻrish sohasidan haydash sohasiga oʻtadi.

SHesternyalarning tishlari yana qaytadan ilashgan paytda ikkala shesternyaning tishlari orasidagi chuqurchalarni to`ldirgan suyuqlik siqib chiqariladi va haydash trubasiga o`tadi. SHesternyali nasoslar katta aylanishlar chastotasida (3000ayl/min gacha) ishlay oladi, shuning uchun ularni tez aylanadigan dvigatelning valiga bevosita ulash mumkin. Ular konstruktsiyasining soddaligi, ishonchli ishlashi, o`lchamlarining kichikligi va arzonligi bilan boshqa nasoslardan ajralib turadi. SHuning uchun shesternyali nasoslar amalda keng ishlatiladi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Nasoslar deb nimaga aytiladi ?
2. Nasoslar xalq xo`jaligining qaysi tarmoqlarida ishlatiladi ?
3. Nasoslarning turlari va asosiy parametrlarini aytib bering?
4. Nasosning o`qidagi quvvat qanday tenglama bilan ifodalanadi?
5. Porshenli nasoslarning tuzilishi va ishlash printsipini aytib bering?
6. Rotorli nasoslarning tuzilishi va ishlash printsipini aytib bering?

## **9 – Tajriba ishi**

### **BIR VA IKKI YO`LLI ISITGICHDA ISSIQLIK ALMASHINISH JARAYONINI TADQIQ QILISH**

**Ishning maqsadi:** Bir va ko`p yo`lli issiqlik almashinish qurilmalarida issiqlik almashinish jarayonini o`rganish. Sinov natijalari bo`yicha issiqlik o`tkazish koeffitsientini aniqlash. Bir va ko`p yo`lli issiqlik almashinish qurilmalari ishining effektivligini solishtirish.

#### **Umumiy tushuncha**

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida issiqlik almashinish jarayonlari juda keng tarqalgan jarayonlardan hisoblanadi. Moddalararo issiqlik almashinish ro`y beradigan agregatlar issiqlik almashinish qurilmalari deyiladi.

Issiqlik almashinish qurilmalari ishlash printsipligiga ko`ra rekuperativ , regenerativ va aralashtiruvchi turlarga bo`linadi.

Rekuperativ (yoki sirtiy) issiqlik almashinish qurilmalarida issiqlik tashuvchilar devor bilan ajratilgan bo`lib, issiqlik shu devor orqali o`tkaziladi.

Regenerativ issiqlik almashinish qurilmalarida qattiq jismdan tashkil topgan birta yuz navbat bilan turli issiqlik tashuvchi agentlar bilan kontaktda bo`ladi, natijada bu jism bir issiqlik tashuvchidan olgan issiqligini ikkinchisiga beradi.

Aralashtiruvchi issiqlik almashinish qurilmalarida ikki issiqlik tashuvchi agent bir-biri bilan o`zaro kontaktda bo`ladi.

Sirtiy issiqlik almashinish qurilmalari o`z navbatida qobiq - trubali, "truba ichida truba" tipidagi, zmeevikli, plastinali, g`ilofli, spiralsimon, qirrali va boshqa turlarga bo`linadi.

Qobiq-trubali qurilmalar eng keng tarqalgan issiqlik almashinish qurilmalari jumlasiga kiradi. Ushbu qurilmalarda issiqlik trubalar ichidagi oqimdan trubalararo bo`shliqdagi oqimga uzatiladi yoki aksincha.

Ushbu ishda yo`llar soni turli xil bo`lgan qobiq trubali qurilmalarda sovuq suvni qizdirilgan issiqlik tashuvchi yordamida isitish jarayoni o`rganiladi.

Issiqlik balansi va issiqlik uzatish tenglamalari asosiy hisoblash formulalari bo`lib hisoblanadi.

Suyuqlikni isitish yoki sovitishda issiqlik tashuvchining agregat holati o`zgarmasa, ya`ni gaz yoki suyuqlik issiqlik tashuvchi bo`lganda, issiqlik balansi tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi.

$$Q = G_1 \cdot c_1 (t_1^I - t_1^{II}) = G_2 \cdot c_2 (t_2^{II} - t_2^I) + Q_{sarf} \quad (9.1)$$

bu yerda  $G_1$  va  $G_2$  - mos holda «issiq» va «sovuq» issiqlik tashuvchilarning sarfi, kg/c;

$c_1$ ,  $c_2$  - mos holda «issiq» va «sovuq» issiqlik tashuvchilarning solishtirma issiqlik sig`imi, ularning qiymati issiqlik tashuvchilarning o`rtacha temperaturasiga mos holda jadvaldan olinadi.

$t_1^I, t_1^{II}$  - mos holda, «issiq» issiqlik tashuvchining boshlang`ich va oxirgi temperaturasi,  $^{\circ}\text{S}$ ;

$t_2^I, t_2^{II}$  - mos holda, «sovuq» issiqlik tashuvchining boshlang`ich va oxirgi temperaturasi,  $^{\circ}\text{S}$ ;

$Q_{\text{sarf}}$  - atrof muhitga sarf bo`lgan issiqlik miqdori.

Uzluksiz jarayonlar uchun issiqlik o`tkazishning asosiy tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$Q = K \cdot F \cdot \Delta t_{o'r} \quad (9.2)$$

bu yerda:  $K$  - issiqlik o`tkazish koeffitsienti,  $\text{Vt}/(\text{m}^2 \text{K})$ ;

$F$  - qurilmaning issiqlik almashinish yuzasi,  $\text{m}^2$ ;

$\Delta t_{o'r}$  - issiq va sovuq muhit temperaturalarining o`rtacha farqi,  $^{\circ}\text{S}$ .

Issiqlik o`tkazish koeffitsienti issiqlikning bir muhitdan ikkinchi muhitga o`tish tezligini belgilovchi koeffitsient bo`lib, vaqt birligi ichida ajratuvchi devorning  $1 \text{ m}^2$  yuzasidan, muhitlar temperaturasi farqi  $1 \text{ }^{\circ}\text{S}$  bo`lganda o`tkazilgan issiqlik miqdorini bildiradi.

(8.2) formuladan ko`rinib turibdiki  $Q$  va  $\Delta t_{o'r}$  ning bir xil qiymatlarida  $K$  ning qiymati oshishi bilan qurilmaning o`lchamlari, massasi, binobarin narxi kamayadi.

Dumaloq shaklga ega bo`lgan trubalar uchun issiqlik o`tkazish koeffitsienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1 d_1} + \frac{1}{\lambda} \cdot 2,3 \lg \frac{d_1}{d_2} + \frac{1}{\alpha_2 d_2}} \quad (9.3)$$

bu yerda:  $\alpha_1$  - issiq muhitdan isitish devoriga issiqlik berish koeffitsienti,  $Vt/(m^2 \cdot K)$ ;

$\alpha_2$  - isitish devoridan sovuq muhitga issiqlik berish koeffitsienti,  $Vt/(m^2 \cdot K)$ ;

$\lambda$  – devor materialining issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti  $Vt/(m \cdot K)$ ;

$d_1, d_2$  - issiq va sovuq muhitlar tomonidan trubaning diametri, m.

Issiqlik berish koeffitsienti quyidagi ko`rinishidagi kriterial tenglamadan aniqlanadi:

$$Nu = f(Re \cdot Pr \cdot Gr) \quad (9.4)$$

bu yerda:  $Nu$  - Nusel't kriteriyasi:  $Nu = \alpha l / \lambda_m$

$l$  - issiqlik berayotgan yoki issiqlikni qabul qilayotgan sirt uchun aniqlovchi geometrik o`lcham, m;

$\lambda_m$  - issiqlik berayotgan yoki qabul qilayotgan muhitning issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti,  $Vt/(m \cdot K)$ ;

Hisoblash formulasi issiq va sovuq muhitlarning oqish rejimlariga asoslanib tanlanadi:

- laminar rejimda ( $Re < 2320$ )

$$Nu = 0,7(Re \cdot Pr)^{0,2} \cdot (Gr \cdot Pr)^{0,1} \quad (9.5)$$

- o'tish rejimida  $2320 \leq Re \leq 10000$

$$Nu = 0,009 \cdot Re^{0,9} \cdot Pr^{0,43} \quad (9.6)$$

- turbulent rejimida  $Re > 10000$

$$Nu = 0,023 \cdot Re^{0,8} \cdot Pr^{0,4} \quad (9.7)$$

Prandtl kriteriyasi  $Pr$  suyuqliklarning fizik xossalarini xarakterlaydi:

$$Pr = \frac{c \cdot \mu}{\lambda} = \frac{c \cdot \nu \cdot \rho}{\lambda} \quad (9.8)$$

bu yerda:  $\beta$  - suyuqlikning hajmiy kengayish koeffitsienti,  $1/K$ ,

$$\beta = 1,82 \cdot 10^{-4} 1/K; \quad (9.9)$$

$\Delta t$  - devor va suyuqlik temperaturalari farqi,  $^{\circ}C$

$$\Delta t = 3 \div 5^{\circ}C$$

### Tajriba qurilmasining tuzilishi

Bir yo'lli issiqlik almashinish qurilmasi (1.1- rasm) tsilindirsimon qobiq (1) ichiga joylashgan trubalardan (2) iborat. Trubalarning uchi truba to'riga (3) mahkamlangan. Qurilma yuqorisi va pastidan qopqoqlar (4) bilan yopilgan.


Trubalar ichidan oqayotgan sovuq suv bak (5) da qaynash temperaturasigacha qizdirilgan va shtuser (6) orqali qurilma trubalari orasidagi bo`shliqqa beriladigan issiq suv bilan qizdiriladi.

Vodoprovoddan kelayotgan sovuq suv qurilmaning pastki qismida shtuser (7) bilan berilib trubalar orqali yuqoriga harakatlanadi. Sovuq suvning temperaturasi termometr (8) yordamida o`lchanadi. Qurilmadan jo`mrak (12) orqali chiqarilayotgan issiq suvning temperaturasi termometr (10) yordamida o`lchanadi. Qurilmadan o`tayotgan sovuq va issiq suv sarfi (5) va (18) baklardagi o`lchov shkalalari yordamida aniqlanadi. Bu isitkichlarda suyuqlikning sarfi kam bo`lganda ularning trubalardagi tezligi kichik bo`lib, issiqlik o`tkazish koeffitsienti ham kichik qiymatga ega bo`ladi. Issiqlik tashuvchilarning tezligini oshirish uchun ko`p yo`lli isitkichlar ishlatiladi.

Ko`p yo`lli isitkichlarda trubalarni seksiyalarga bo`lish uchun isitkichning qopqog`i bilan truba to`rining orasiga ko`ndalang to`siqlar o`rnatiladi. Natijada yo`llar soniga proporsional ravishda oqim tezligi oshadi. Bu esa issiqlik berish va issiqlik o`tkazish koeffitsientlarining oshishiga olib keladi.

Ikki yo`lli isitkichda (1.2-rasm) silindrsimon qobiq (1) ning truba to`rlari (3) orasiga to`rt dona truba (2) joylashtirilgan. Qobiq bilan truba to`ri orasiga to`siq (17) o`rnatish natijasida qurilma ikkita seksiyaga bo`lingan.

Vodoprovoddan kelayotgan sovuq suv qurilmaning birinchi seksiyasiga shtuser orqali kirib birinchi yo`lning trubalari orqali pastga tushib, ikkinchi seksiyaning trubalari orqali yana yuqoriga ko`tariladi va shtuser (16) orqali o`lchash idishi (18) ga tushadi.



**9.1 - rasm. Bir yo`lli issiqlik almashinish qurilmasi.**

**9.2 - rasm. Ikki yo`lli issiqlik almashinish qurilmasi.**

**1 - isitgich qobig`i; 2 - ichki trubalar; 3 - truba to`ri;**

**4 - qopqoq; 5, 18 - o`lchov shkalali baklar; 6, 7, 16 - shtuserlar;**

**8, 9, 10 - termometrlar; 11, 12, 13, 14 - jo`mraklar;**

**16 - elektr isitgich, 17 - to`siq.**

Qaynagan suv bakdan trubalar orasidagi bo`shliqqa shtuser (6) orqali berilib jo`mrak (12) orqali qurilmadan chiqariladi.

Issiq va sovuq suvning temperaturalarini termometrlar (8,9 va 10) yordamida o`lchanadi.

### ***Ishni bajarish tartibi:***

Bir yo`lli va ikki yo`lli isitkichlarda suvning turli sarflarida uchtadan sinov o`tkaziladi.

Sinovni boshlashdan oldin qurilma ishga tayyorlanadi: Bakdagi suv isitkich yordamida qaynash temperaturasigacha qizdiriladi. Jo`mraklar (13 va 14) ochilib sovuq suvning sarfi o`rnatiladi.

So`ngra (11) jo`mrak ochilib qaynagan suv qurilmaga beriladi. Sovigan suv qurilmadan oqib chiqishi uchun jo`mrak (12) ochiladi. Sovuq suvning temperaturasi asta-sekin ko`tarila boshlaydi. Ma`lum vaqt o`tgach uning temperaturasi o`zgarmay qoladi. Bu holat isitkichda turg`un rejim boshlanishini tavsiflaydi.

So`ngra suv sarfi o`zgartirilib yana yuqoridagi tartibda ikkita sinov o`tkaziladi.

Shu tartibdagi sinov ikki yo`lli isitkichda ham o`tkaziladi.

Sinov natijalari 9.1 - jadvalda qayd qilinadi.

9.1.-jadval

Sinov tartib	Sinov boshlangandan keyingi vaqt $\tau$ , s.	Sovuq suv			Issiq suv		
		Suv ning sarfi $V_2$ $m^3 / s$	Boshlang`ich temperatura $t_2^\delta$ $^0S$	Oxir gi temper atura $t_2^0$ $^0S$	Suv ning sarfi $t_2^0$ $^0S$	Bosh lang`ich tempera tura $m^3 / c$	Oxir gi tempera tura $t_1^\delta$ $^0S$
<b>Bir yo`lli isitgich</b>							
1							

2							
<b>Ikki yo`lli isitgich</b>							
1							
2							

### **Sinov natijalarini hisoblash.**

1. Issiqlik almashinish qurilmasidagi suvning oqimi uchun Reynolds kriteriyasi aniqlandi:

$$\text{Re} = \frac{\mathcal{G} \cdot d_{ekv}}{\nu} = \frac{\mathcal{G} \cdot d_{ekv} \cdot \rho}{\mu} \quad (9.10)$$

$\mathcal{G}$  - suvning isitkichdagi harakatlanish tezligi, m/s;

$d_{ekv}$  - suv oqayotgan trubaning ekvivalent diametri, m;

$\mu$  - suvning dinamik qovushqoqlik koeffitsienti, Pa s;

$\rho$  - suvning zichligi kg/m<sup>3</sup>

Suvning tezligi sarf tenglamasidan aniqlanadi

$$\mathcal{G} = V / S \quad (9.11)$$

V - suvning hajmiy sarfi, m<sup>3</sup>/s;

$$V = V_{um} / \tau \quad (9.12)$$

$V_{um}$  -  $\tau$  vaqt davomida qurilmadan oqib o'tgan suv hajmi, m<sup>3</sup>.

Suv oqimining ko`ndalang kesim yuzasi;

issiq muhit uchun

$$S = \pi D^2 / 4 - (\pi d^2 / 4) \cdot n' \quad (9.13)$$

sovuq muhit uchun

$$S = (\pi \cdot d_u^2 / 4) \cdot n' \quad (9.14)$$

$D$  -qurilmaning diametri, m;

$d_t$  - trubaning tashqi diametri, m;

$d_i$  - trubaning ichki diametri, m;

$n'$  - bir yo`ldagi trubalar soni

2. Reynolds kriteriyasining qiymatiga mos holda suvning qurilmadagi oqim rejimi aniqlanadi.

3.Oqim rejimiga mos holda Nuselt kriteriyasini hisoblash uchun (9.5), (9.6) yoki (9.7) formulalardan biri tanlanadi va u hisoblanadi.

4. Issiqlik berish koeffitsientlari aniqlanadi:

$$Nu = \alpha \cdot d_{ekv} / \lambda \quad (9.15)$$

5. (1.3) formula bo`yicha issiqlik o`tkazish koeffitsienti aniqlanadi.

6.Issiqlik o`tkazish koeffitsientining hisoblab topilgan qiymatlari bir-biri bilan solishtirilib, tegishli xulosa qilinadi.

**Takrorlash uchun savollar.**

Issiqlik almashinish qurilmalarining klassifikatsiyasini tushuntirib bering.

Issiqlik berish koeffitsientining fizik ma`nosi nima va uning qiymati nimalarga bog`liq?

Issiqlik o`tkazish koeffitsientining fizik ma`nosi nima?

Isitkichni ko`p yo`lli qilib yasashdan maqsad nima?

Issiqlik o`tkazish koeffitsientini hisoblashda qanday o`xshashlik kriteriyalaridan foydalaniladi?

Issiqlik almashinish jarayonlarining harakatlantiruvchi kuchi nima va u qanday topiladi?

Issiqlik uzatishning asosiy tenglamasini tushuntirib bering.

## **10- T a j r i b a i s h i**

### **ISSIQLIK ALMASHINISH JARYONLARINI “TRUBA ICHIDA TRUBA” TIPIDAGI ISITGICHDA TADQIQ QILISH**

**Tajriba ishining maqsadi:** Issiqlik almashinish qurilmasida issiqlik o`tkazish koeffitsientini aniqlash. Issiqlik o`tkazish koeffitsientiga oqim rejimi ta`sirini aniqlash. Issiqlik almashinish qurilmasining uzunligi bo`yicha temperatura taqsimoti qonuniyatini tajriba yo`li bilan aniqlash.

### **Umumiy tushuncha**

Issiqlik almashinish jarayonlari oziq-ovqat sanoatida asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu tarmoqlarning asosan hamma korxonalarida issiqlik almashinish apparatlari qo`llaniladi. Bu qurilmalar tuzilishi, ishlash printsipli va ularda jarayonning tashkil qilinishiga qarab bir nechta sinflarga bo`linadi. Ulardan biri “truba ichida truba” tipidagi issiqlik almashinish qurilmasidir.

Bu qurilma katta diametrli tashqi truba va konsentrik holda joylashgan ichki trubadan iborat. Bir-biri bilan issiqlik almashinayotgan muhitlarning birtasi ichki trubadan harakat qilsa, trubalararo bo`shliqdan esa ikkinchi muhit harakat qiladi. Issiqlik ichki trubaning devori orqali bir muhitdan ikkinchisiga o`tkaziladi. Ichki trubaning va trubalararo bo`shliqning ko`ndalang kesimlari kichik bo`lganligi sababli kichik sarflarda ham issiqlik tashuvchi agentlardan katta tezliklar bilan o`tkazish mumkin. Shuning uchun bunday isitkichlarda yuqori ko`rsatkichli issiqlik o`tkazish koefitsientiga erishish imkoniyati bo`ladi.

Qurilmaning massa birligiga to`g`ri keladigan issiqlik miqdori qobiq trubali, zmeyevikli va g`ilofli isitkichlarga nisbatan yuqori bo`ladi. Bundan tashqari issiqlik tashuvchi agentlarning tezligi katta bo`lgani uchun trubalarning yuzasida har xil iflosliklar hosil bo`lmaydi.


Bu qurilmaning konstruktiv tuzilishining soddaligi va tayyorlashning osonligi, sababli ishlab chiqarish hajmi kichik bo`lgan korxonalar uchun juda qulay hisoblanadi.

### **Tajriba qurilmasining tuzilishi**

Issiqlik almashinishi jarayonini tadqiq qilish uchun tayyorlangan tajriba qurilmasi quyidagi qismlardan tuzilgan. (9.1 - rasm):

Tajriba qurilmasi ketma–ket ulangan to`rtta bir xil o`lchamdagi “truba ichida truba” tipidagi issiqlik almashinish elementlaridan hamda issiq va sovuq sig`imlaridan iborat bo`lib, quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1,2-mos holda sovuq va issiq suv sig`imlari; 3-elektrik isitgich; 4, 5, 8, 9, 12, 13, 16, 17, 20, 21 - suv temperaturasini o`lchash uchun termometrlar; 6, 10, 14, 18 - issiqlik almashinish elementlarining tashqi trubalari; 22, 23 - elementlarga issiq va sovuq suv uzatiladigan 24, 25, 26, 27, 28, 29 - issiqlik tashuvchilardan proba olish uchun ventillar.



**10.1-rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi**

*1,2-mos holda sovuq va issiq suv sig`imlari; 3-elektr isitgich;  
4,5,8,9,12,13,16,17,20,21-suv temperaturasini o`lchash uchun termometrlar;  
6,10, 14,18-issiqlik almashinish elementlarining ichki trubalari; 7, 11, 15, 19-  
issiqlik almashinish elementlarining tashqi trubalari; 22,23-elementlarga issiq  
va sovuq suv uzatiladigan ventillar; 24, 25, 26, 27,28,29-issiqlik  
tashuvchilardan proba olish uchun ventillar.*

### *Ishni bajarish tartibi:*

“Truba ichida truba” tipidagi issiqlik almashinish qurilmasida jarayonni tadqiq qilish quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Sovuq va issiq suv sig`imlari suv bilan to`ldiriladi.
2. Elektrik isitgich tok manbaiga ulanib, sig`imdagi suv 100<sup>0</sup> gacha isitiladi.
3. 22 va 23 ventillar ma`lum miqdorda ochilib oqimning laminar rejimini ( $Re < 2320$ ) ta`minlaydigan suv sarfi o`rnatiladi. Bunda suv sarfi quyidagicha teng bo`lishi shart:

$$G_2 = \mathcal{G}_2 \cdot S_2 \cdot \rho_2 \quad (10.1)$$

$$\mathcal{G}_2 \leq (2320 \cdot \mu_2) / d_{2e} \cdot \rho_2 \quad (10.2)$$

$$d_e = D_{ich} - d_m \quad (10.3)$$

bu yerda:  $\mathcal{G}_2$  - sovuq suvning trubalar orasidagi halqasimon bo`shliqdagi oqim tezligi, m/s;

$$S_2 = \frac{\pi}{4} (D_{ich}^2 - d_m^2) - \text{sovuq suvning halqasimon bo`shliqdagi}$$

oqimining ko`ndalang kesim yuzasi, m<sup>2</sup>;

$\rho_2, \mu_2$  - sovuq suvning o`rtacha temperaturasigacha mos keluvchi zichligi va dinamik qovushqoqlik koeffitsienti

Sovuq suv sarfi sekundomer va menzurka yordamida aniqlanadi:

$$G_2 = V_2 \cdot \rho_2 \quad (10.4)$$

$$V_2 = V' / \tau \quad (10.5)$$

bu yerda:  $V_2$  - sovuq suvning hajmiy sarfi;  $m^3/s$ ;

$V' - \tau$  vaqt davomida menzurkaga yig`ilgan suv hajmi,  $m^3$ .

Yuqoridagi tartibda issiq suvning ham sarfi o`rnatiladi.

4. Ma`lum vaqt oraliqlarida sovuq va issiq suv temperaturalarini o`lchab boriladi. Tajriba sovuq va issiq suvning isitkichdan chiqishidagi temperatura turlari o`zgarishsiz qolgungacha davom ettiriladi. O`lchash natijalari 10.1-jadvalga yozib boriladi.

10.1.- jadval.

№	$G_2$ kg/s	$V_2$ $m^3/s$	Re	$\tau_i$ s	Termometrlar ko`rsatkichi <sup>0</sup> S										$G_1$ kg/s	K, $\frac{VT}{m^2 \cdot K}$	$K_{kr}$ , $\frac{VT}{m^2 \cdot K}$
					4	5	8	9	12	13	16	17	20	21			

### 5. Tajriba natijalari asosida quyidagi hisob - kitoblar bajariladi:

A) Issiqlik o`tkazishning asosiy tenglamasidan issiqlik o`tkazish koeffitsienti aniqlanadi:

$$K = Q_1 / (F \cdot \Delta t_{o'r}), \quad \text{Vt}/(m^2 \text{ K}) \quad (10.6)$$

bu yerda: F- issiqlik almashinish yuzasi,  $m^2$

$$F = \pi \cdot d_{o'r} \cdot l$$

(10.7)

$D_{o'r}$  - ichki trubaning o`rtacha diametri, m;

$$d_{o'r} = (d_i + d_m / 2)$$

$d_i, d_m$  - ichki trubaning ichki va tashki diametrlari, m;

$l$  - ichki trubaning issiqlik almashinish jarayonida qatnashayotgan uzunligi, m.

$\Delta t_{o'r}$  - issiqlik almashinish jarayonining harakatlantiruvchi kuchi, °S.

$$\Delta t_{o'r} = \frac{\Delta t_{\max} - \Delta t_{\min}}{2,31 \cdot \lg \frac{\Delta t_{\max}}{\Delta t_{\min}}} \quad (10.8)$$

Agar issiq va sovuq suv bir tomonga harakatlansa:

$$\Delta t_{\max} = t_{1b} - t_{2b}$$

$$\Delta t_{\min} = t_{1o} - t_{2o}$$

Agar issiq va sovuq suv bir - biriga qarama - qarshi harakatlansa:

$$\Delta t_{\max} = t_{1o} - t_{2b} \quad \Delta t_{\min} = t_{1b} - t_{2o}$$

Agar  $\Delta t_{\max} / \Delta t_{\min} < 2$  bo`lsa,  $\Delta t_{o'r} = \frac{\Delta t_{\max} + \Delta t_{\min}}{2}$  (10.9)

$Q_1$  - jarayonda issiq suvdan berilgan issiqlik miqdori, Vt:

$$Q_1 = 1,05 \cdot Q_2 = 1,05 \cdot G_2 \cdot c_2 (t_{2o} - t_{2b}) \quad (10.10)$$

$c_2$  - sovuq suvning o`rtacha temperaturasiga mos keluvchi solishtirma issiqlik sig`imi, J/(kg K).

B) Issiqlik o`tkazish koeffitsientining kriterial qiymati quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{kr} = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_2}} \quad (10.11)$$

bu yerda  $\alpha_1, \alpha_2$  - mos holda, issiq suvdan ichki trubaning ichki sirtiga va tashqi sirtidan sovuq suvga issiqlik berish koeffitsientlari, Vt/(m<sup>2</sup>S)

$\delta, \lambda$  - ichki truba devori qalinligi (m) va issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt/(m K)

Issiqlik berish koeffitsienti quyidagi kriterial tenglamadan hisoblanadi:

$$\alpha_1 = \frac{Nu_1 \cdot \lambda_1}{d_{1e}} \quad (9.12) \quad \alpha_2 = \frac{Nu_2 \cdot \lambda_2}{d_{2e}} \quad (10.13)$$

bu yerda:  $Nu_1, Nu_2$  - issiq va sovuq suv oqimlari uchun Nuselt kriteriyasi bo`lib, uni hisoblash tenglamasining shakli Reynolds kriteriyasining qiymatidan bog`liq bo`ladi. Reynolds kriteriyasi quyidagi tenglamadan hisoblanadi:

$$Re_1 = \frac{\rho_1 \cdot g_1 \cdot d_{1e}}{\mu_1} \quad (9.14) \quad Re_2 = \frac{\rho_2 \cdot g_2 \cdot d_{2e}}{\mu_2} \quad (10.15)$$

bu yerda:  $\rho_1, \mu_1, \lambda_1, \rho_2, \mu_2, \lambda_2$  - mos holda, issiq va sovuq suvning o`rtacha temperaturasiga mos keluvchi zichligi, dinamik qovushqoqlik va issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti.

$d_{1e} = d_i$  - issiq suv oqimining ekvivalent diametri, m.

$G_1 = G_1 / (\rho_1 \cdot S_1)$  - issiq suvning ichki trubdagi oqim tezligi, m/s.

$S_1 = \pi \cdot d_i^2 / 4$  - issiq suv oqimining ko'ndalang kesimi yuzasi, m<sup>2</sup>

Sovuq va issiq suvning oqim rejimiga mos holda Nuselt kriteriyasi quyidagi tenglamalardan biri bilan hisoblanadi:

Agar  $Re < 2320$  bo'lsa;

$$Nu = 0,74 \cdot (Re \cdot P_{ch})^{0,2} \cdot (Gr \cdot P_{ch})^{0,1}$$

Agar  $2320 \leq Re < 10000$  bo'lsa  $Nu = 0,08 \cdot Re^{0,9} \cdot Pr^{0,43}$

Agar  $Re \geq 10000$  bo'lsa:

$$Nu = 0,023 \cdot Re^{0,8} \cdot Pr^{0,4}$$

bu yerda:  $Pr$  - Prandtl kriteriyasi

$$Pr = c \cdot \mu / \lambda \quad (9.16)$$

$c, \mu, \lambda$  - issiqlik berayotgan va qabul qilayotgan muhitlarning issiqlik sig'imi, dinamik qovushqoqlik va issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti.

$Gr$  - Grasgof kriteriyasi

$$Gr = (g \cdot d_{ek}^3 / \nu^2) \beta \cdot \Delta t \quad (10.17)$$

bu yerda:  $g$  - erkin tushish tezlanishi, m/s<sup>2</sup>;

$\nu$  - muhitning kinematik qovushqoqligi,

$$\nu = \mu / \rho \quad (10.18)$$


$\beta$  - muhitning issiqlikdan kengayish koeffitsienti,  $K^{-1}$

$\Delta t$  - muhitning o`rtacha temperaturasi va devor temperaturasi orasidagi farq,  $^{\circ}S$


$$\Delta t = 2 \div 5^{\circ}C$$

Hisoblash natijalari 10.1 - jadvalga yoziladi.

V) Ikki uslub bilan hisoblab topilgan issiqlik o`tkazish koeffitsientining qiymatlari solishtirilib, o`lchash va hisob - kitoblarning qanday aniqlikda bajarilganligi haqida xulosa qilinadi.



a)



b)

**10.2. – rasm. Issiqlik tashuvchilar temperaturasining qurilma uzunligi bo`yicha o`zgarishi.**

a) issiqlik tashuvchilarning bir tomonlama harakatida;

b) issiqlik tashuvchilarning qarama-qarshi yo`nalishdagi harakatida.

6. Tajriba natijalari asosida issiq va sovuq suv temperaturasining qurilma uzunligi bo`yicha o`zgarish grafigi quriladi.

7. Sovuq suv sarfi dastlab o`tish va so`ngra turbulent rejimni ta`minlaydigan darajada oshirilib tajriba takrorlanadi.

8. Sovuq suvning harakat yo`nalishi o`zgartirilib tajriba qayta bajariladi. Bu 9, 11 ventillarni yopish va 10, 12 kranlarni ochish bilan amalga oshiriladi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. "Truba ichida truba" tipidagi issiqlik almashinish qurilmasining boshqa isitgichlarga nisbatan afzallik va kamchiliklarini ayting.
2. Issiqlik tashuvchining oqim rejimi issiqlik o`tkazish koeffitsientining qiymatiga qanday ta`sir qiladi?
3. Isitkich uzunligi bo`yicha temperatura tarqalishini aniqlashdan maqsad nima?
4. Issiqlik o`tkazish koeffitsientini hisoblashda qanday o`xshashlik kriteriyalaridan foydalaniladi?
5. Issiqlik almashinish jarayonlarining harakatlantiruvchi kuchi nima va u qanday topiladi?
6. Issiqlik uzatishning asosiy tenglamasini tushuntirib bering.

### **11 - tajribaishi.**

#### **NAM HAVONING ASOSIYPARAMETRLARINI O`LCHASH VA HISOBLASH**

**Ishning maqsadi:** Nam havoning asosiy parametrlarini o`lchash uslubi bilan tanishish. Nam havoning asosiy parametrlarini analitik hisoblash. Qizdirish jarayonida nam havo parametrlarini aniqlash va ularning o`zgarishini tahlil qilish.

Analitik hisob natijalarini  $I - x$  diagramma ko`rsatkichlari bilan solishtirish.

#### **Umumiy tushuncha**

Quritish jarayonida nam havo namlik va issiqlik tashuvchi agent vazifasini bajaradi. Nam havo quruq havo va suv bug`larining aralashmasidan iborat.

Nam havoning asosiy parametrlariga absolyut namlik, nisbiy namlik, nam saqlash va entalpiya kiradi.

Nam havoning hajm birligiga to`g`ri keluvchi suv bug`lari miqdoriga absolyut namlik deyiladi va  $S$  harfi bilan belgilanib,  $\text{kg/m}^3$  birligida o`lchanadi. Agar nam havo sovutib borilsa, ma`lum temperaturada uning tarkibidagi suv bug`lari shudringga aylanadi. Shu holatga to`g`ri keluvchi temperaturaga shudring nuqtasi deyiladi. Bunday havo tarkibida maksimal miqdorda suv bug`i bo`ladi. Havoning bu holati to`yinish holati deyilib, uning absolyut namligi  $ST$  bilan belgilanadi. Havo absolyut namligining to`yinishi paytidagi absolyut namlikka nisbati nisbiy namlik deyiladi.

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho_m} = \frac{P_{c\bar{o}}}{P_m}$$

bu yerda:  $P_{c\bar{o}}$  -tekshirilayotgan nam havo tarkibidagi suv bug`larining portsial bosimi, Pa.

$P_m$  - berilgan temperatura va umumiy barometrik bosimda to`yingan suv bug`larining portsial bosimi, Pa.

Havo tarkibida namlik qancha kam bo`lsa, uning quritish jarayonidagi samaradorligi shuncha yuqori bo`ladi. Namligi yuqori bo`lgan havodan quritishda foydalanib bo`lmaydi.

Nisbiy namlikni aniqlash uchun psixrometr deb ataluvchi asbobdan foydalaniladi. Psixrometr 2 - ta termometrdan iborat bo`lib, termometrlarning birining sharchasi ho`llab turiladi. Bu termometr ho`l termometr deyiladi, ikkinchisi esa quruq termometr deyiladi.

Nisbiy namlik qancha kichik bo`lsa, ho`l termometr sharchasi sirtidan suv bug`larining bug`lanishi shuncha tez boradi. Natijada sharcha tezlik bilan soviydi. Shuning uchun ham havo nisbiy namligi kamayishi bilan ho`l va quruq termometrlar temperaturalarini orasidagi farq oshadi. Shu farqqa asoslanib psixorometrik jadval yoki diagrammalar yordamida havoning nisbiy namligini aniqlash mumkin.

1 kg absolyut quruq havoga to`g`ri keluvchi suv bug`larining miqdori havoning nam saqlashi deyiladi va  $x$  (kg/kg) yoki  $d$  (g/kg) bilan belgilanadi.

$$x = \frac{m_{c.\bar{o}}}{m_{k.x}} = \frac{\rho}{\rho_{k.x}}$$

bu yerda:  $m_{c.\bar{o}}$  nam havoning berilgan hajmidagi suv bug`larining vazni;

$m_{k.x}$  - berilgan hajmdagi nam havo tarkibidagi absolyut quruq havo vazni;

$\rho_{k.x}$  - absolyut quruq havoning zichligi.

Nam havoning entalpiyasi quruq havo entalpiyasi va shu nam havo tarkibidagi suv bug`larining entalpiyalari yig`indisiga teng:

$$I = c_{kx} \cdot t + x \cdot i_{y\bar{o}}$$

bu yerda:  $c_{kx}$  - quruq havo solishtirma issiqlik sig`imi, (J/kg)

$t$  - havo temperaturasi, OS;

$i_{y\bar{o}}$  - o`ta qizdirilgan bug`ning entalpiyasi, (J/kg)

Nam havoning asosiy parametrlarini yetarli aniqlikda L.K. Ramzining  $I - x$  diagrammasi yordamida hisoblab topish mumkin. Diagrammani tuzishda bosimning qiymati o`zgarmas deb qabul qilingan, ya`ni  $R = 745$  mm. sim. ust. ga teng. Diagramma asosiy o`q- lari orasidagi burchak 1350ga teng. Asosiy o`qlarga entalpiya  $I$  (J/kg) va nam saqlash  $x$  (kg/kg) joylashtirilgan.

Diagrammadan foydalanish qulay bo`lishi uchun nam saqlash qiymatlari joylashgan o`q gorizontal holatga keltirilgan.  $I = const$  chiziqlari ordinata o`qiga nisbatan 1350 burchak ostida ma`lum masshtab bo`yicha joylashtirilgan.  $x = const$  chiziqlari yordamchi absissa o`qiga perpendikulyar qilib o`tkazilgan.


$I - x$  diagrammaga asosiy chiziqlardan tashqari o`zgarmas temperatura chiziqlari yoki izotermalar ( $t = const$ ), o`zgarmas nisbiy namlik chiziqlari ( $\varphi = const$ ), suv bug`ining portsiyal bosimi chizig`i ham qurilgan.  $\varphi = 100\%$  chizig`i diagrammani ikki qismga bo`ladi. Shu chiziqdan yuqorida joylashgan soha to`yinmagan nam havoga to`g`ri keladi.

Temperatura  $99,4^{\circ} S$  ga yetganda to`yingan suv bug`ining bosimi o`zgarmas qiymatga  $R = 745$  mm. sim. ust. ga teng bo`lib qoladi. Shuning uchun ham  $t = 99,4^{\circ} C$  da  $\varphi = const$  chizigi yuqoriga vertikal bo`ylab yo`naladi.

Nam havoning istalgan ikkita parametri bo`yicha  $I - x$  diagrammadan uning qolgan parametrlarini topish mumkin.

### **Tajriba qurilmasining tuzilishi**

Tajriba qurilmasi 1 - kaloriferdan, 2 va 3 ikkita psixrometrdan va havoning tezligini o`lchash uchun 4 - anemometrdan iborat.



### Tajriba qurilmasining sxemasi

#### *Ishni bajarish tartibi:*

Xonada (psixrometr bo`yicha) havoning parametrlarini aniqlash uchun psixrometr bo`yicha «quruq» termometrning temperaturasi  $t_k$  va «ho`l» termometrning temperaturasi  $t_x$  aniqlanadi.

Qizdirishda havo parametrlarining o`zgarishini o`rganish uchun ular kalorifergacha va kaloriferdan keyin aniqlanadi.

Sinov quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

1. Psixrometr 2 yordamida kalorifergacha quruq termometrning temperaturasi  $t_k$  va ho`l termometrning temperaturasi  $t_x$  aniqlanadi.

2. Kalorifer 1 ishga tushiriladi va 100 sekund davomida ishlab turadi.

3. Anemometr 4 bilan kalloriferdan chiqayotgan havoning tezligi o`lchanadi.

4. Kaloriferdan keyingi psixrometr 3 yordamida «quruq» va ho`l termometrlarning ko`rsatkichi aniqlanadi. O`lchash va hisoblash natijalari jadvalda yoziladi.

11.1- jadval

Havoning parametrlari	Kalorifergacha	kaloriferdan so`ng
Quruq termometrning ko`rsatkichi, $t_k$ °C		
Ho`l termometrning ko`rsatkichi, $t_x$ , °C		
Kaloriferdan chiqayotgan havoning tezligi, $g$ , m/c		
Ho`l termometrning ko`rsatkichiga tuzatma, $\Delta$ ,%		
Ho`l termometrning haqiqiy temperaturasi, $t_x$ , °		
Quritish potentsiali, <b>E</b>		
Solishtirma nam saqlash $d$ , $z/\kappa z$		
Solishtirma ental`piya <b>I</b> , kJ/kg		
Nisbiy namlik, $\varphi$ , %		
Bug`ning portsial bosimi, $R_b$ , mPa		
To`yingan bug`ning bosimi, $R_t$ , mPa		

## Tajriba natijalarini tahlil qilish

I. Xona havosining parametrlarini aniqlash.

1. Ilovadan foydalanib, havo tezligi nolga teng boʻlgan holat uchun hoʻl termometr koʻrsatkichiga tuzatma topiladi.

2. Quyidagi formula bilan hoʻl termometr koʻrsatkichining haqiqiy qiymati topiladi:

$$t'_x = t_x - \frac{\Delta(t_k - t_x)}{100}$$

bu yerda:  $t_x$  - psixrometrdagi hoʻllangan termometrning koʻrsatkichi:

$\Delta$  - havoning tezligi va hoʻllangan termometrning koʻrsatkichi boʻyicha ilovadan topilgan tuzatma, %

3. Nam havoning asosiy parametrlari hisoblanadi:

Havoning nisbiy namligi

$$\varphi = \frac{P_x}{P_m} - \frac{A \cdot B}{P_m} (t_k - t_x)$$

bu yerda:

$R_x$  - nam havo tarkibidagi suv bugʻlarining porsial bosimi (Pa), hoʻl termometrning haqiqiy temperaturasida, ilovadagi 1 - jadval boʻyicha aniqlanadi;

$R_t$  - quruq termometr temperaturasiga mos keluvchi toʻyingan bugʻning bosimi, (Pa), 1 - jadvaldan aniqlanadi;

V - barometrik bosim, Pa;

A - havoning tezligiga bog`liq bo`lgan psixrometrik koeffitsient,

$$A = 6,6 \times 10^{-4}$$

Solishtirma nam saqlash:

$$d = 622 \frac{\varphi \cdot P_m}{B - \varphi \cdot P_m}$$

Solishtirma entalpiya:

$$I = c_{\kappa.x.} \cdot t_{\kappa} + \frac{d}{1000} (r + c_{\sigma} \cdot t_x)$$

bu yerda:

$c_{\kappa.x.}$  - quruq havoning solishtirma issiqlik sig`imi

$$c_{\kappa/x} = 1004,64 J / (kg \cdot k)$$

$c_{\sigma}$  - bug`ning solishtirma issiqlik sig`imi

$$c_{\sigma} = 1841,84 J / (kg \cdot k)$$

$r$  - 0 0Sda bug` hosil bo`lish solishtirma issiqligi,

$$r = 2499,042 kJ / kg$$

Quritish potentsiali:

$$E = t_{\kappa} - t_x$$

Bug`ning porsial bosimi:

$$P_{\sigma} = \varphi \cdot P_m$$

II. Isitganda havo parametrlarini o`zgarishi.

1. Kaloriferdan keyin o`rnatilgan ho`l termometrning ko`rsatkichi bo`yicha havoning o`lchangan tezligida ho`l termometr ko`rsatkichiga tuzatma topiladi;

2. Ho`l termometrning haqiqiy temperaturasi  $t_x$  topiladi.

3. Kaloriferdan keyingi nam havoning asosiy parametrlari hisoblanadi:

nisbiy namlik,  $\varphi$ , %

solishtirma nam saqlash,  $d$ ,

solishtirma entalpiya,  $I$ ,

quritish potentsiali,  $E$ ,

bug`ning portsiyal bosimi,  $R_b$

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Nam havoning holati qanday asosiy parametrlar bilan tavsiflanadi?

2. Havoning absolyut namligi deb nimaga aytiladi?

3. Havoning nisbiy namligi nimani tavsiflaydi va u havoni qizdirganda qanday o`zgaradi?

4. Havoning solishtirma entalpiyasi deb nimaga aytiladi? Havoni qizdirganda u qanday o`zgaradi?

5. Havoning solishtirma nam saqlashi deb nimaga aytiladi? Havoni qizdirganda u qanday o`zgaradi?

6. Ho`l termometr temperaturasining ma`nosi nima?
7. Quritish potentsiali nimani tavsiflaydi va u qanday aniqlanadi?
8. Havoning sirkulyatsiyasi majburiy bo`ladigan psixrometrning tuzilishi. Tuzatmaning kattaligi nimaga bog`liq va u qanday aniqlanadi?
9. Psixrometrning ko`rsatkichi bo`yicha havoning nisbiy namligi qanday aniqlanadi?
10. I - x diagrammani tushuntirib bering.

## **12 - Tajriba ishi**

### **MAHSULOTLARNI KONVEKTIV QURITISH JARAYONINI TEKSHIRISH**

**Ishning maqsadi:** Donador materiallarni konvektiv quritish jarayonini o`rganish. Sinov natijalari bo`yicha quritish egri chizig`i va quritish tezligi egri chizig`ini qurish. Qurilgan egri chiziqlar asosida quritish jarayonining davrlarini tahlil qilish.

#### **Umumiy tushuncha**

Qattiq va pastasimon materiallarni qurituvchi agent yordamida suvsizlantirish jarayoni quritish deb ataladi. Bu jarayonda namlik qattiq faza tarkibidan gaz fazasiga o`tadi.

Quritilgan materiallarni transport vositasida uzatish arzonlashadi, ularning tegishli xossalari yaxshilanadi, uskuna va trubalarning korroziyaga uchrashi kamayadi, materiallarning saqlanish muddati uzayadi.

Materiallarni uch xil usulda suvsizlantirish mumkin: mexanik, fizik - kimyoviy va issiqlik yordamida.

Mexanik usul tarkibida ko`p miqdorda suv tutgan materiallarni suvsizlantirish uchun ishlatiladi. Bu usulda namlik siqish yoki sentrifugalash yo`li bilan ajratib olinadi.

Issiqlik ta`sirida suvsizlantirish ko`pchilik кимёвий mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarining yakunlovchi bosqichi bo`lib hisoblanadi.

Quritish ikki xil, ya`ni tabiiy va sun`iy usulda olib boriladi: - materiallarni ochiq havoda suvsizlantirish tabiiy quritish deyiladi, bu jarayon uzoq vaqt davom etadi.

Sanoatda mahsulotlarni quritish sun`iy usulda olib boriladi, bu jarayon maxsus quritgich qurilmalarida amalga oshiriladi.

Issiqlik tashuvchi agentning quritilayotgan material bilan o`zaro ta`sirlashuv usuliga ko`ra quritish jarayoni quyidagi turlarga bo`linadi:

1) konvektiv quritish - nam material bilan qurituvchi agent to`g`ridan - to`g`ri o`zaro aralashadi;

2) kontaktli quritish - issiqlik tashuvchi agent va nam material o`rtasida ularni ajratib turuvchi devor bo`ladi;

3) radiatsiyali quritish - issiqlik infraqizil nurlar orqali uzatiladi;

4) dielektrik quritish - material yuqori chastotali tok maydonida qizdiriladi;

5) sublimatsiyali quritish - material muzlagan holda, chuqur vakuum sharoitida suvsizlantiriladi.

Quritkichlarni hisoblash va loyihalash uchun jarayon tezligi cheksiz qisqa vaqt davomida material namligini kamayishi orqali aniqlanadi:

$$\omega = \frac{dW}{d\tau} \quad (12.1)$$

Havo parlamentlari o'zgaras bo'lganda ( $t - \text{const}$ ,  $w - \text{const}$ ) material namligining vaqt davomida o'zgarish grafigi quritish egri chizig'i deb yuritiladi (12.2 - rasm).

Quritish jarayonining boshlanishida namlik ajralib chiqishi bilan birga material qiziydi. Bu davr qisqa vaqtni tashkil qiladi va quritish jarayoni egri chiziq bo'yicha o'zgaradi. Materialning qizishi tugagach quritish jarayoni to'g'ri chiziq bilan tasvirlanadi. Bu davrda quritish jarayoni o'zgaras tezlikka ega bo'ladi. Bu davr  $K$  nuqtada tamom bo'ladi, bu nuqta material tarkibida bog'langan namlik sohasining boshlanishiga to'g'ri keladi. III davrda quritish tezligi kamayib boradi.

Quritish egri chizig'ining istalgan nuqtasiga o'tkazilgan urinma og'ish burchagining tangensi quritish tezligi ( $dW/dr$ ) ni tashkil qiladi (12.3 - rasm). Gorizontol o'qqa material namligining qiymati (%), vertikal o'qqa esa quritish tezligi ( $dW/d\tau$ ) ning qiymati qo'yiladi.

I - davrda quritish tezligi gorizontol to'g'ri chiziq bo'ladi, chunki bu davrda quritish tezligi o'zgaras qiymatga ega. II davrda quritish tezligining chizig'i materialning turiga va namlikning material bilan birikish turiga ko'ra har xil ko'rinishga ega bo'ladi va bu davrda tezlik kamayib boradi. Quritish jarayoni muvozanat namlikka yetguncha davom etadi.

Birinchi davrda quritish jarayoni asosan tashqi diffuziya natijasida boradi.


Ikkinchi davrda bog'langan namlik ajrala boshlaydi va quritish tezligi asosan material ichidagi namlikning material bilan bog'lanish energiyasidan bog'liq bo'ladi.

### **Tajriba qurilmasining tuzilishi**

Quritish jarayoni o'rganiladigan tajriba qurilmasi 6.1 - rasmda tasvirlangan.

Qurilma ventilator 1, elektr isitkich 2, quritish kamerasi 3, psixorometrlar 4 dan iborat.

Xonadagi toza havo ventilator 1 orqali so`rilib elektr isitkich 2 ga beriladi. Isitkichda qizdirilgan havo quritish kamerasiga kiritiladi. Foydalanilgan havo ishchi kameradan xonaga chiqarib yuboriladi. Kameradagi havo parametrlarini nazorat qilish uchun kamerada psixrometrlar o`rnatilgan. Materialni quritishdan oldin va quritishdan keyin tortish uchun analik tarozidan foydalaniladi.



**12.1-rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi**

***Ishni bajarish tartibi:***

Quritish obykti sifatida non yoki namlangan dondan foydalanilsa bo`ladi.

Sinovni boshlashdan oldin qalinligi 7 - 10 mm bo`lgan non bo`laklari yoki namligi 25 - 30% bo`lgan dondan namunalar tayyorlanadi.

Ushbu namunalarning boshlang'ich namligini aniqlash uchun ulardan 4 - 5 g miqdorda maxsus idishlarga solib olinadi. Namunalar idishlar bilan birga tortilib 40 daqiqa davomida quritish shkafida ushlab turiladi. Shkafning temperaturasi termorostlagich yordamida 130<sup>0</sup>S da ushlanadi. So`ngra shkafdan olinib yana tortiladi.

Tortish natijalari 6.1 - jadvalga yoziladi.

Qurilma sinovga tayyorlanadi: dastlabki ventilator, keyin elektr isitgich ishga tushiriladi.

Tayyorlangan namuna tarozida tortilib nam material vazni aniqlanadi. So`ngra material maxsus idishga solinib, tuynukcha orqali quritish kamerasiga kiritiladi. Har 10 daqiqada mahsulot

12.1 - jadval

Idish vazni, gr	
Quritilmagan mahsulotning idish bilan birgalikdagi vazni $G_1'$ , gr	
Quritilgan mahsulotning idish bilan birgalikdagi vazni $G_2'$ , gr	
Quritilmagan mahsulotning vazni $G_1$ , gr	
Quritilgan mahsulotning vazni $G_2$ , gr	
Namunaning namligi, $W_0^c$ (quruq modda vazniga nisbatan % hisobida)	

tarozida tortiladi va uning vaznining kamayishi 6.2 - jadvalda qayd qilib boriladi. Materialning quritish kamerasiga joylanish vaqti, sinovni boshlanish vaqti ham xuddi shu jadvalda qayd qilinadi.

12.2-jadval

Quritish obykti		Sinovning boshlanishi	
Nam namunaning massasi, $G_1$		Sinovning tugashi	
Materialning boshlang`ich namligi, $W_s^0$		Quritish davomiyligi	
Quritilgan namunaning massasi, $G_k$		Quritish rejimi	

Sinov boshlangandan keyingi vaqt $\tau$ , min				
O`lchovlar orasidagi vaqt, $\Delta\tau$ min				
Namunaning vazni, $G_n$ , kg				
Namlikning vazni, $G_{kn}$ kg				
Namunaning namligi, $W_c^0$ , (quruq modda vazniga nisbatan % xis.)				

### Tajriba natijalarini hisoblash

Materialning boshlang`ich namligini hisoblash. Bu parametr har bir idishdagi mahsulot uchun 12.1- jadval natijalariga asosan quyidagi formuladan foydalanib topiladi:

$$W_c^0 = \frac{G_H}{G_2} \cdot 100\% \quad (12.2)$$

$$G_H = G_1 - G_2$$

Namunaning quruq vaznini topish. Bu parametr quyidagi formula bo`yicha topiladi:

$$G_k = \frac{G_1}{1 + \frac{W_{yp}^0}{100}}, \quad W_{c_{yp}}^o = \frac{W_{o1}^c + W_{o2}^c}{2} \quad (12,3)$$

Quritish jarayonida materialning namligini aniqlash;

Namlik har bir n- chi o`lchov uchun quyidagi formula bo`yicha topiladi:

$$W_n = \frac{G_{hn}}{G_k} \cdot 100\% \quad (12,4)$$

Buning uchun 6,2 jadval va hisob natijalaridan foydalanib har bir o`lchov uchun dastlab quyidagilar aniqlanadi:

$$\text{Namunaning quruq vazni} \quad G_K = G_O - G_H$$

$$\text{Namunaning namlik vazni} \quad G_{hn} = G_n - G_K$$

### ***Quritish egri chizig`ini qurish***

Material namligining vaqt bo`yicha o`zgarishini ifodalovchi quritish egri chizig`i 12.2- jadvaldan foydalanib millimetrli qog`ozda quriladi (12.2.a -rasm)

Absissa o`qida masshtab asosida vaqt qiymatlari qo`yib chiqiladi, ordinata o`qida esa materialning namligi (%) qo`yiladi.

Tajriba nuqtalarini silliq chiziq bilan tutashtirib chiqiladi. Quritish egri chizig`ida jarayonning doimiy va kamayuvchi tezlik bilan kechuvchi davrlarini ajratib turuvchi kritik nuqtasi topiladi:

### **Quritish tezligi egri chizig`ini qurish**

Bu egri chiziq quritish egri chizig`ini grafik differentsiallash uslubi bilan quriladi. Quritish egri chizig`ida bir nechta nuqta belgilanadi. Bu nuqtalarning har biri orqali egri chiziqqa urinma o`tkazib, har bir urinma og`ish burchagining tangensi aniqlanadi.

$$tg\alpha = a/b$$

bu yerda,  $a'$  - ordinata o`qidagi kesma;

$v$  - absissa o`qidagi kesma.

Topilgan urinma og`ish burchaklarining tangensi (% /soat) o`lchovida ifodalanib, material namligining vaqt birligida o`zgarishini bildiradi, ya`ni nuqtalardagi quritish tezligiga mos keladi.


Quritish tezligi qiymatlari 12.3- jadvalga yoziladi.

12.3 - jadvaldan foydalanib millimetrli qog`ozda quritish tezligi egri chizig`i chiziladi, ordinata o`qida quritish tezligi qiymatlari (% / soat), absissa o`qida- material namligi (%), (12.2.b- rasm)


Grafikda kritik namlikka to`g`ri keluvchi kritik nuqta belgilanadi.

12.3-jadval

Parametrlar	Nuqta raqamlari						
	1	2	3	4	5	6	7
Nuqtalardagi namlik $W_0, \%$							
Quritish tezligi $\frac{dW}{d\tau}$ , %/soat							



a)



b)

## 12.2-rasm. Quritish egri chizig`i (a) va quritish tezligi egri chizig`i (b)

### Takrorlash uchun savollar.

1. Konvektiv quritishni izohlab bering.
2. Quritish egri chizigi qanday quriladi?
3. Quritish tezligi egri chizig`i qanday quriladi?
4. Grafik differensiallash uslubining mohiyati nimadan iborat?
5. Quritish va quritish tezligi egri chiziqlarini tahlil qilib bering.

### Adabiyotlar:

1. Salimov Z., To`ychiyev I. – Ximiyaviy texnologiya protsesslari va apparatlari. Toshkent, O`qituvchi, 1987. – 408 b. [367 – 372]
2. Г.Д.Кавецкий. Процессы и аппараты пищевой технологии. М.: 1999. - 620 s. [444 – 462]

### 13- Tajriba ishi

#### MAHSULOTLARNI MAYDALASH JARAYONINING ASOSIY XARAKTERISTIKALARINI ANIQLASH

**Ishining maqsadi:** Bolg`ali maydalagichning ishlash printsiplari bilan tanishish. Maydalash jarayonida boshlang`ich va oxirgi mahsulotning donadorligi va maydalash darajasini aniqlash. Ezishda sarflanadigan energiya miqdorini aniqlash.

### Umumiy tushuncha

Qattiq materiallarni maydalash jarayoni moddalarning o`zaro ta`sir yuzasini ko`paytirish, kimyoviy, issiqlik almashinuv va modda almashinuv jarayonlarining tezlashuviga imkon beradi. O`zaro ta`sir yuzasining katta bo`lishi, fazalarning ichidagi modda tarkalishini va modda bir fazadan ikkinchi fazaga o`tishini tezlatadi.

Qattiq materiallarni maydalash ikki turga bo`linadi.

1. Yanchish (kichik-kichik bo`laklarga bo`lish)

## 2. Maydalash (yupqa va o'ta yupqa maydalash)

Materiallarni maydalash – ezish, yorish, va zarba berish kabi usullar yordamida amalga oshiriladi.

Sanoatda materiallarni fizik xossalarini va bo'laklarning o'lchamini hisobga olgan holda, maydalashning u yoki bu usuli qo'llaniladi.

Shunga muvofiq ezish, yorish va zarba berish usuli bilan qattiq va mo'rt materiallar, ezish va eyilish usuli bilan esa qattiq va qovushqoqlik materiallar maydalanadi.

Materiallarni yanchish, odatda quruq (suvsiz) usul bilan, yupqa maydalash esa ko'pincha hul (suv bilan) usulda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishda suv ishlatish yuli bilan qattiq materiallarni maydalash maqsadga muvofikdir, chunki maydalash jaerayonida ko'pincha chang hosil bo'ladi. Ho'l maydalashda buning yuli olinadi, atrof muhit ifloslanmaydi, mahsulotni olish ancha osonlashadi.

Maydalash jarayonining samaradorligini aniqlash uchun maydalanish darajasi tushunchasi ishlatiladi. Bu ko'rsatkich maydalanishgacha bo'lgan material bo'lagining o'rtacha xarakterli o'lchami (D) ni maydalangan material bo'lagining o'rtacha xarakterli o'lchami (d) ga nisbati bilan belgilanadi.

$$I = \frac{D}{d} \quad (13.1)$$

Maydalash jarayonida shar shakliga ega bo'lgan material bo'lagining xarakterli o'lchami sifatida diametr, kub shakliga ega bo'lgan material bo'lagi uchun esa qirrasining uzunligi olinadi.

Noto'g'ri geometrik shakliga ega bo'lgan bo'lakning o'rtacha qiymati quyidagi tenglik orqali topiladi:

$$d_x = \sqrt{\ell \cdot b \cdot h} \quad (13.2)$$

bu erda:  $\ell, b, h$  – material bo'lagining o'zaro perpendikulyar yo'nalgan uchta tomonning eng katta o'lchami.

Ushbu o'lchamlar ichida eng kattasi ( $\ell$ )- uzunlik, o'rtachasi ( $v$ ) kenglik, eng kichik o'lcham ( $h$ )- qalinlikdir.

Sanoatda yoki laboratoriya sharoitida maydalangan bo'laklarni fraktsiyalarga ajratish, saralovchi g'alvir yordamida amalga oshirilib, maydalangan bo'lakning o'rtacha xarakterli o'lchami aniqlanadi. Har bir fraktsiyadagi eng katta va eng kichik bo'lakning o'rtacha o'lchami quyidagicha aniqlanadi:

$$d_{yp} = \frac{d_{\max} + d_{\min}}{2} \quad (13.3)$$

Material zarrachalarning o'zaro tortishish kuchini engish uchun maydalash paytida tashqi kuchlar ta'sir qiladi. Qattiq materiallar yanchilganda, uning bo'laklari avval hajmiy deformatsiyaga uchraydi, so'ngra (kichik va katta) yoriqlar bo'ylab emirilib natijada bo'laklarning yangi yuzalari hosil bo'ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, qattiq materiallarni yanchish uchun bajarilgan ish bo'lakning hajmiy deformatsiyasi va yangi yuza hosil qilish uchun sarflanadi. SHunga muvofiq maydalash darajasi oshishi bilan bo'lakni maydalashga sarf bo'lgan energiya miqdori ham oshadi.

Materialning yanchilish paytida hajmiy deformatsiyani amalga oshirishga sarflangan ish emirilayotgan bo'lak hajmining o'zgarishiga proporsional bo'lib quyidagicha aniqlanadi.

$$A_d = R \cdot \Delta V \quad (13.4)$$

bu erda: R - proporsionallik koeffitsienti, qattiq jism bo'lagini hajmiy deformatsiya qilish uchun sarf bo'lgan ish.

$\Delta V$  - emirilayotgan bulak hajmining (deformatsiyalangan hajm) o'zgarishi.

Yanchishda yangi yuzani hosil qilish uchun sarflangan ishni proporsional o'zgarishi:

$$A_{,yu} = \sigma \cdot \Delta F \quad (13.5)$$

bu erda:  $\sigma$  — proporsionallik koeffitsienti qattiq jismda yangi yuzani hosil qilish uchun sarflangan ish miqdori.

$\Delta F$  — qayta hosil bo'lgan yuza, m<sup>2</sup>

Rebinder tenglamasi yordamida yanchish uchun sarf bo'lgan to'la ish topiladi.

$$A = A_d + A_{yu} = R \cdot \Delta V + \sigma \cdot \Delta F \quad (13.6)$$

Katta bo'laklarni kichik maydalanish darajasi bilan yanchish paytida yangi yuza hosil qilishga sarf bo'lgan ishni hisobga olmasa ham bo'ladi, chunki uning qiymati ancha kichik bo'ladi. Bunday holatda (13.6) tenglamani quyidagicha ifodalash mumkin:

$$A = R\Delta V = R_1 \cdot d^3 \quad (13.7)$$

bu erda:  $R_1$  - proporsionallik koeffitsienti.

d - bo'lakning xarakterli o'lchami; mm.

(13.7) - tenglama Kik – Kirpechivning yanchish gipotezasini ifodalaydi, gipotezaga ko'ra qattiq jismni yanchish uchun sarflangan ish yanchilayotgan bo'lak hajmiga yoki massasiga proporsionaldir.

Agar yanchish yuqori maydalanish darajasi bilan amalga oshirilsa, u holda (13.6) tenglamadagi hajmiy deformatsiya uchun sarflangan ishni hisobga olmasa bo'ladi, chunki uning qiymati yangi yuza hosil qilishga sarflanayotgan ishga nisbatan ancha kamdir. Bunday holatda (13.6) tenglama quyidagicha yoziladi:

$$A = \sigma \cdot \Delta F = \sigma_1 \cdot d^2 \quad (13.8)$$

bu erda  $\sigma_1$  - proporsionallik koeffitsienti.

(13.8) - tenglama Ritenger gipotezasini ifodalaydi.

Bu gipotezaga ko'ra yanchish uchun sarf bo'lgan ish qayta hosil bo'lgan yuzaga proporsionaldir.

(13.6) - tenglama o'ng tomonidagi ikkala tashkil etuvchilarni hisobga olish bo'lgan paytda (maydalanishning o'rtacha darajalari uchun) Bond quyidagicha tenglama taklif etgan.

$$A = k_2 \sqrt{d^3 \cdot d^2} = k_2 \cdot d^{2,5} \quad (13.9)$$

Ushbu tenglama muvofiq bitta bo'lakni yanchish uchun sarflangan ish, uning hajmi va hosil bo'lgan yuza o'rtasidagi geometrik o'lchamga proporsionaldir.

Qattiq donador mahsulotlarni mexanik yul - ya'ni ezish, zarba usullari yordamida bo'laklarga bo'lish, ularning o'lchamini kamaytirish maydalash jarayoni deb ataladi.

Un ishlab chiqarish, konservalash, spirt ishlab chiqarish tarmoqlarida eng ko'p qo'llaniladigan jarayon bu maydalash jarayonidir.

Ushbu tajriba ishida biz bolg'ali maydalagichning ishlash printsipli bilan tanishib chiqamiz.

Quyidagi emperik tenglama orqali bolg'ali maydalagichning taxminiy ish unumdorligini aniqlash mumkin:

$$G_1 = K_1 \cdot \rho \cdot D_p^2 \cdot L \cdot n_p \quad (13.10)$$

bu erda:  $K_1$  - emperik koeffitsient hisoblanib, bu koeffitsient asosan maydalanayotgan mahsulotning fizik kimyoviy xossasidan, bolg'aning konstruktsiyasidan hamda elakning yuzasi va tezliklar o'lchamidan bog'liq. Ushbu koeffitsientning qiymati quyidagicha qabul qilinadi: agar elakning diametri 3 mm gacha bo'lsa

$$K_1 = \frac{3,6}{10^5} \div \frac{4,7}{10^5};$$

agar elakning diametri 4 - 5 dan 10 mm gacha bo'lsa

$$K_1 = \frac{6,0}{10^5} \div \frac{10,5}{10^5};$$

$\rho$  - mahsulotning zichligi,  $\text{kg/m}^3$

$D_p$  - maydalagich rotorining diametri, m.

$L$  - rotorning uzunligi, m.x

$n_r$  - rotorning aylanishlar soni, ayl/min.

Rotornig aylanishlar soni quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$n_p = \frac{n_e \cdot D_e}{D_d} \quad (13.11)$$

bu erda:

$n_e$ - elektrodvigatel' valining aylanishlar soni, ayl/min.

$D_e$ - elektrodvigatel' validagi shkivning diametri, m.

$D_d$ - maydalagich validagi shkivning diametri, m.

Maydalagich elektrodvigatelining quvvati quyidagi emperik tenglama orqali aniqlanishi mumkin:

$$N = K_1 \cdot K_2 \cdot \rho \cdot D_p^2 \cdot n_p \quad (13.12)$$

$K_2$ - emperik koeffitsient,  $K_2 = 2,0 \div 4,0$


### **Tajriba qurilmasining tuzilishi.**

Tajriba qurilmasi bolg'ali maydalagich hisoblanib, (13.1 - rasm) maydalagich korpusi 1, deka 2, rotor 3, bunker 5, rostlagich 6, elak 7, electromotor 8, vattmetr 9 va maydalangan mahsulot uchun 10 - yig'gichdan iborat. Mahsulot bunker orqali ishchi kameraga beriladi, natijada bolg'alarni zarbasi hamda dekaga va elakga ishqalanishi tufayli maydalanadi.

Maydalangan mahsulot elakdan o'tib yig'gichga tushadi. elektromotorning energiya sarfi vattmetr orqali o'lchanadi.

Tajriba o'tkazish uchun qurilmadan tashqari quyidagi yordamchi jihozlar ham mavjudligi talab etiladi.

1. Texnik tarozi.
2. Sekundomer.
3. Elaklar to'plami.



**13.1- rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi.**

**1-korpus, 2-deka, 3-rotor, 4-bolg`a, 5-bunker, 6-rostlagich, 7-elak, 8-  
elektromotor, 9-vattmetr, 10-yig`gich.**

***Ishni bajarish tartibi:***

1. Ko`mir, oxak yoki gips 3 ta bir xil og`irlikda 100 grammdan mahsulot olinib, mahsulotning har biri to`g`ri 5 daqiqa davomida teshiklarini diametri 5, 4, 3, 2, 1 mm - li elakdan o`tkazilib, fraktsiyalarga bo`linadi. Har bir elakda qolgan fraktsiya texnik tarozida o`lchanib umumiy miqdorga nisbatan foiz hisoblanadi va 13.1 - jadvalga qayd etiladi.

Jadval 13.1.

Elan- mayo`t gan	Elak teshigi bo'yicha elakda qolgan mahsulot miqdori ( % )					
	Taglik	1	2	3	4	5
	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	X <sub>4</sub>	X <sub>5</sub>	X <sub>6</sub>
Lot						
O`rta- cha miqdori						

Mahsulot bo'lagining o'rtacha o'lchami quyidagicha aniqlanadi:

$$d_{yp} = \frac{d_1x_1 + d_2x_2 + d_3x_3 + d_4x_4 + d_5x_5 + d_6x_6}{100} \quad (13.13)$$

$X_1$  - mahsulotning tagligida qolgan miqdori, %.

$X_2, X_3, X_4, X_5, X_6$  - teshiklarining diametri 1, 2, 3, 4, 5 mm o'lchamli elakda qolgan mahsulotning miqdori %.

1. Maydalagichga eng kichik o'lchamga ega bo'lgan elak o'rnatiladi.
2. Ta'minlovchi bunker ostidagi potrubka shiber yordamida yopiladi va bunkerga 5 - 10 kg mahsulot solinadi.
3. Maydalagich mahsulotsiz ishlatilib, dvigatelning ushbu holatda talab qiladigan vattmetr orqali aniqlanadi.
4. Shiber asta - sekin mahsulot sarfi, maydalagichning ish unumdorligi (6.10) - formula bilan hisoblangan qiymatgacha etkaziladi va bu holatda dvigatel talab qiladigan quvvat aniqlanadi.
5. 40 - 90 sekunddan so'ng maydalangan mahsulot olinib uning massasi o'lchanadi va natijalar 6 - jadvalga qayd etiladi.

Xuddi shuningdek, maydalagichga boshqa elak o'rnatilib yuqoridagi tajriba takror o'tkaziladi.

### **Tajriba natijalarini hisoblash.**

1. Bolg'ali maydalagichning hakikiy ish unumdorligi  $G_x$  (kg/s) hisoblanadi:

$$G_x = \frac{m_\tau}{\tau} \quad (13.14)$$

bu erda:  $m_\tau$  - maydalangan mahsulotning massasi, kg:

$\tau$  - tajriba davomiyligi, s.

2. (13.13) - tenglama orqali mahsulotning o'rtacha o'lchami aniqlanadi.
3. (13.1) - tenglama orqali maydalash darajasi aniqlanadi.
4. Maydalangan mahsulot uchun maydalagichda o'rnatilgan elak o'lchami bo'yicha K1 va K2 koeffitsientlarning haqiqiy qiymati (13.10) va (13.12) tenglamalar orqali topiladi.
5. Energiyaning solishtirma sarfi quyidagicha topiladi.

$$\Delta N = \frac{N_{ish} - N_{salt}}{G_{haq}} \quad (13.15)$$

Bu erda:  $N_{ish}$ ,  $N_{salt}$  - maydalagichning ish holati va salt ishlashida elektrodvigatel quvvati - vattmetr ko'rsatkichi bo'yicha olinadi, kVt.

Hamma hisob kitoblar va tajribadan olingan natijalar 6.2 jadvalga qayd etiladi.

Olingan natijalar asosida elak o'lchami (Ds) ga nisbatan quyidagi grafiklar ko'riladi.

1. Donadorlik
2. Maydalash darajasi.

Jadval 13-2.

O'tkazilgan tajriba raqami	1	2	3	4	5
Maydalagichga o'rnatilgan elak diametri, mm;D					
Olingan mahsulot massasi $m_{\epsilon}$ ; kg					
Jarayon doimiyligi $\tau, s$					
Maydalagich ish unumdorligi, $G_{haq} kg/s$					

energiya sarfi, kVt Salt holatda $N_{soat}$ Ishchi rejimda $N_{ish}$					
Maydalashda solishtirma energiya sarfi $\Delta N$ , kVt*s/kg					
Donadorlik $d_{ur}$ , mm					
Maydalash darajasi $i$					
Emperik koefitsientlar					
$K_1$					
$K_2$					

**Takrorlash uchun savollar.**

### **14 - Tajriba ishi**

## **SOCHILUVCHAN MATERIALLARNING DISLERSLIGINI ANIQLASH**

**Ishning maqsadi:** Sochiluvchan material zarralari o'lchamlarining differentsial va integral taqsimot egri chiziqlarini ko'rish va tekshirish. Qurilgan grafiklar asosida zarralarning o'rtacha o'lchamlari va chetlashish koeffitsentini aniqlash.

### **Umumiy tushuncha**

Disperslik sochiluvchan materiallarning muhim xarakteristikalaridan biridir. Disperslik sochiluvchan materiallarning texnologik xossalarini aniqlaydi va zarralarning kattaligi bo'yicha yoki solishtirma yuzasi bo'yicha taqsimot funksiyasi bilan ifodalanadi. (Solishtirma yuz deb zarralar sirti yuzasining ular massasi yoki hajmiga nisbatiga tushiniladi). Amaliyotda sochiluvchan materialning tarkibi bo'yicha quyidagicha tavsiflash qabul qilingan.

1. Material zarralari o'lchamlari bo'yicha (elaklar yordamida tahlil qilishga asoslangan).

2. Zarralar solishtirma yuzasining o'rtacha qiymati bo'yicha.

Sochiluvchan materiallarni elaklar to'plami elab bir necha fraktsiyalarga ajratish mumkin. Fraktsiyalar soni 5 tadan kam va 20 tadan ko'p bo'lmasligi kerak. Olinadigan fraktsiyalar zarralarining o'lchami elak teshigining o'lchami bilan chegaralanadi. elakning o'lchami deganda, to'kish natijasida hosil bo'lgan kvadrat tomonlarining uzunligini tushiniladi. elak teshiklari o'lchamining pastki chegarasi GOST 3584 bo'yicha 40 mkm bo'ladi.

Elak teshigi o'lchamining o'zidan keyingi elak teshigi o'lchamiga nisbati doimiy kattalik bo'lib elaklar to'plamining moduli deyiladi. elakdagi barcha teshiklar yuzasining elakning umumiy yuzasiga nisbati ham doimiy bo'lib, bu nisbatan elaklarning butun qatori uchun 36% - ga tengdir.


### **Tajriba qurilmasining tuzilishi.**

14.1-rasmda mexanik elash uchun ishlatiladigan tajriba qurilmasining sxemasi ifodalangan. Bu qurilma 10; 7; 5; 3; 2; 1 raqamli (3) elaklar tuplamidan, (1) qopqoq va (2) taglikdan iborat. Elaklar to'plamini aylantirish, ilgari lanma qaytma harakatlantirish va silkitish qo'lda amalga oshiriladi.

***Ishni bajarish tartibi:***

O'lchab olingan (200 g) sochiluvchan material yuqoridagi elaklar to'plamiga solinadi va to'plab qopqoq bilan yopiladi, 20 daqiqa davomida elanadi. elash tugagach har bir elakda qolgan maxsulot miqdori texnik tarozida 0,01 g aniqlikgacha tortiladi va natijalar sinov bayonida qayd qilinadi (14.1-jadval)

Alohida elaklardagi mahsulotlar massasi yig'indisi va o'lchash uchun olingan dastlabki sochiluvchan mahsulot massasining farki 2% dan ortiq bo'lmasligi kerak.



**14.1.- rasm. Tajriba qurilmasining sxemasi.**


1-qopqoq, 2- elaklar to'plami, 3- taglik.

**Olingan natijalar tahlili.**

14.1-jadval qiymatlari bo'yicha taqsimotning differentsial egri chizig'ini ifodalovchi grafigi ko'riladi. Bunda vertikal o'qda fraktsiyaning foizlardagi

miqdori, gorizontal o'qda esa fraktsiya zarrachalarining o'rtacha o'lchami qo'yiladi. Fraktsiya zarralarining o'rtacha o'lchami berilgan fraktsiya o'tgan va ushbu fraktsiya ushlanib qolgan elaklar teshiklari o'lchamining o'rta - arifmetik qiymatiga teng.

SHuningdek berilgan o'lchamdan katta yoki kichik bo'lgan barcha fraktsiyalarning umumiy foizlari miqdorini ifodalovchi, taqsimotning integral egri chizig'i ham ko'riladi.



**14.2-rasm. Taqsimotning differentsial (a) va integral (b) egri chizig'i**

I - elakdan o'tgan mahsulot miqdori;

II - elakda ushlanib qolgan mahsulot miqdori.

Mahsulotning fraktsiyalar bo'yicha foizlar miqdori quyidagi nisbatan topiladi:

$$G_i / G_{um} \cdot 100\% \quad (14.1)$$

bu erda  $G_i$  - ma'lum o'lchamdagi elakda ushlanib qolgan mahsulot massasi, g;

$G_{um}$  - dastlabki mahsulot miqdoriga teng bo'lgan barcha fraktsiyalarning umumiy massasi, g;

Zarralarning o'rtacha o'lchami quyidagi formula bilan topiladi:

$$d_{or} = m_1 \cdot d_1 + m_2 \cdot d_2 + \dots + m_n \cdot d_n = \sum m_i \cdot d_i \quad (14.2)$$

bu erda  $m_1, m_2, \dots, m_n$  - sochiluvchan mahsulot alohida fraktsiyalarining miqdori;

$d_1, d_2, \dots, d_n$  - berilgan fraktsiya zarralarining o'rtacha o'lchamlari;

$n$  - fraktsiyalar soni.

CHetlashish koeffitsienti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$R_0 = \frac{d_{84} - d_{16}}{2 \cdot d_{50}} \quad (14.3)$$

bu erda:  $d_{50}$  - ushlanib qolgan mahsulotni ifodalovchi integral egri chiziqning 50% miqdoriga mos keluvchi elak teshigining o'lchami, mm;

$d_{84}$  - shu egri chiziqning 84% miqdoriga mos keluvchi elak teshigining o'lchami, mm;

$d_{16}$  - ushbu egri chiziqning 16% miqdoriga mos keluvchi elak teshigining o'lchami.

Jadval 14. 1.

Elak	Fraktsiya	Fraktsiya miqdori	Integral xarakteristika
------	-----------	-------------------	-------------------------

raqami	zarrachalarini ng o'rtacha o'lchami diur, mm			Elakda qolgan mahsulot		Elakdan o'tgan mahsulot	
		gr.	%	gr.	%	gr.	%
10							
7							
5							
2							
1							
Poddon							
jami							

### Takrorlash uchun savollar.

1. Mahsulot zarralarining o'lchamlari bo'yicha taqsimotning differentsial va integral egri chiziqlari qanday ko'riladi?
2. Chetlanish koeffitsienti  $R_0$  qanday aniqlanadi?
3. Ekvivalent diametr nima?
4. Sochiluvchan mahsulotning dispersligi deganda nimani tushunasiz?
5. Elaklar to'plamining moduli nima?

## ILOVA-1

Suv bug`ining to`yinish holatidagi parametrlari: (temperatura bo`yicha)

<b>Tempera tura, t,<sup>o</sup>S</b>	<b>Bosim R 10<sup>-3</sup>Pa</b>	<b>Bug` hosil bo`lish solishtirma issiqligi, r,kJ/kg</b>	<b>Bug`ning ental`piyasi, I', kJ/kg</b>	<b>Suyuqlik ental`piyasi I', kJ/kg</b>
10	1,23	2476,9	2518,7	41,99
11	1,31	2474,3	2520,4	46,19
12	1,40	2472,3	2522,5	50,38
13	1,50	2469,7	2524,3	54,57
14	1,59	2467,6	2526,3	58,75
15	1,71	2465,1	2527,9	62,94
16	1,82	2462,6	2529,6	67,13
17	1,94	2460,1	2531,3	71,31
18	2,06	2457,6	2532,9	73,50
19	2,19	2455,5	2535,0	79,63
20	2,34	2453,0	2535,7	83,80
21	2,49	2450,5	2538,4	88,04
22	2,64	2448,4	2540,5	92,22
23	2,82	2445,9	2542,2	96,41
24	2,98	2443,8	2544,3	100,59

25	3,17	2441,3	2540,9	104,77
26	3,36	2438,8	2547,6	108,95
27	3,66	2436,7	2549,7	113,13
28	3,78	2434,2	2531,4	117,31
29	4,00	2432,1	2553,5	121,48
30	4,24	2429,6	2555,1	125,66
31	4,46	2427,0	2556,8	129,84
32	4,80	2424,0	2558,9	134,02
33	5,10	2422,4	2560,6	138,20
34	5,33	2419,9	2562,3	142,38
35	5,83	2417,8	2564,3	148,56
36	5,95	2415,3	2586,6	150,74
37	6,27	2412,8	2567,7	154,92
38	6,63	2410,7	2569,8	159,09
39	6,99	2408,2	2571,5	164,27
40	7,35	2405,7	2573,1	167,45
41	7,35	2406,7	2575,2	171,63
42	7,75	2403,6	2576,9	175,81
43	8,64	2398,6	2578,6	189,99
44	9,10	2396,1	2580,2	184,17
45	9,57	2393,6	2581,9	189,35
46	10,10	2391,0	2583,6	192,53

47	10.62	2388.9	2585.7	196.71
48	11.15	2386.4	2587.4	200.89
49	11.75	2383.9	2598.0	205.07
50	12.35	2381.8	2591.1	209.26
51	12.99	2379.3	2592.8	213.44
52	18.61	2376.8	2564.5	217.62
53	14.40	2374.7	2596.8	221.80
54	15.01	2372.2	2599.2	225.98
55	15.75	2369.7	2599.9	230.17
56	16.38	2367.6	2602.0	234.35
57	12.99	2379.3	2592.8	213.44
58	18.20	2362.6	2605.4	242.72
59	19.05	2360.1	2607.0	246.92
60	19.92	2357.6	2608.7	251.07
61	20.84	2355.0	2610.4	255.23
62	21.81	2352.5	2618.1	259.46
63	22.81	2350.0	2613.7	263.65
64	23.88	2347.5	2615.4	267.84
65	25.01	2345.0	2617.1	272.02
66	28.20	2342.5	2617.8	276.31
67	27.38	2340.0	2620.4	280.40
68	28.31	2337.5	2622.1	284.59

69	29.80	2335.4	2624.2	289.78
70	31.10	2334.9	2625.9	292.97
71	32.45	2330.3	2627.6	297.16
72	34.10	2327.8	2620.2	301.36
73	35.45	2325.3	2630.9	305.55
74	37.00	2322.6	2632.6	309.74
75	38.45	2320.3	2634.2	313.94
76	40.17	2317.8	2635.9	318.13
77	41.90	2315.3	2537.6	322.33
78	43.60	2312.3	2639.3	325.52
79	45.50	2310.3	2640.9	330.72
80	47.40	2307.7	2642.6	334.92
81	49.40	2305.2	2644.3	339.11
82	51.49	2302.7	2646.0	343.31
83	53.40	2300.2	2647.6	347.51
84	55.70	2297.7	2649.3	351.71
85	57.60	2295.2	2651.0	355.92
86	60.20	2292.7	2652.7	360.12
87	62.40	2290.2	2654.3	364.32
88	65.00	2287.6	2656.0	368.53
89	67.50	2284.7	2657.3	378.73
90	71.00	2282.2	2658.9	376.94

91	72.70	2279.7	2660.6	381.15
92	75.70	2277.2	2662.7	385.36
93	78.40	2274.7	2664.4	389.57
94	82.50	2272.2	2666.1	393.78
95	84.50	2269.2	2667.3	397.99
96	87.70	2266.7	2669.0	402.20
97	91.00	2264.2	2670.7	406.42
98	94.30	2261.7	1672.3	408.63
99	97.70	2258.8	2673.6	414.85
100	101.30	2256.3	2675.3	419.06
101	104.99	2254.6	2677.9	423.28
102	108.78	2252.0	2679.5	427.50
103	112.67	2249.3	2681.0	431.73
104	116.68	2246.6	2682.6	435.95
105	120.80	2243.0	2684.1	440.17
106	125.04	2241.3	2685.7	444.40
107	129.41	2238.6	2687.2	448.63
108	133.90	2235.9	2638.8	452.85
109	138.52	2233.2	2690.3	457.08
110	143.26	2230.5	2691.9	461.32
111	148.14	2227.7	2693.3	465.55
112	153.16	2225.0	2694.8	469.78

113	158.32	2222.3	2696.3	474.02
114	163.61	2219.5	2697.8	476.28
115	189.05	2216.8	2699.3	482.50

## I L O V A -2

Ba`zi suyuqliklarning va qattiq materiallarning zichligi

Materialning nomi	Materialning zichligi, kg/m <sup>3</sup>
Po`lat	7850
Kul rang cho`yan	7250
Mis	8800
Lagun	8500
Bronza	8000
Alyuminiy	2700
Qo`rg`oshin	11400
Shisha	2500
Viniplast	1380
Beton	2300
Granit	2700
Quruq tuproq	1800

Quruq teri	850
Rezina	1500
Asbest	600
Simob	13600
Etil spirti	790
Glitsirin	1270
Neft	790
Ksilol	880
Benzin	760

### ILOVA-3

Suvning fizik xossalari.

$\rho$ , kg·s/sm <sup>2</sup>	t, °S	$\rho$ , kg/m <sup>3</sup>	i, kJ/kg	S, kJ/kg·K	$\lambda \cdot 10^8$ , Bm/m· K	$\alpha \cdot 10^7$ , m <sup>2</sup> /s	$\mu^7 \cdot 10^6$ , Pa.s	$\nu \cdot 10^6$ , m <sup>2</sup> /s	$\beta \cdot 10^4$ , K <sup>-1</sup>	$\sigma \cdot 10^4$ , kg/s <sup>2</sup>	Rg
1	0	1000	0	4,23	55,1	1,31	1790	1,79	0,63	756	13,7
1	10	1000	41,9	4,19	57,5	1,37	1310	1,31 ,	0,70	762	9,52
1	20	998	83,8	4,19	50,9	1,43	1000	1,01	1,82	727	7,02
1	30	996	126	4,18	61,8	1,49	804	0,81	3,21	712	5,42
1	40	992	168	4,18	63,4	1,53	657	0,66	3,87	697	4,31
1	50	998	210	4,18	64,8	1,57	549	0,566	4,49	677	3,54
1	60	983	251	4,18	65,9	1,61	470 '	0,478	5,11	662	2,98
1	70	978	293	4,19	63,8	1,63	406	0,415	5,70	643	2,55

1	80	972	335	4,19	67,5	1,66	355	0,365	$\text{jA}^{32}$	626	2,21
1	90	965	377	4,19	68.0	1.68	315	0.326	6.95	607	1.95
1.03	100	958	419	4.23	68.3	1.69	282	0.205	7.5	589	1.75
1.46	110	951	461	4.23	68.5	1.69	256	0.263	8.0	569	1.58
2.02	120	943	503	4.23	68.6	1.72	231	0.244	8.6	549	1.43
2.75	130	935	545	4.27	68.6	1.72	212	0.226	9.2	529	1.32
3.68	140	926	587	4.27	68.5	1.72	196	0.212	9.7	507	1.23
4.85	150	917	629	4.32	68.4	1.72	185	0.202	10.3	487	1.17
6.30	160	907	671	4.36	68.3	1.72	174	0.191	10.3	466	1.10
8.08	170	897	713	4.40	67.9	1.72	163	0.181	11.5	444	1.05
10.23	180	837	753	4.43	67.5	1.72	153	0.173	12.2	424	1.01

### Atmosfera sharoitida havoning fizik xossalari

$t, ^\circ\text{C}$	$\rho,$ $\text{kg/m}^3$	$s,$ $\text{kkal/}$ $(\text{kg}\cdot^\circ\text{C})$	$\lambda \cdot 10^2$ $\text{kkal/}$ $(\text{m soat } ^\circ\text{S})$	$\mu \cdot 10^6,$ $\text{Pa c}$	$\nu \cdot 10^7,$ $\text{m}^2/\text{s}$	$R_r$
0	1.293	0.240	2.10	1.75	13.28	0.707
10	1.247	0.240	2.16	1.80	14.16	0.705
20	1.205	0.240	2.23	1.85	15.06	0.703
30	1.165	0.240	2.30	1.90	16.09	0.701
40	1.128	0.240	2.37	1.95	16.96	0.699
50	1.093	0.240	2.43	2.00	17.95	0.698
60	1.060	0.240	2.49	2.05	18.97	0.696

70	1.029	0.241	2.55	2.10	20.02	0.694
80	1.000	0.241	2.62	2.15	13.28	0.707
90	0.972	0.241	2.69	2.19	22.10	0.690
100	0.946	0.241	2.76	2.23	23.13	0.688
130	0.898	0.241	2.87	2.33	25.45	0.686
140	0.854	0.242	3.00	2.42	27.80	0.684
160	0.815	0.243	3.13	2.50	30.09	0682

## A D A B I Y O T L A R

1. Yusupbekov N.R. va boshqalar. Kimyo va oziq – ovqat sanoatlarning asosiy jarayon va qurilmalarini hisoblash va loyihalash Toshkent. ToshKTI, 2000. - 321b.

2. Yusupbekov N.R. va boshqalar. Kimyo texnologiyaning asosiy jarayoni va qurilmalari. Toshkent. Sharq. 2003. -644 b.

3. Salimov Z. Neft va gazni qayta ishlash jarayonlari va uskunalari. Toshkent. Aloqachi, 2010. – 507 b.

4. Jumayev Q.K. va boshqalar. Neft va gazni qayta ishlash korxonalarini jihoz va qurilmalari. Toshkent. O`zbekiston, 2009-260 b.

5. Salimov Z., Tuychiev I. – Ximiyaviy texnologiya protsesslari va apparatlari. Toshkent, O`qituvchi, 1987. – 408 b.

6. Salimov Z. Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari. 1-tom. Toshkent, O`zbekiston, 1994. –366 b.

7. Yusupbekov N.R., Nurmuhamedov N.R. va boshqalar. Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarning jarayonlari va qurilmalari fanidan hisoblar va misollar.- T.: ToshKTI, 1999 -352 b.

8. Дитнерский Ю.Г. Процессы и аппараты химической технологии.  
М.: Химия 1999. I-часть

9. Дитнерский Ю.Г. Процессы и аппараты химической технологии.  
М.: Химия 1999. II-часть

10. Ковецкий Г. Д. Процессы и аппараты пищевой технологии.  
М.: Химия 1999.- 620с.

## **Kurs loyahasini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**“Kimyoviy texnologiya”**


**kafedrası**

**Oliy ta'limning**

**"5320400-Kimyoviy texnologiya (Tarmoqlar bo'yicha)"**

**bakalavriat yo'nalishi talabalari ushun**

**“Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar» fanidan**  
**kurs loyihasini bajarilish bo`yicha**  
**USLUBIY KO`RSATMA**



**BUXORO – 2016 yil**

**Tuzuvchilar:**  
**o`qituvchisi:**

**“KT” kafedrasi katta**  
**t.f.n. Safarov B.J.**

**“KT” ” kafedrasi dotsenti: S.Sh.Ismatov**  
**“KT” kafedrasi katta o`qituvchisi: B.B.Muslimov.**

**Taqrizchilar:**  
**Hayitov A.A.**

**“KT” kafedrası mudiri: dots.**

**«Texnika xavfsizligi» kafedrası dotsenti: R.T.Adizov**

Uslubiy ko'rsatma “KT” kafedrasining №\_\_ yig'ilishida «\_\_»\_\_\_\_\_ 2016 yil tasdiqlangan.

Uslubiy ko'rsatma Bux.MTI uslubiy kengashida «\_\_»\_\_\_\_\_ 2016 yil №\_\_ majlisida tasdiqlangan.

Uslubiy ko'rsatmada "Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar" fani "5320400 Kimyoviy texnologiya" (Tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat yo'nalishi talabalarining kurs loyihasini bajarish usullari bayon etilgan. Har bir mavzu buyicha quyilgan vazifaning echimi bu boradagi asosiy ko'rsatmalar berilib, kerakli adabiyotlar tavsiya etilgan.

## **MUNDARIJA**

Kurs loyihasini bajarish tartibi.....5

Kurs loyihasining maqsadi.....	5
Kurs loyihaning vazifasi mazmuni va hajmi.....	5
Kurs loyihasini tashkil etish.....	6
Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar fanidan kurs loyihasi mavzulari.....	6
Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar fani bo'yicha tavsiya etiladigan kurs loyihalari.....	7
Mavzu-1: Gaz aralashmasi tarkibidan CO <sub>2</sub> ni ajratishda ish unumdorligi G=2m <sup>3</sup> /sek bo'lgan absorberni hisoblash va loyihalash.....	8
Hisoblash qismi neftni fraktsiyalarga ajratish qurilmalarini moddiy balansini tuzish.....	10
Mavzu-2. Soatiga 40000 kg moy fraktsiyasini absorbtсион usulda tozalash, asosiy jihozni konstruktiv o'lchamlarini hisoblash va loyihalash.....	19
Hisoblash qismi.....	20
Ilovalar.....	24
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	31

## **1. Kurs loyihasini bajarish tartibi**

"Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar" fani "5320400-Kimyoviy texnologiya" (Tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv rejasiga muvofiq asosiy fanlardan biri hisoblanadi.

Rejaga muvofiq bu fandagi murakkab va o'zlashtirish qiyin bo'limlardan talabalar qo'shimcha mustaqil shug'ullanib, kurs loyihani bajarishlari uchun mo'ljallangan.

Quyidagi uslubiy ko'rsatmada «Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar» faniga oid kurs loyihasini bajarish yo'l-yo'riqlari va hisoblash uchun topshiriqlari keltirilgan.

## **2. Kurs loyihasining maqsadi.**

Kurs loyihasini topshiriq bilan birga shartli ma'lumotlar, tegishli adabiyotlar belgilanib, asosiy uslubiy ko'rsatmalar berilgan. Har bir mavzuga tegishli adabiyotlar ro'yxati ham keltirilgan.

Kurs loyihasi talabani mutaxassislik fanlari bo'yicha birinchi muxandislik loyiha bo'lib, talabani aniq amaliy masalalarni hal etishga o'rgatadi. Shuningdek diplom loyihasida bajarilloyiha lozim bo'lgan vazifalarni asta-sekin o'rganishga tayyorlaydi.

Kurs loyiha talabani texnikaviy hisoblashlar, vfvzuga oid har-xil grafik va chizma tasvirlarini chizish borasidagi malakasini oshiradi.

## **3. Kurs loyihaning vazifasi mazmuni va hajmi.**

Kurs loyihasini hisoblash – tushintirish matnlardan va grafik qismidan iborat bo'ladi.

Hisoblash-tushintirish matni 30-40 sahifadan iborat bo'lib A-4 formatga qog'ozda yoziladi. Unda loyihalashtiriladigan jarayonga asoslanib, qo'yilgan vazifani echishning asosiy usullari va zarur hisoblash bajariladi.

Qabul qilingan qarorni asoslashda har-xil, mumkin bo'lgan variantlarning hisoblash natijalari tasdiqlanib, qabul qilingan variantning texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari keltiriladi.

Kurs loyihasining grafik qismi A-1formatidagi 2 ta chizmadan iborat bo'ladi.

Kurs kurs loyihasini berilgan vazifa maxsus blankda rasmiylashtirilib, rahbar tomonidan imzolanadi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

#### **4.Kurs loyihasini tashkil etish**

Kurs loyihasining vazifasi fanni o'qitish boshlangan ikkinchi haftasida beriladi.

Kurs loyihasini rahbarlari talabalar bilan qo'lgan masalaning mazmuni kurs loyihasini bajarish uslubi to'g'risida suhbat o'tkazadi, tegishli adabiyolarni tavsiya etadi. Rahbar muntazam maslahat o'tkazib turadi.

Kurs loyihasini bajarishning quyidagi umumiy qoidasi tavsiya etiladi:

- qo'yilgan vazifaga muvofiq kerakli adabiyolarni o'rganish;
- qo'yilgan masalani asoslab berish va uni hisoblash;
- **tadqiqot usulini** topish;
- loyihalashtirish uchun shartli ma'lumotlarini rasmiylashtirish;
- qaralayotgan jarayonning hisoblashlarni bajarish;
- hisoblash-tushintirish matnini yozish;
- loyihaning chizma qismini bajarish.

Quyilgan vazifani to'la bajargan talaba loyihani himoya qilishga tavsiya etiladi.

#### **5. Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar fanidan kurs loyihasi mavzulari**

Kurs loyihasi uchun o'tiladigan fan bo'yicha kafedrada tasdiqlangan namunali mavzular jumlasidan beriladi.

Kurs loyihasi mavzulari ishlab chiqarish korxonalarining sharoitlariga moslashtirib beriladi.

##### **Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar fani bo'yicha tavsiya etiladigan kurs loyihalari.**

1.Ishlab chiqarish quvvati 1500 kg/soat bo'lgan reaktorda benzolni propilen tetrameri bilan alyumeniy xloridi ishtirokida alkillash jarayoni tahlili va reaktorini hisoblash loyihalash.

2.Cho'kindi miqdori  $x=0,04 \text{ m}^3/\text{m}^3$  bo'lgan doimiy  $r=3$  at bosim ostida ishlovchi sutkasiga 180  $\text{m}^3$  suspenziyani ramali filtrpressda filtrlash jarayoni tahlili va uni hisoblash .

3.Separastiyalovchi sentrafuga qurilmasida moylarni tindirish jarayoni uchun balandligi  $N=0,5 \text{ m}$  diametri  $D=1 \text{ m}$  bo'lgan ( $\nu = 1200$ ) stentrafugani hisoblash va loyihalash.

4. Gazlarni siklon yordamida changlardan tozalash jarayoni va quvvati  $V=30000 \text{ m}^3/\text{soat}$  siklonni hisoblash.

5. Gaz aralashmasi tarkibidan  $\text{CO}_2$  ni ajratishda ish unumdorligi  $G=2\text{m}^3/\text{sek}$  bo'lgan absorberni hisoblash va loyihalash.

6. Quvvati  $G=1000$  t/soat bo'lgan alyumoslikatli katalizatorlarni transportirovka qilish quvurini hisoblash va loyihalash. ( $G=1000$  t/soat).
7. Rektifikatsiya jarayonini tahlili va rektifikatsion kolonnani issiqlik balansini hisoblash va loyihalash.
8. Binar aralashmalardan benzol va toluolni ajratishda quvvati soatiga 20000 kg bo'lgan rektifikatsion kolonnani hisoblash va loyihalash.
9. Uzluksiz ishlaydigan qalpoqchali rektifikatsion kolonna hisoblash va loyihalash.
10. Filtrlash jarayoni tahlili va vakuum-barabanli filtrni asosiy jihozlarini hisoblash va loyihalash.
11. Issiqlik almashinish jarayoni tavsifi va qobiq trubali sovutgichni hisoblash va loyihalash.
12. Issiqlik almashinish jarayoni tahlili va plastinkali qobiq trubali sovutgichni hisoblash va loyihalash.
13. Aylanish chastotasi 1200 ayl/min va diameti  $d=1$  metr bo'lgan separatsiyalovchi sentrafuganing 1-soatdagi quvvatini hisoblash
14. Uch korpusli vakuum-bug'latish qurilmasini hisoblash .
18. Reaktorlarni tuzilishi va ishlash prinsiplari, rejimlarini tahlili qilish hamda aralastirgichi bo'lgan reaktorni hisoblash va loyihalash
15. Absorbtsiya jarayoni tahlili va nasadkali absorberni hisoblash hamda loyihalash
16. Quritilgan ammoniy sulfat moddasiga nisbatan quritish quvvati  $G=1,25$  kg/sek bo'lgan barabanli quritgichning hisoblash
17. Mavhum qatlamli quritish jarayoni va quritgichni hisoblash
18. Yiliga 400 ming tonna aromatik uglevodorodlarni ekstraktsiyalash jarayoni va ekstraktorni hisoblash va loyihalash.
19. Dastlabki aralashma sarfi 542 kg/soat bo'lgan metan tarkibidagi vodorodni tozalashda adsorberni o'lchamlarini hisoblash va loyihalash.
20. Ikki oqimli gidrodinamik oqimlarning xususiyatlari va ularni parametrlarini hisoblash.

**Kurs loyihaga beriladigan vazifaning qisqacha mazmuni.**

Har bir mavzu buyicha quyilgan vazifa ma'lum ketma-ketlikda bajariladi.

Quyida namuna sifatida bir kurs loyihada bajariladigan ishlar ko'lamini keltirilgan.

# **1-Mavzu: Gaz aralashmasi tarkibidan CO<sub>2</sub> ni ajratishda ish unumdorligi $G=2\text{m}^3/\text{sek}$ bo'lgan absorberni hisoblash va loyihalash.**

## **Kirish**

O'zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanishi va istiqbollari haqida ma'lumotlar.

## **I. Asosiy qism. Adabiyotlar tahlili**

I.1 **Absorbtsion jarayon jarayonning** tarixi va rivojlanish bosqichlari. Kimyo sanoatida atmosfera gazlaridan oqilona foydalanish istiqbollari.

I.2. Absorbtsiya jarayoni qurilmalari va ularni sinflash (klassifikatsiya).

I.3. Absorbtsion kolonnalarning tuzilishi va ishlash prinsiplari.

I.5 Absorbtsion kolonnalarning ish rejimlari, yutuq va kamchiliklari.

I.6. loyihalangan absorbtsion kolonnaning tasnifi

## **II. Hisoblash qismi**

II.1. Jarayonning moddiy balansini hisoblash

II.2. **Tarelk**alarning gidravlik qarshiligini hisoblash

II.3. Konstruktiv hisoblash

## **3. Grafik qism**

3.1. Absorbtsion kolonnani yaxlit ko'rinish sxemasi o'lchamlari (balandlik, diametr) bilan birga berilishi kerak.

3.2. (**Detalirovka**) Asosiy detall va jihozlari chizmasi (yaxlit ko'rinishda, ba'zan mavzuning ichki xususiyatidan kelib chiqqan holda qirqim ko'rinishi asosida) **yoki ularni sxematik grafik nomogramma yechimi ko'rinishi holida ham bersa bo'ladi.**

## **Xulosa**

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

## Vazifalar mazmuni:

Kirish qismida: O'zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanishi va istiqbollari haqida ma'lumotlar beriladi.

### 1. Asosiy qism. Adabiyotlar tahlilida:

- Dastlab absorbsion jarayon jarayonning tarixi va rivojlanish bosqichlari to'g'risida batavsil ma'lumotlar berilib so'ngra, kimyo sanoatida atmosfera gazlaridan oqilona foydalanish istiqbollari, ekologik muammolarni bartaraf etgan holda zamonaviy yuqori rentabli texnologik ishlab chiqarish jarayonlarini joriy qilishga qaratilgan ma'lumotlar keltirilishi lozim;
- Absortsiya jarayoni qurilmalarini sinflashga (klassifikatsiya) oid ma'lumotlar orqali yoritilishi lozim;
- Absorbtsion kolonnalarning tuzilishi (ichki tuzilishlari) va ishlash prinsiplariga oid ma'lumotlar orqali yoritilishini kerak;
- Absorbtsion kolonnalarning ish rejimlari: bosim harorat konsentratsiya v.k.zolar,hamda yutuq va kamchiliklari haqida ma'lumotlar keltirilishi kerak;
- loyihalananayotgan absorbtсион kolonnaning tasnifi mukammal yoritilishi lozim.

## 2. HISOBLASH QISMI

### 2.1. ABSORBER MODDIY BALANSINI TUZISH

Moddiy va issiqlik hisoblari kolonnalar bir xil me'yorda ishlaganda, ya'ni kelayotgan xom ashyo va issiqlik oqimlarining yig'indisiga teng bo'lgan sharoit uchun hisoblanadi.

Berilgan shart qiymatlari:

Gaz -CO<sub>2</sub>.

Normal sharoit uchun gaz bo'yicha ish unumdorlik. –  $G_0 = 2 \text{ m}^3/\text{sek}$ .

Gaz aralashmasi tarkibi: CO<sub>2</sub> – 20% , havo– 80%.

Yutuvchi suyuqlik suv.

Suv temperaturasi  $t_s = 30 \text{ }^\circ\text{C}$ .

Yutuvchi suyuqlikda SO<sub>2</sub> gazini saqlashi–  $x_n = 0$ .

Koponentning ajratib olish darajasi–  $\varphi = 90\%$ .

Qurilmadagi bosim–  $R = 0,1$  MPa.

Yutuvchining qo'shimcha ish koeffestenti– 1,8.

Absorbstiyalashdagi temperatura -  $t_a = 20^0$  C.

Kiruvchi gaz temperaturasi –  $t = 150^0$  C.

Absorber turi - nasadkali.

Absorberning geometrik ulchamlari asosan zururiy modda o'tkazish va fazadar tezligi orqali aniqlanadi.

Modda almashinish yuzasi quyidagicha aniqlanadi:

$$F = \frac{M}{K_y \cdot \Delta \bar{Y}_{yp}}, (1)$$

Bu erda  $K_u$  – Gaz fazasiga modda o'tkazish koeffistienti,  $\text{kg}/(\text{m}^2\text{s})$ ;

$M$  – Yutiluvchi modda massasi.

## 1. Yutiluvchi modda massasi va yutuvchi sarfi

$\text{CO}_2$  gazining vaqt davomida absorbentdan o'tish miqdorini quyidagicha aniqlaymiz:

$$M = G \cdot (\bar{Y}_o - \bar{Y}_o) = L \cdot (\bar{X}_o - \bar{X}_o), (2)$$

Bu erda  $G, L$  – mos holda toza yutuvchi va gazning inert qismini sarfi,  $\text{kg/s}$ ;

$\bar{X}_H, \bar{X}_K$  -  $\text{CO}_2$  gazining yutuvchidagi boshlang'ich va oxirgi konstentrastiyalari,  $\text{kg} \cdot \text{CO}_2/\text{kg}$ ;

$\bar{Y}_H, \bar{Y}_K$  -  $\text{CO}_2$  gazdagi komponentning gaz aralashmasidagi boshlang'ich va oxirgi konstentrastiyalari,  $\text{kg} \cdot \text{CO}_2/\text{kg}$  gaz.

Hisob:

$$\bar{X}_o = 0 \quad \bar{Y}_o = \frac{y_H \cdot M_{\text{CO}_2}}{V_M} = \frac{0,35 \cdot 44}{22,4} = 0,39 \text{ kmol CO}_2/\text{kmol gaz}$$

$$\bar{Y}_O = \bar{Y}_6 \cdot (1 - \varphi) = 0,39 \cdot (1 - 0,9) = 0,039 \text{ kmol CO}_2/\text{kmol gaz}$$

CO<sub>2</sub> gazning  $\bar{X}_O$  yutuvchidagi oxirgi konstantriyasini  $\bar{Y}_H = f(\bar{X})$  aniqlaymiz.


$$\bar{y}^* = \frac{K}{P} \cdot \bar{x}, (3)$$

Bu erda  $K = 20,4 \text{ mm. sim.ust.} = 2719,32 \text{ Pa}$ .

Qiymatlarni qo'yib quyidagini aniqlaymiz:

$$\bar{y}^* = \frac{0,027}{0,1} \cdot \bar{x} = 0,27 \cdot \bar{x}$$

Absorbtsiyaning ish va muvozanat chiziqlarini quramiz (1 rasm).



rasm-1. 1 – muvozanat chizig'i, 2 – ish chizig'i

$$X_{y_H}^* = 0,0145 \text{ kmol CO}_2/\text{kmol topamiz.}$$

CO<sub>2</sub> gazining yutuvchi  $\bar{X}_k$  dagi oxirgi konstantriyasi va suyuqlikni regenerastiyalash uchun yo'qotilgan energiyaning bir qismini aniqlaymiz (absorberning o'lchamini o'zgarishiga ta'sir qiladi).

Bu quyidagini topamiz:

$$\bar{X}_o = \frac{X_{y_6}^* + 0,5 \cdot \bar{X}_6}{1,5} = \frac{0,145}{1,5} = 0,097 \text{ kmol CO}_2/\text{kmol}.$$

Inert qismining sarfi:

$$G = V_o \cdot (1 - Y_{o6}) \cdot (\rho_{oy} - \bar{Y}_6), \quad (4)$$

Bu erda  $\rho_{oy} = 1,29 \text{ kg/m}^3$ ;

$Y_{o6} = 0,2 \text{ m}^3 \text{ CO}_2/\text{m}^3 \text{ gaz}$  –gazdagi CO<sub>2</sub> komponentning hajmiy miqdori.

Qo'yamiz va aniqlaymiz:

$$G = 2 \cdot (1 - 0,2) \cdot (1,29 - 0,39) = 1,44 \text{ kg} / \text{sek}$$

Yutilayotgan komponent bo'yicha absorber ish unumdorligi:

$$M = G \cdot (\bar{Y}_H - \bar{Y}_K), \quad (5)$$

Qo'yamiz va aniqlaymiz:

$$M = 1,44 \cdot (0,39 - 0,039) = 0,7 \text{ kg} / \text{sek}$$

Yutuvchi sarfi:  $L = \frac{M}{(\bar{X}_o - \bar{X}_6)}, \quad (6)$

Qo'yamiz va aniqlaymiz:

$$L = \frac{0,7}{0,097} = 7,2 \text{ kg} / \text{sek}$$


Fazalararo sarfning bog'lanishi yoki yutuvchining solishtirma sarfi:

$$l = \frac{L}{G} = \frac{7,2}{1,44} = 5,0 \text{ kg} / \text{kg}$$

## 1 Modda berishda harakatlantiruvchi kuch

$$\Delta \bar{Y}_{cp} = \frac{(\Delta \bar{Y}_6 - \Delta \bar{Y}_M)}{\ln \frac{\Delta \bar{Y}_6}{\Delta \bar{Y}_M}}, \quad (7)$$

Bu erda  $\Delta \bar{Y}_6, \Delta \bar{Y}_M$ , - Absorberga kirish xamda chikishdagi katta va kichik harakatlantiruvchi kuch, kmol CO<sub>2</sub>/kmol gaz (rasm-2).



Rasm-2. Absorberda gazva yutuvchi oqimlarida konstentrastiyalarning

taqsimlanish sxemasi:

Unda

$$\Delta \bar{Y}_6 = \bar{Y}_H - \bar{Y}_{X_K}^* \quad \Delta \bar{Y}_M = \bar{Y}_K - \bar{Y}_{X_H}^*,$$

Bu erda  $\bar{Y}_{X_K}^*$ ,  $\bar{Y}_{X_H}^*$  - gaz aralashmasidagi CO<sub>2</sub> konsentratstiyasi,.

Bundan quyidagini olamiz:

$$\Delta \bar{Y}_G = 0,39 - 0,25 = 0,14 \text{ kmol CO}_2/\text{kmol gaz},$$

$$\Delta \bar{Y}_M = 0,039 \text{ kmol CO}_2/\text{kmol gaz},$$

$$\Delta \bar{Y}_{cp} = \frac{(0,14 - 0,039)}{\ln \frac{0,14}{0,039}} = 0,079 \text{ kmol CO}_2/\text{kmol gaz}$$

### 3. Modda o'tkazish koeffistenti

$K_y$ -modda o'tkazish koeffistentini aniqlaymiz. Fazalar qarshiliklari diffuziyasi additivligi orqali aniqlanadi:

$$K_y = \frac{1}{\frac{1}{\beta_y} + \frac{m}{\beta_x}} \quad (8)$$


Bu erda  $\beta_u$ ,  $\beta_x$  – mos holda gaz fazasi hamda suyuq fazalarning modda berish koeffistentlari, kg/m<sup>2</sup>s;

$m$  – taqsimlanish koeffestenti, kg/kg gaz.

Avvalam bor modda berish koeffistentlarni aniqlash uchun absorberdagi oqimlar tezligi hamda nasadkaning turini aniqlaymiz.

Ushbu loyiha uchun nasadkani quyidagicha qabul qilamiz:

– keramik, Rashig halqali nasadka (rasm-3)



### Rasm-3. Rashiga halqali nasadkalari

Qabul qilingan nasadka xarakteristikasi;

- $a = 60 \text{ m}^2/\text{m}^3$  – nasadkaning solishtirma yuzasi;
- $\varepsilon = 0,72$  –  $\text{m}^3/\text{m}^3$  – bo'sh xajmi;
- $d_e = 0,048\text{m}$  – ekvivalent diametri;
- $\rho = 670 \text{ kg}/\text{m}^3$  – sochiluvchi zichligi;
- soni – 1050 ta.

### 4. Gazning tezligi va absorber diametri

Absorberdagi gazning ruxsat etilgan tezligi:

$$\lg \left[ \frac{\omega_{\text{ip}}^2 \cdot a}{g \cdot \varepsilon^3} \cdot \frac{\rho_y}{\rho_x} \cdot \left( \frac{\mu_x}{\mu_y} \right)^{0,16} \right] = A - B \cdot \left( \frac{L}{G} \right)^{1/4} \cdot \left( \frac{\rho_y}{\rho_x} \right)^{1/8}, \quad (9)$$

Bu erda  $\omega_{\text{pr}}$  – gazning ruxsat etilgan (fiktiv-soxta) tezligi. m/s;

$\mu_x = 2,0 \cdot 10^{-3} \text{ Pa} \cdot \text{s}$  – Absorberdagi temperaturaga mos holda yutuvchining qovushqoqligi;

$\mu_u = 1 \cdot 10^{-3} \text{ Pa} \cdot \text{s}$  – absorberdagi 20 °C dagi suvning qovushqoqligi;

$\rho_x = 1015 \text{ kg}/\text{m}^3$  – yutuvchi zichligi;

A, V – nasadkalarining turiga qarab ularning koeffitsientlari,  $A=0,073$ ,  $V = 1,75$ .

Absorberdagi shartga binoan gazning zichligini aniqlaymiz:

$$\rho_y = \rho_{0y} \cdot \frac{T_0}{T} \cdot \frac{P}{P_0}, \quad (10)$$

Aniqlaymiz:

$$\rho_y = 1,29 \cdot \frac{273}{293} \cdot \frac{0,1 \cdot 10^6}{1,013 \cdot 10^5} = 1,19 \text{ kg} / \text{m}^3$$

$\omega_{\text{cheg}}$  -tezlikni aniqlaymiz (chegaraviy):

$$\lg \left[ \frac{\omega_{\text{tp}}^2 \cdot 60}{9,81 \cdot 0,72^3} \cdot \frac{1,19}{1015} \cdot \left( \frac{2,0 \cdot 10^{-3}}{10^{-3}} \right)^{0,16} \right] = -0,073 - 1,75 \cdot \left( \frac{7,2}{1,44} \right)^{1/4} \cdot \left( \frac{1,19}{1015} \right)^{1/8}$$

Yuqoridagi tenglikni yechib,  $\omega_{\text{cheg}} = 1,9$  m/sek aniqlaymiz.

Ishchi tezlikni quyidagicha qabul qilamiz  $\omega = \omega_{\text{cheg}} \cdot 0,5 = 1,9 \cdot 0,5 = 0,95$  m/s.

Sarf tenglamasi orqali absorberning diametrini aniqlaymiz:

$$d = \sqrt{\frac{4 \cdot V}{\pi \cdot \omega}} = \sqrt{\frac{4 \cdot V_0 \cdot \frac{T}{T_0} \cdot \frac{P_0}{P}}{\pi \cdot \omega}} \quad (11)$$

Aniqlaymiz:

$$d = \sqrt{\frac{4 \cdot 2,78 \cdot \frac{293}{273} \cdot \frac{1,013 \cdot 10^5}{1 \cdot 10^5}}{3,14 \cdot 0,95}} = 2,01 \text{ m}$$

Absorberning diametrini quyidagicha qabul qilamiz  $d = 2,0$  m.

### 5. Nasadkaning aktiv va aktib bo'lmagan ish yuzalarining zichligi:

Nasadkaning aktiv bo'lmagan yuzasi zichligi quyidagichsa aniqlanadi:

$$U = \frac{L}{\rho_x \cdot S}, \quad (12)$$

Bu erda  $S$  – Absorberning ko'ndalang yuzasidagi nasadka zichligi,  $\text{m}^2$ .

$$S = \frac{\pi \cdot d^2}{4} = \frac{3,14 \cdot 2,0^2}{4} = 3,14 \text{ m}^2$$

Quyidagicha aniqlaymiz:

$$U = \frac{7,2}{1015 \cdot 3,14} = 22,6 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3 / \text{m}^2 \cdot \text{sek}$$

Nasadkaning aktiya bo'lmagan qismining minimal ishchi zichligi

$$U_{\text{min}} = a \cdot q_{\phi}, \quad (13)$$

Bu erda  $q_{ef} = 0,022 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2/\text{sek}$

Keltirib quyidagini aniqlaymiz:

$$U_{\min} = 60 \cdot 0,022 \cdot 10^{-3} = 13,2 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3 / \text{m}^2 \cdot \text{sek}$$

Nasadkaning aktiv yuzasi:

$$\varphi_a = \frac{3600 \cdot U}{a(p + 3600 \cdot q \cdot U)}, \quad (14)$$

Bu erda  $p$  va  $q$  – nasadkalarining tipiga bog'liq koeffisient.

Son qiymatlarini qo'yib quyidagini olamiz:

$$\varphi_a = \frac{3600 \cdot 22,6 \cdot 10^{-4}}{60 \cdot (0,0005 + 3600 \cdot 0,8 \cdot 22,6 \cdot 10^{-4})} = 0,021$$

## 6. Modda berish koeffisienti.

Gaz fazasidagi modda berish koeffisienti quyidagicha  $\beta_u$  topamiz:

$$\beta_y = 0,167 \cdot \left( \frac{D_y}{d_g} \right) \cdot \text{Re}_y^{0,74} \cdot \text{Pr}_y^{0,33} \cdot \left( \frac{l}{d_g} \right)^{-0,47}, \quad (3.15)$$

Bu erda:  $D_u$  – CO<sub>2</sub> ning gazdagi o'rtacha diffuziya koeffisienti, m<sup>2</sup>/s;

$\text{Re}_u$  – Nasadkadagi gaz fazasining Reynolds kriteriyasi;

$\text{Rr}'_u$  – Gaz fazasidagi Prnatdtning diffuziya kriteriyasi;

$\mu_y = 0,015 \cdot 10^{-3} \text{ Pa} \cdot \text{s}$  – gaz qovushqoqligi;

$l = 0,1 \text{ m}$  – Nasadka balandligi.

Zaruriy kattaliklarni aniqlaymiz.

Gazdagi SO<sub>2</sub> diffuziya koeffisientini quyidagicha aniqlaymiz:

$$D_y = \frac{4,3 \cdot 10^{-8} \cdot T^{3/2}}{P \cdot (g_{CO_2}^{1/3} + g_2^{1/3})^2} \cdot \sqrt{\frac{1}{M_{CO_2}} + \frac{1}{M_g}}, \quad (16)$$

Son qiymatlarini mos holda keltirib quyidagini olamiz:

$$D_y = \frac{4,3 \cdot 10^{-8} \cdot 293^{3/2}}{0,1 \cdot (34,0^{1/3} + 29,0^{1/3})^2} \cdot \sqrt{\frac{1}{44} + \frac{1}{29}} = 1,28 \cdot 10^{-5} \text{ m}^2 / \text{sek}$$

Nasadkadagi gaz fazasining Reynolds kriteriyasi:

$$Re_y = \frac{\omega \cdot d_s \cdot \rho_y}{\varepsilon \cdot \mu_y} = \frac{0,95 \cdot 0,048 \cdot 1,19}{0,72 \cdot 0,015 \cdot 10^{-3}} = 5024$$

Nasadkadagi gaz fazasining Prandtl kriteriyasi:

$$Pr'_y = \frac{\mu_y}{\rho_y \cdot D_y} = \frac{0,015 \cdot 10^{-3}}{1,19 \cdot 1,28 \cdot 10^{-5}} = 0,98$$

Modda berish koeffisienti:

$$\beta_y = 0,167 \cdot \left( \frac{1,28 \cdot 10^{-5}}{0,048} \right) \cdot 5024^{0,74} \cdot 0,98^{0,33} \cdot \left( \frac{0,1}{0,048} \right)^{-0,47} = 0,017 \text{ kg} / \text{m}^2 \cdot \text{sek}$$

**Ekstraksion kolonnaning geometrik o'lchamini aniqlash.** Ekstraksion kolonna (ekstraktor) asosiy jihoz hisoblanib, unda xom ashyodagi keraksiz komponentlarni fenolda erishish jarayoni amalga oshiriladi. Sanoatda bu maqsadda nasadkali va tarelkali kolonnalar qo'llaniladi. Kolonnaning yuqori va pastki qismlarida rafinatli va ekstraktli eritmalarini tindirish uchun bo'sh zonalar mavjud. Kolonnani hisoblash uning diametri va balandligini aniqlash bilan amalga oshiriladi.

Ekstraksion kolonna diametri ( $D$ , m) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$D = 2\sqrt{\frac{G'_c + G'_f}{\pi W}} \quad (1)$$

bu yerda  $G'_c$  – kolonnaga kiruvchi xomashyoning hajmiy sarfi,  $m^3$ /soat;

$G'_f$  – erituvchi (fenol) ning hajmiy sarfi,  $m^3$ /soat;  $W$  – ekstraksion kolonnadagi aralashma oqimining shartli tezligi,  $m^3/(m^2 \cdot \text{soat})$ .

Erituvchining hajmiy sarfi berilgan xomashyoning turli erituvchida turlicha eruvchanligiga bog'liqligidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Fenolli tozalashda xomashyo aralashmasi oqimining shartli tezligi 10 dan 12  $m^3/(m^2 \cdot \text{soat})$ , furfurool foydalanilganda – 6,5 dan 13  $m^3/(m^2 \cdot \text{soat})$  gacha bo'ladi.

Ekstraksion kolonna baladligini taxminan ushbu formula orqali aniqlash mumkin.

$$H = h_1 + h_2 + h_3$$

Bu yerda:  $h_1$  – ustki qopqoq va yuqori tarelka orasidagi masofa (rafinatli eritma uchun tindirish zonasi balandligi), m;

$h_2$  – kolonna tubi va pastki tarelka orasidagi masofa (ekstraktli eritma uchun tindirish zona balandligi), m;

$h_3$  – yuqori va pastki tarelkalar orasidagi masofa (kontakt qurilmalari egallagan balandlik), m.

Rafinatli eritma uchun kolonnaning tindirish qismi balandligi ushbu formula bilan hisoblanadi.

$$h_1 = \frac{G'_p \tau_1}{S} \quad (2)$$

bu yerda:  $G'_p$  – rafinatli eritma hajmiy sarfi, m<sup>3</sup>/soat;  $\tau_1$  – rafinatli eritmaning tinish vaqti,  $\tau_1 = 1,2 - 1,5$  soat;  $S$  – kolonnaning ko'ndalang kesimi yuzasi, m<sup>2</sup>.

Ekstraktli eritma uchun tindirish qismi balandligi ushbu formula orqali aniqlanadi.

$$h_2 = \frac{G'_e \tau_2}{S} \quad (3)$$

bu yerda  $G'_e$  – ekstraktli eritma hajmiy sarfi, m<sup>3</sup>/soat,  $\tau_2$  – ekstraktli eritmani tindirish vaqti,  $\tau_2 = 0,5 - 1,0$  soat.

Rafinatli va ekstraktli eritmalar sarfi quyidagi formulalar bilan topiladi:

$$G'_p = \frac{G_p}{\rho_p} + \frac{G_p(1-x)}{X\rho_\phi} \quad (4)$$

$$G'_e = \frac{G_e}{\rho_e} + \frac{G_e}{\rho_\phi} - \frac{G_p(1-x)}{x\rho_\phi} \quad (5)$$

bu erda:  $G_p$ ,  $G_e$ ,  $G_F$  – mos ravishda rafinat, ekstrakt va erituvchining massa sarfi, kg/soat;  $\rho_r$  – kolonna yuqorisidagi temperaturada rafinat zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $\rho_e$  – kolonna pastidagi temperaturada ekstrakt zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $\rho'_r$ ,  $\rho''_r$  – kolonna yuqori va pastki temperaturalariga to'g'ri keluvchi erituvchi zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $X$  – rafinatli eritmadagi rafinatning massa ulushi.

Kontakt qurilma–jihazlar egallagan balandlik ushbu formula bilan hisoblanadi.

$$h_3 = (n-1)h_t \quad (6)$$

Bu yerda  $n$  – tarelkalar soni;  $h_t$  – tarelkalar orasidagi masofa, m.

Nasadkali kolonnalarda 5–7 ta tarqatuvchi tarelkalar joylashtiriladi, ular orasidagi masofa 2,0 – 2,2 m ni tashkil etadi. Tarelkali kolonnalarda 20 dan to 30 gacha elaksimon, kaskadli, jalyuzali yoki boshqa tarelkalar bir–biridan 0,4 – 0,7 m oralig'ida joylashtiriladi.

## Kurs loyahasini bajarish uchun boshlang'ich shartlar

Selektiv tozalash qurilmasiga 40 000 kg/soat moy fraksiyasi ( $\rho_4^{20} = 0,928$ ) kiritilmoqda. Tozalash fenol yordamida o'tkaziladi, uning xomashyo massasiga nisbati 1,7:1 ni tashkil etadi. Ekstraksion kolonnaning pastki qismidagi temperatura 56 °C, kolonna yuqorisidagi esa 82 °C. Rafinatni massa bo'yicha chiqishi ( $\rho = 0,907$ ) 76% ni tashkil etadi, uning rafinatli eritmadagi massa ulushi 0,86 ga teng. Rafinatli eritmaning tinish (turish) vaqti 1,2 soat, ekstraktida – 0,5 soat. ekstraktning nisbiy zichligi  $\rho_4^{20} = 0,985$ , fenolning zichligini 56 °C da 1043 kg/m<sup>3</sup>, 82 °C da – 1021 kg/m<sup>3</sup> ga teng deb qabul qilingan. Kolonnadagi aralashma oqimining shartli tezligi 9,5 m<sup>3</sup>/m(m<sup>2</sup> · soat)ni tashkil etadi. Kolonnada 2,2 m masofa oralig'ida 6 ta nasadkali tarelka o'rnatilgan. Kolonna diametri va balandligini aniqlang.

**Hisoblash.** Ekstraksion kolonnadagi oqimning o'rtacha temperaturasini topamiz:

$$t_{yp} = \frac{56 + 82}{2} = 69 \text{ } ^\circ\text{C}$$

Xomashyo zichligi ayni temperaturada D.I. Mendeleev formulasi bo'yicha kilogramm/metr kubda ifodalanib, quyidagiga teng bo'ladi.

$$\rho_{x\text{-ashyo}}^{69} = 898 \text{ kg} / \text{m}^3.$$

Fenolning zichligini ikkala temperatura uchun o'rtacha arifmetik qiymat holida olish mumkin:

$$\rho_f = \frac{1043 + 1021}{2} = 1032 \text{ kg} / \text{m}^3.$$

Xomashyoga nisbatan fenolning massa sarfi quyidagini tashkil etadi:

$$G_F = 40\,000 \cdot 1,7 = 68\,000 \text{ kg/soat.}$$

Xomashyo va fenolni hajmiy sarflari quyidagilarni tashkil etadi:

$$G'_{x\text{-ashyo}} = \frac{40000}{898} = 44,5 \text{ m}^3 / \text{soat}; \quad G'_f = \frac{68000}{1032} = 65,9 \text{ m}^3 / \text{soat}.$$

ekstarktsion kolonna diametri (1) formula bo'yicha aniqlanadi.

$$D = 2 \sqrt{\frac{44,5 + 65,9}{3,14 \cdot 9,5}} = 3,85 \text{ m}$$

uning ko`ndalang kesimi yuzasi:

$$S = \frac{3,14 \cdot 3,85^2}{4} = 11,6m^2$$

Rafinatni 82 °C dagi zichligini va ekstraktni 56 °C dagi zichligini D. I. Mendeleev formulasiga ko`ra hisoblaymiz:

$$\rho_r = 868 \text{ kg/m}^3; \quad \rho_e = 966 \text{ kg/m}^3.$$

Rafinat va ekstrakt sarfi quyidagini tashkil etadi:

$$G_p = 40\,000 \cdot 0,76 = 30\,400 \text{ kg/soat};$$

$$G_e = 40\,000 \cdot 0,24 = 9600 \text{ kg/soat}.$$

Rafinatli eritma hajmiy sarfini (6) formulasi bo`yicha topamiz.

$$G'_p = \frac{30400}{868} + \frac{30400(1 - 0,86)}{0,86 \cdot 1021} = 39,9m^3 / soat$$

Ekstraktli eritmaning sarfi – (5) formulasi bo`yicha hisoblanadi:

$$G'_e = \frac{9600}{966} + \frac{68000}{1043} - \frac{30400(1 - 0,86)}{0,86 \cdot 1043} = 70,4m^3 / soat.$$

Rafinatli eritma uchun tindirish zonasi balandligini (2) formula bilan hisoblanadi.

$$h_1 = \frac{39,9 \cdot 1,2}{11,6} = 4,1m.$$

Ekstraktli eritma uchun tindirish zonasi balandligi (3) formula ko`ra aniqlaymiz.

$$h_2 = \frac{70,4 \cdot 0,5}{11,6} = 3m$$

Kontaktli jihozlar qismi egallagan balandligi (6) formulaga ko`ra aniqlanadi:

$$h_3 = (6 - 1) \cdot 2,2 = 11m.$$

Kolonnaning umumiy balandligi:

$H = 4,1 + 3 + 11 = 18,1m$  ga teng bo`ladi.

**3.Chizma qismining tuzilishi:** 1 Loyihalanayotgan jihozning umumiy ko`rinishi ikki proektsiyada o`lchamlari keltirilgan holda (ilova-3).

2. Jihozning detal qismi ikki proektsiyada o`lchamlari keltirilgan holda (ilova-4).

**4. Xulosa.**

**5. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

**ilova-1**





Таблица штудеров

Обозначение	Наименование	Кол.	Проход условный $D_y$ , мм	Давление условное $P_y$ , МПа
А	Вход газа	1	600	0,1
Б	Выход газа	1	600	0,1
В	Вход жидкости	1	80	0,12
Г	Выход жидкости	1	80	0,12
Д <sub>1-2</sub>	Люк	2	500	0,1
Е <sub>1-2</sub>	Для манометра	2	50	0,1
Ж <sub>1-2</sub>	Для измерения температуры	2	50	0,1
И <sub>1-2</sub>	Для уравнера	2	50	0,1
К	Люк	1	600	0,1
Л	Лаз	1	500	0,1
М	Резервный	1	50	0,1

Зона	Формат	Поз.	Обозначение	Наименование	Кол.	Примечание
				Прочие материалы		
			14	Кольца Рашига		
				80x80x8 ГОСТ 17612 - 72	45 м <sup>3</sup>	

Изм.	Лист	№ докум.	Подпись	Дата	Лист

1. Колонна предназначена для поглощения аммиака из газовой смеси концентрацией 12 % (по объему)
2. Тип аппарата — насадочный.
3. Давление — атмосферное.
4. Число решеток — 1 шт.
5. Среда в аппарате — токсичная, коррозионная.
6. Насадка — керамические кольца Рашига 80x80x8 мм.
7. Высота насадки — 4,5 м.
8. Материал — сталь Х18Н9Т.
9. Температура в аппарате — 45 °С

Зона	Формат	Поз.	Обозначение	Наименование	Кол.	Примечание
				Сборочные единицы		
		1		Крышка колонны	1	
		2		Корпус колонны	1	
		3		Решетка	1	
		4		Устройство указателя уровня	1	
		5		Днище колонны	1	
		6		Опора цилиндрическая	1	
		7		Тарелка насадочная	1	
		8		Гильза термометра	2	
		9		Труба $D_y 80$	1	
				Детали		
		10		Прокладка $\phi 1875 \times \phi 1825$	2	
				Стандартные изделия		
		11		Болт М20x130 ГОСТ 7798-70	136	
		12		Гайка М20 ГОСТ 5915-70	136	
		13		Шайба 20 ГОСТ 11371-78	136	

Лист	Изм.	№ докум.	Подпись	Дата	Литера	Масса	Масшт.
Разраб.							1:40
Пров.							
Н.конт.							

Рис. 8.14. Колонна абсорбционная. Чертеж общего вида. Техническая характеристика колонны:

ilova-2




Рис. 8.15. Тарелка ТСН-2:  
 а — диаметром от 1000 до 2800 мм; б — диаметром от 400 до 800 мм.






Рис. 8.16. Тарелка ТСН-3:  
 а — диаметром 600 и 800 мм; б — диаметром от 1000 до 2800 мм

По'лат kolonnali apparatlarning qolpoqchali tarelkalari. Tarelka diametrlari:

a) 400-800 mm gacha; b) 1000-2000 mm gacha; в) 2200-4000mm gacha

### 3-iloва


№	Обозначение	Наименование	кол. шт.	Масса, кг	Наименование и марка материала	Примечание
1		Камера отстойная нижняя	1			
2		Камера отстойная верхняя	1			
3		Царга с рубашкой	3			
4		Вал	1			
5		Ротор	3			
6		Крышка экстрактора	1			
7		Опора	1			
8		Тяга	12			
9		Крышка	12			
10		Гильза	3			
11		Узел подшипниковый	4			
12		Распределитель	2			
13		Природ	1			
14		Муфта	1			
15		Стойка	1			
16		Опора	1			
17		Фланец	4		Х18Н10Т D <sub>y</sub> =100	
18		Фланец	10		Х18Н10Т D <sub>y</sub> =25	
19		Фланец	3		Х18Н10Т D <sub>y</sub> =20	
20						
21		Болт 2 М20×80.21				
22		ГОСТ 7798-70	12		Х18Н10Т	
23		Гайка М20.21	12		Х18Н10Т	
24		ГОСТ 5916-70	12		Х18Н10Т	
25		ГОСТ 5927-70	12		Х18Н10Т	
26		Шплицт 4×36.21	12		Х18Н10Т	
27		ГОСТ 397-79	12		Х18Н10Т	
28						
29						
30						
31						
32						
33						
34						
35						
36						
37						
38						
39						
40						
41						
42						
43						
44						
45						
46						
47						
48						
49						
50						
51						
52						
53						
54						
55						
56						
57						
58						
59						
60						
61						
62						
63						
64						
65						
66						
67						
68						
69						
70						
71						
72						
73						
74						
75						
76						
77						
78						
79						
80						
81						
82						
83						
84						
85						
86						
87						
88						
89						
90						
91						
92						
93						
94						
95						
96						
97						
98						
99						
100						
101						
102						
103						
104						
105						
106						
107						
108						
109						
110						
111						
112						
113						
114						
115						
116						
117						
118						
119						
120						
121						
122						
123						
124						
125						
126						
127						
128						
129						
130						
131						
132						
133						
134						
135						
136						
137						
138						
139						
140						
141						
142						
143						
144						
145						
146						
147						
148						
149						
150						
151						
152						
153						
154						
155						
156						
157						
158						
159						
160						
161						
162						
163						
164						
165						
166						
167						
168						
169						
170						
171						
172						
173						
174						
175						
176						
177						
178						
179						
180						
181						
182						
183						
184						
185						
186						
187						
188						
189						
190						
191						
192						
193						
194						
195						
196						
197						
198						
199						
200						
201						
202						
203						
204						
205						
206						
207						
208						
209						
210						
211						
212						
213						
214						
215						
216						
217						
218						
219						
220						
221						
222						
223						
224						
225						
226						
227						
228						
229						
230						
231						
232						
233						
234						
235						
236						
237						
238						
239						
240						
241						
242						
243						
244						
245						
246						
247						
248						
249						
250						
251						
252						
253						
254						
255						
256						
257						
258						



Rotor diskli ekstraktorning umumiy ko'rinishi

4-IIova





Rotor diskli ekstraktorning ba'zi bir elementlarining ko'rinishi

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кузнецов А.А., Кагерманов С.М., Судаков Е.Н. Расчеты процессов и аппаратов нефтеперерабатывающей промышленности. М.: Химия. 2002. 340 с.

2. Основные процессы и аппараты химической технологии. Под общ. редакцией Ю.А. Дытнерского. М.: Химия. 1999. 265 с.

3. Павлов К.Ф., Романков П.Г., Носков А. А. Примеры и задачи по курсу процессов и аппаратов химической технологии. Л. Химия. 2003. 560 с.

4. Касаткин А.Г. Основные процессы и аппараты химической технологии. М., Химия. 2001. 752 с.

5. Лашинский А.А., Толчинский А. Р. Основы конструирования и расчета химической аппаратуры. Л.: Машиностроения. 2000. 752 с.

6. Кувшинский М. Н., Соболева А. П. Курсовое проектирование по предмету “Процессы и аппараты химической промышленности”. М.: Высшая школа. 2001 . 223 с.

7. Расчёты основных процессов и аппаратов нефтепереработки. Под ред. Е.Н. Судакова, М.: Издательство «Химия», 2002

8. С.В. Адельсон, «Процессы и аппараты нефтепереработки и нефтехимии»

ГНТИ нефтяной и горно-топливной литературы М.: 2008

9. Технология и оборудование процессов переработки нефти и газа. Под ред. С.А. Ахметова, Санкт-Петербург 2006.

10. А.Г. Сарданашивили , А.И. Львова «Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа» М.: 1998

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz), [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), [www.bmti.uz](http://www.bmti.uz), [www.books.econprofi.ru](http://www.books.econprofi.ru)

8-ilovada esa kurs loyihasining bajarilishi bo'yicha talabalar, professor-o'qituvchilar tomonidan taklif va mulohazalar berilishi mumkinligi inobatga olingan.

Kurs loyihasining tushuntirish qismi quyidagi bo'limlardan iborat:

- kirish;
- taklif etiladigan sintetik va tabiiy yukori molekulyar birikmalar ishlab chiqarish kimyoviy texnologiyalarini texnik-iqtisodiy asoslash;
- xom-ashyo va materiallarning tavsifi va ularga qo'yilgan talablar, ularni nazorat qilish uslublari;
- tanlangan ishlab chiqarish texnologiyasining tavsifi va texnologik sxemalari;
- hisobiy bo'lim (moddiy va energetik hisoblashlar);
- ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalanishda xavfsizlik chora-tadbirlari;
- xulosa;
- qo'llanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- ilova;
- mundarija.

Kurs loyihasiniig grafik qismi quyidagi qismlardan iborat:

- ishlab chiqarish texnologiyasining umumiy ko'rinish chizmasi;
- detallarning ishchi chizmalari.

## GLOSSARIY

Absorbsiya	gazlarni suyuqlikda yutilishi.
Fizik absorbsiya	yutilgan modda faqat yutayotgan moddanng sirtiga yutilib ular bir-biri bilan birikmaydi.
Adsorbsiya	gaz va suyuqlik aralashmalaridagi komponentlarning qattiq jism sirtida va g`ovaklarda qotilishi.
Adsorbent	yutish qobiliyatiga ega bo`lgan g`ovaksimon qattiq donalar materiallar.
Desorbsiya	adsorbentga yutilayotgan moddani reagentlar yordamida ajratib olish
Seolit	tuproq jinsi bo`lib, suyuqlik aralashmalarini tozalash uchun ishlatiladi.
Silikagel	gaz aralashmalari tozalovchi natriy silikat eritmalariga mineral kislota va ularning nordon tuzlari ta`sir ettirib olinadi.
Ionit	yuqori molekularli birikma bo`lib, o`z tarkibida xarakatchan kation va anion gruppalari bo`ladi.
Rekonstruksiya	korxonani ishlab chiqarish vositalarini yangi texnika va texnologiya asosida yangi sex yoki qurilish ishlarini olib bormasdan qayta jixozlash.
Mavhum qaynash	kolonna ichiga mayda donador material solib, uning pastki qismidan gaz va suyuqlik beriladigan zarrachalarning intensiv harakatlanishi.
Mavhum qaynash soni	zarrachalarning intensiv harakatlanishini ko`rsatadigan kattalik.

Атаманинг ўзбек тилида номланиши	Атаманинг инглиз тилида номланиши	Атаманинг рус тилида номланиши	Атаманинг маъноси
Нефт газларнинг классификацияси	Oil and gas classification	Классификация нефти и газа	Маълумки, нефт тузулиши жиҳатдан жуда мураккаб табиий тузилишга ега бўлганлиги учун, уни ўрганиш турли хил таҳлиллар асосида олиб борилади.
Алканлар	Alkans	Алканы	Алканлар нефт сақловчи ҳудудларнинг барчасидаги ва табиий ёнувчи газларнинг таркибидаги углеводородларнинг асосий қисмини ташкил этади.
Циклоалканлар	Siklolkans	Циклоалканы	Нефтнинг асосий қисмини циклоалканлар ташкил этади. Нефт таркибида моно ва полицикли циклоалканлар учрайди. Умуман улар цикли тузилиш ега бўлиб умумий- $C_nH_{2n}$ формула орқали характерланади. Циклоалканлар, Марковников томонидан нафтенлар деб номланган.
Ароматик углеводородлар	Aromatics hidrocarbon	Ароматические углеводороды	Марковников ва Оглоблин, Баку конидан чиқадиган нефт таркибини урганаётиб, сул'фокислоталар орқали толуол, бензол, ксилол этилбензол 1, 2, 4, - тримэтилбензол ва шу синфга оид бир қанчаларни ажратиб олди. Ҳозирги кунда нефтни таркибини текширишлар шуни кўрсатадики, бензол гомологарининг яқин гомололари ( $C_7-C_{10}$ ) кўплаб учрайди. Нефтнинг керосин – газойл' қисмида, қайнаш температураси ( $200 - 350^{\circ}C$ ) бўлган бензолни ҳосиларидан ташқари нафталин ва унинг яқин гомололари бисикли конденсирланган ароматик углеводородлар яъни $C_nH_{2n-12}$ учрайди.
Зичлик	Density	Плотность	-деб ҳажм бирлигида мужжасамлашган масса миқдорига айтилади.

Молекуляр оғирлик	Molecular weight	Молекулярный вес	Кўпгина нефтларнинг молекуляр оғирлик 250 – 300 атрофида. Шуни еслаш жоизни, нефтнинг биринчи суюқ углеводород вакили пентан бўлиб, унинг молекуляр оғирлиги 72 га тенг. Жуда юкори молекуляр-гэтероатом боғланиш ега бўлган нефт маҳсулотлари смола, асфалтенларнинг молекуляр оғирлиги 1200-2000 га этади.
Ёпишқоклик қовушқоклик	Viscosity	Вязкость	Нефт ва унинг фракцияларининг қовушқоклиги кимёвий таркиб тузилишига боғлиқ бўлиб, у малекулалараро ўзаро таъсир кучи орқали аниқланади, яъни у ошса қовушқоклик ҳам ошади.
Нефт ва нефт маҳсулотларининг қотиш температураси	Temperature of hardening of oil and oil of products	Температура застывания нефти и нефти продуктов	Нефт маҳсулотларининг қотиш температураси физик константа бўлмайди. Лекин, техник характеристикага эга бўлган катталиқ ҳисобланади. Унинг бу характеристикаси орқали паст температураларда ташиш айниқса қишки шароитда, билиш муҳим аҳамиятга ега. Аниқ стандарт усулда қотиш температурасини инобатга ола туриб, паст температураларда нефт маҳсулотларини сўриб олиш тўғрисида, мулоҳаза юритиш ноаниқ бўлиб қолади. Сўриб олиш вақтида температура қиймати ҳамма вақт 10 – 15 °С да, қотиш температурасига қараганда юкори бўлади. Паст температураларда нефт ва нефт маҳсулотларининг қотиши, қовушқокликнинг паст температураларда ошиб боришига олиб келади.
Хираланиш температураси	Turbidity temperature	Температура помутнения	Хираланиш температураси деб, шундай температурага айтиладики, бундай температурада ёқилғи хиралана бошлайди. Шу кўрсаткичига қараб, карбюраторли ва реактив ёқилиғиларнинг гигроскопиклиги тўғрисида мулоҳаза юритилади. Ёқилғи таркибида ароматик углеводородлар миқдори ошиши билан унинг гигроскоплиги ошади. Махсус ҳолларда, авиацион ёқилғиларда қисман ароматик углеводородлар қўшилади. Умуман, сувнинг углеводородларда ериши жуда кам миқдорда бўлиб, яъни бу кўрсаткич 0,01 % дан кўп емас. Лекин ароматик углеводородларда бу кўрсаткич 2-3 марта юкори. Температуранинг

			<p>пасайиши билан углеводли ёқилгиларда сувнинг ериши камаяди, шунинг учун қисман ёқилги томонидан ҳаво таркибидан ушлаб қолинган сув майда томчи сифатида ажралиб, ёқилиғини хиралаштира бошлайди. Агар ёқилиғи ўз таркибида ериган сувни қанчалик кўп сақласа у шунчалик кўп гигроскопик бўлиб ҳисобланади ва юқори температураларда у сувни ажрата бошлаб хиралашади.</p>
Тўйинган буғ	Steam	Насыщенный пар	<p>Агар идиш зич қилиб беркитиб қўйилса, суюқликнинг камайиши тезда тўхтайдди. Температуранда ўзгармай турганда, суюқлик-буғ системаси иссиқлик мувозанати ҳолатига келади ва бу ҳолатда истаганча узоқ вақт бўла олади. Буғланиш жараёни билан бир вақтда конденсацияланиш ҳам юз беради ва бу иккала жараён ўрта ҳисобда, бир-бирини компенсациялайди. Суюқлик идишга қуйилиб, ендигина қопқоқ ёпилган дастлабки пайтда суюқлик ҳали буғланаверади ва суюқлик устида буғ зичлиги ортади. Бирок, бу билан бирга суюқликка қайтиб тўшаётган молекулалар сони ҳам ортиб боради. Буғнинг зичлиги қанчалик катта бўлса, шунчалик кўп молекула суюқликка қайтиб тўшади. Натижада ёпиқ идишда температура ўзгармай турганда бора-бора суюқлик билан буғ ўртасида динамик мувозанат қарор топади. Суюқлик ичидан бирор вақт ичида чиқиб келаётган молекулалар сони, ўша вақт ичида суюқликка қайтиб тўшаётган буғ молекулалари ўртача сонига тэнг бўлади.</p>
Тўйинган буғ босими	Pressure pair	Давления насыщенного пара	<p>Тўйинган буғ сиқилса мувозанат бўзила бошлайди, дастлабки вақтда буғнинг зичлиги бир оз ортади ва газдан суюқликка ўтувчи молекулалар сони, суюқликдан газга ўтувчи молекулалар сонидан ортиқ бўлади.</p>
Ёниш иссиқлиги	Warmth of burning	Теплота горения	<p>Ёниш жараёнида иссиқлик йиғиндиси доимийдир. Кимёвий жараённинг умумий иссиқлик эффектив йиғиндиси, фақат жараёнга қатнашувчи модда реагентлари ва охириги маҳсулотларига боғлиқ бўлиб, жараённинг ораликларидан бўладиган</p>

			Ўзгаришларига боғлиқ эмас. Бу Гесс конунинг моҳияти англатади.
Иссиқлик ўтказувчанлик	Heat conductivity	Теплопроводность	Иссиқлик ўтказувчанлик деб, вақт бирлиги ичида бирлик юзадан оқиб утувчи шундай тэнг бирлик температура градиентига айтилади.
Адсорбция	Adsorbtion	Адсорбция	У ёки бу компонентнинг танлаб ютувчи каттик модда таркибига ютилиши
Абсорбция	Absorbtion	Абсорбция	У ёки бу компонентнинг танлаб ютувчи суюк модда таркибига ютилиши
Кристаллизаци я	Cristalization	Кристаллизаци я	усулида – нефтда юқори ериш температурасига ега бўлган, яъни оғир углеводларни ажратиб олиш учун қўлланилади. энг яхши натижага қисқа фракциялар билан иш кўрганда, ҳамда қисман каттик моддаларнинг концентрация бўлганда еришилади.

## ТАБИЙ ГАЗ ҚИММАТЛИ ХИМИЯ

### ХОМ АШЁСИДИР

#### КИРИШ

Химия қишлоқ хўжалигини кескин юксалтириш учун имконият яратибгина қолмай, халқ хўжалигининг барча тармоқларини ривожлантириш истиқболларини ҳам очиб беради. Бунда синтетик толалар, каучуқ пластмассалар асосий роль ўйнайди. Яқин вақтлар ичида мамлакатимизда химия саноатининг ишлаб чиқариш ҳажми умуман 17 баравар кўпайса,

синтетик смолалар ва пластмассалар ишлаб чиқариш 60 баравар ортади. Кенг истеъмол моллари тайёрлаш учун керакли бўлган сунъий ва синтетик толалар ишлаб чиқариш 15 баравар кўпаяди.

Синтетик полимер материаллар мустақамлиги ва солиштирма оғирлигининг камлиги, говори ва паст ҳароратга чидамлилиги, нурга ва ҳар қандай об-ҳаво шароитига бардош бериши, электр токини ўтказмаслик адгезион хусусиятлари ва бошқа хоссалари билан қолган материаллардан ажралиб туради. Сунъий ва синтетик толалар ҳар қандай агрессив муҳитга чидай олади. Улардан герметик тарзда ёпиладиган идишлар яшаш, яхши сифатли елимлар тайёрлаш мумкин. Шунингдек синтетик полимер материаллар ишлашга қулай, физикавий, кимёвий ва механик хоссалари уларни қайта ишлашни осонлаштиради.

Табиийки, химия саноатининг тез суръатлар билан юксалаётганлиги ва айниқса юқори полимерли материалларни саноатининг ривожланаётганлиги мазкур материалларни ҳосил қилиш учун ишлатиладиган хом ашё базаси манбаларини қидириб топишни тақозо этади. Бундай хом ашё манбаларидан турли-туман маҳсулотлар таннархи арзон ҳолда олинладиган бўлиши керак. Олимлар Бухоро газини ана шундай хом ашё сифатида танлаб олдилар. Ушбу китобчада бу газни кимёвий қайта ишлаш билан ундан тола, каучук елим, лак пластмасса ва турли хил бўёқлар олиш йўллари ҳақида ҳикоя қилинади.

Ҳозирги замон кўп тармоқли химия саноатининг асосий хом ашё манбаи тошкўмир, нефт, табиий ва йўловчи газлар, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари, ўсимликлардир.

Оддий тошкўмирни ҳаво кирмайдиган жойда қиздириш натижасида газ ва тошкўмир смоласи олиш мумкин (қора ва рангли металлургия учун ишлатиладиган кокс бунга кирмайди). Тошкўмрдан олинган смолада 270 хилга яқин модда мавжуд: бензол, нафталин, фенол, ан-троцен ва бошқалар. Маълумки, РОССИЯ тошкўмир запаслари жиҳатидан дунёда биринчи ўринда туради. Бу йил мамлакатимизда 600—612 миллион тонна кўмир қазиб чиқарилади. Бироқ, тошкўмир ўзининг таркиби ва хоссалари жиҳатдан нефт ва газга қараганда анча мураккаб. Шунинг учун ҳам химия саноатида нефт ва газдан фопдаланиш қулайроқ деб топилган.

Нефт химиклар учун битмас-туганмас хазинадир. «Қора олтин» деб аталмиш нефт фақатгина мотор ёнилғиси олинувчи манба сифатида эмас, шу билан бирга энг муҳим синтетик материаллар — пластмасса, кимёвий тола, сунъий каучуқ тозаловчи моддалар ва бошқа хил материаллар олиш учун хом ашё бўлиб хизмат қилади. Нефтни қайта ишлаш учун катта-катта печларда бир неча юз градусгача қиздирилади. Ана шундан кейингина у ўзининг бойликларини бера бошлайди. Энг аввал бензин, керосин ва мазут ажралади. Нефт таркибидаги бошқа бойликларни ажратиб олиш анча мураккабдир.

Илгариги замонда химиклар нефтдан фақат керосин бензин олардилар. Қолган энг қимматбаҳо моддалар хўжасизларча ёндириб юбориларди. Шунинг учун ҳам улуғ рус химики Д. И. Менделеев: «қоғоз пулни ёқиб ўй иситса бўлади» деб киноя қилган эди.

Ҳозирги вақтда нефтни кимёвий қайта ишлаш йўли билан кўпгина кимёвий материаллар ишлаб чиқариш учун хом ашёнинг ўнларча хилини олиш мумкин. Энди нефт соф ҳолда мутлақо ишлатилмайди. Унинг таркибидан бензин ва керосин ҳайдаб чиқарилгандан кейингина энг

қимматли моддалар қолади. Бензин ва керосин ажратиб олинган нефтда мазут- юқори молекулали угле-водородлар қолади. Уни крекинглаш натижасида майда молекулали бирикмалар- этилен, пропилен, бутилен, дивинил, гексан ва бошқа юзлаб маҳсулотлар олинади, улар эса полимер материаллар ишлаб чиқариш учун дастлабки мономерлар асосини ташкил этади.

Табиий ва йўловчи газлар юқорида айтганимиздек энг арзон ва қулай кимёвий хом ашё ҳисобланади. Уларнинг таркиби жуда содда, осон қазиб олинади ва ўз босими билан пўлат қувурлардан узоқ, масофаларга узатилади.

Газдан кимёвий хом ашё сифатида фойдаланишга ўтишнинг сабабларидан бири, аввало бу газларнинг мамлакатимизнинг кўпгина республикаларида кўп миқдорда мавжудлиги ҳамда иқтисодий самаралилигидадир. Мамлакатимизда етти йил мобайнида газ чиқариш беш баравар кўпаяди ва унинг миқдори 150 миллиард кубометрга етади.

1965 йилда кимёвий маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун 2,5 миллион тоннадан ортиқ суюқ углеводород газлари ишлатилиши назарда тутилади. Ама шу миқдордаги углеводородни озиқ-авқат ҳам ашёсидан олиш учун 300 миллион пуд дон ёки 13 миллион тонна картошка керак бўлур эди.

Химияда газ тўрт хилга ажратилади. Нефтнинг оғир фракцияларини чуқур крекиглаб олинadиган моддалар нефтехимик газлар дейилади. Тошкўмирдан кокслаш йўли билан олинadиган, таркиби анча мураккаб бўлган газлар коксохимик газлар деб аталади.

Газлар, шунингдек нефт билан бирга ҳам чиқади. Улар нефт орасида эриган ҳолда бўлади. Ҳар тонна нефтда 40—50 кубометр ана шундай

нефга аралашган газлар бўлади. Шу тўғрисида ҳам уларни йўловчи газлар дейилади.

Йўловчи газлар таркиби пропан-пропилен, бутан-бутилен, пентан-пентилен фракциялардан иборат бўлади. Улар махсус компрессорларда бир-биридан яхшилаб ажратилади. Ҳозирги вақтда мазкур моддалар полиэтилен, полипропилен, бутадиен каучуклари ва бошқа шу каби кенг тарқалган полимерларни олишда асосий хом ашё ҳисобланади.

Таркиби жиҳатидан энг оддий ва қайта ишлаш осон бўлган газ табиий газдир. Табиий газлар қудуқлар қазиш йўли билан олинади. Табиий газлар таркиби, асосан, энг содда углеводород-метан, оз миқдордаги этан, пропан, бутан ва юқори молекулали углеводородлардан ташкил топган. Шу тўғрисида ҳам кейинги ўн йил мобайнида табиий газ бойликларини геологик қидириш ишлари жуда кенг миқёсда олиб борилмоқда. Фақатгина кейинги йиллар мобайнида 30 га яқин янги газ манбалари топилди. Бу жойлардаги газнинг запаси минг-ларча миллиард кубометрга етади. Ҳозир мамлакатимизда 170 та газ конлари бор. Уларнинг энг йириклари Ставрополь ўлкаси, Озарбайжон, Тожикистон ва Ўзбекистон территориясидадир. Табиий запаси жиҳатидан Бухоро—Хива газ кони дунёда энг йирик ҳисобланади. Унинг аниқланган запаси ўнлаб миллиард кубометрдан ошиб кетди. Ҳозир Ўрта Осиё ва Урал саноат корхоналари шу газ асосида ишлаб турибди. Шунингдек бу газ мазкур ўлкаларнинг шаҳар ва қишлоқларида маиший эҳтиёжлар учун ҳам ишлатилмоқда.

Бухоро саноат корхоналари ва аҳолиси табиий газдан кўпдан бери фойдаланиб келмоқда. Самарканд ва Тошкент аҳолиси ҳам ёқининг бу янги туридан тобора кўпроқ баҳраманд бўлаётир.

Ҳозирги вақтда Навоий, Самарканд, Оҳангарон ва Тошкент шаҳарларида Бухоро гази билан ишлайдиган ва электр энергияси ишлаб чиқарадиган қудратли иссиқлик станциялари қуриляпти.

Газдан ёқилги сифатида фойдаланиш саноатда янги, энг илғор технологик жараёнларни жорий қилиш, ишлаб чиқаришни техник жиҳатдан такомиллаштириш имконини бермоқда. Газ меҳнат шароитини яхшилади, меҳнат унумдорлигини оширади ва маҳсулот таннарини камайтиради. Совет кишилари газ плиталари, ҳар хил типдаги сув иситгичлар ва бошқа қулайликлардан фойдаланишмоқда. Яқин вақтларда газ билан ишлайдиган холодильниклар, кир ювиш машиналари ва бонқа замонавий аппаратлар ишлаб чиқариш кенгайтирилади.

Бухоро гази қўшни шаҳарлар ва республикалар учун ҳам катта аҳамиятга эга. Ёқилиғининг бу арзон ва қулай туридан Чимкент, Жамбўл, Фрунзе, Олмаота ва бошқа кўпгина қардош республикаларнинг шаҳарлари энергетик ва технологик эҳтиёжлар учун фойдаланишга ўтади.

Газли- Челябинск ва Газли—Свердловск трассалари муваффақиятли қуриб битказилди, Бунинг натижасида Сибирь ва Урал саноат корхоналари ташиш, сақлаш ва йшлатиш анча қийин бўлган тошкўмир ўрнига газдан фойдаланишмоқда. Мазкур корхоналар кўмир ташиб келтириш, унинг қолдиқлари — қўл ва шлакларни чиқариб ташлаш ва бошқа шу каби машаққатли ишлардан қутулдилар.

Ҳозирги вақтда 250 га яқин шаҳар газ билан таъминланган. Шу йилнинг охирига бориб 515 шаҳар ва аҳоли пунктларида яшовчи 70 миллион аҳоли газ олади. Суюлгирилган газларни ҳам қўшиб ҳисобласак

мамлакатимиздаги шаҳар аҳолисининг 65 фоизи, қишлоқ аҳолисининг 35 фоизи уз маиший эҳтиёжлари учун газдан фойдалана бошлайдилар.

## ГАЗЛАРНИ КИМЁВИЙ ҚАЙТА ИШЛАШ

Газ саноатининг дастлабки даврларида газдан фақат энергия манбаи сифатида фойдаланиб келинган. Газа кимёвий томондан қайта ишлаш эса фан ва техниканинг улуғвор ютуқларидан бири ҳисобланади. Табиий газларнинг кимёвий хом ашё сифатида қиймати шундаки, уларнинг таркибида кўп миқдорда метан-углеводород бор. Масалан, Бухоро конидан олинган табиий газ таркибида 98 фоизга яқин метан борлиги аниқланган. Яқин вақтларгача табиий газлар инерт бирикмалар ҳисобланиб келингани учун улардан химия саноатга фойдаланилмас эди. Метан ва унинг гомологларининг реакция хоссаси яхши эмас деб ҳисобланарди. Бироқ катализаторлардан кенг чуқур ва ҳар тарафлама ўрганиш уларни оксидлаш парчалаш, хлорлаш, нитрлаш ва бошқа реакция натижасида мажбур қилиш имконини берди.

Метаннинг энг истиқболли кимёвий қайта ишлаш жараёнларидан бири унинг оксидланишидир. Бу реакция натижасида формальдегид ва метанол ҳосил бўлади.




Формальдегид олишнинг бу бевосита методи техника-иқтисодий кўрсаткичлари жуда қулай бўлганлиги сабабли кенг фойдаланилмоқда. Метандан формальдегид ажратиб олиш мумкинлигини дастлаб

академик С. С. Медведев кашф қилган эди. Академик Н. Н. Семенов углеводородларнинг занжирли оксидланиш назариясини яратди. Бутуниттифоқ табиий газ илмий-тадқиқот институту шу назария асосида формальдегид олишнинг янги методини ишлаб чиқди.

Бу метод қўлланилганда таркибида 0,1 фоиз азот оксидлари бўлган метан-ҳаво аралашмаси 600—700 градус қиздирилган реактордан тез ўтказилади. Бу усулда реакцияга киришган метандан ажралиб чиқадиган формальдегид 70 фоизни ташкил этади. Формальдегид актив кимёвий бирикма, у бошқа моддалар билан осон реакцияга киришади. Шу тўғрисида ҳам формальдегид органик синтезнинг бебаҳо ярим маҳсулотига айланиб қолди. Формальдегид асосида мочевина-формальдегид, фенол-формальдегид смолалари, янги полимер-поли-формальдегид, органик бўёқлар, дори ва антисептик препаратлар тайёрланади. Формальдегиддан фойдаланиш миқдори йил сайин кенгайиб бормоқда.


Яқин вақтларгача формальдегидни метил спиртини темирли ва кумушли катализаторлар таъсирида оксидлаш йўли билан олиш асосий усул ҳисобланарди. Бу усулни М. И. Кузнецов, Е. И. Орлов ишлаб чиққан эдилар.



Бундай метод қўлланилганда асосий хом ашё сифатида метил спирти ишлатилади.

Метил спирти оксидланганда 90 фоиз формальдегид олинади. Бироқ, углерод ва водород оксидини коксдан олиш харажатларининг кўплиги метил спиртининг анча вақтгача жуда қиммат туришига сабаб

бўлди. Ҳозирги вақтда углерод оксиди ва углерод табиий газ - метандан олинади. Бу усулда олинган формальдегиднинг таннархи икки баравар арзондир. Давлат азот саноати институтининг филиали ишлаб чиқариш лойиҳада метил спирти ва формальдегидни Бухоро табиий газидан олиш кўзда тутилган.



а) формальдегид феноль – формальдегид смола ишлаб чиқаришда қадимдан фойдаланиб келади. Мазкур смолани саноат усулида олиш методини профессор Г.С. Петров Орехово – Зуево шаҳрида ишлаб чиққан Бу смола “карболит” де аталади.

Формальдегидни фенол ёки унинг гомологлари билан кўп марта конденсациялаш натижасида термопластик ёки терморреактив фенол – формальдегид смолалар олинади. У ёки бу смоланинг пайдо бўлиши асосий моддаларнинг нисбатига боғлиқ. Термопластик фенол – формальдегид смоласи спиртда, ацтонда яхши эрийди. Эриш натижасида юпқа парда ҳосил қилади. Смоланинг бу хоссаси ундан табиий шелак ўрнида фойдаланиш имконини беради. Шу тўғрисида ҳам бу смолани янги лак деб ҳам аташади.

Полимерларнинг иккинчи типи формальдегидни кўпроқ қўшиш натижасида олинади ва резоль смолалари деб аталади.

б) Мочевина – формальдегид смолалар пластмасса, елим, лак сифатида қатъий ўрнашиб олади. Улар фенол – формальдегид смолалардан рангсизлиги, бўёқ қўшилгач турли хил рангга кириши билан фарқ қилади. Мазкур смолани тайёрлаш учун формальдегид ва

мочевина ишлатилади. Бу моддалар эса табиий газдан олинади. олинади. Мочевина-формальдегид смолалар олиш ва уни қайта ишлаш газдан фойдаланишнинг энг рационал йўлларида биридир. Ўзбекистон химиклари яқин келажакда мочевина-формальдегид смоласини чирчиқ электрохимия комбинатида ишлаб чиқаришни мўлжалашмоқда.

Мочевина-формальдегид смолалар ўзининг қимматли техник хоссалари туфайли техникада кенг фойдаланилмоқда. Улар рангсиз, нурга чидамли, қаттиқ, ҳидсиз, турли эритувчи суюқликларга чидамлидир.

Мочевина-формальдегид смолалар асосан қўйма ва прессланган пластмассалар, лаклар, ғовак материаллар ишлаб чиқаришда қўлланилади. Улар электр ёйи таъсирида азот ва водород ажратиб чиқаради. Бу электр ёйини тезда ўчиради. Мочевина-формальдегиднинг бу ажойиб хислати электротехникада турли хил электр деталларини тайёрлашда фойдаланилади. Мочевина-формальдегид смолаларнинг ёғоч қипиғи ва коғоз қўшиб, прессланган порошоклари энг кўп тарқалган Улардан абжур, лампалар, турли хил идишлар, асбоблар, фото-радио инструментлари, приёмниклар, телефонлар, штепселлар, эшик тутқичлари, пардозлаш плиталари ва бошқа шунга ўхшаш кенг истеъмол буюмлари тайёрланади. Чиқиндига чиқган ўнлаб минг тонна ёроч қипиғларига фенол-формальдегид смолалар сингдирилиб мебель саноатида фойдаланилиши мумкин. Фенол-формальдегид шимдирилиб прессланган қипиғ энг яхши навли ёғочникидан ҳам яхши плиталар ясашга ярайди.

Мочевина-формальдегид смоласининг яна бир хислати шундаки, ундан «мипора» деб аталган ғовак материаллар тайёрлаш мумкин. Бу материаллар вагонлар, кемалар, холодильник ва боиқаларни иссиқ,

совуқ, товуш ва электр ўтказмайдиган қилади. Мочевина-формальдегид смолаларнинг турли хил эритмалари ҳар хил газламаларга шимдириш учун ҳам ишлатилади. Шунда газламалар оқармайдиган, ғижимланмайдиган, яхши буяладиган ва чидамли бўлади.

Офтобда айнимаслиги, турли хил буёқларга яхши қўшилиши мочевина-формальдегид смолалардан лак ва эмаль тайёрлашда фойдаланиш имконини беради. Бу смолалардан тайёрланган лак ва эмаллар аниқ ишлайдиган приборлар, машина ва механизмлар, холодильниклар, радио ва телевизион аппаратураларни юпқа парда билан қоплашда фойдаланилади.

Кейинги вақтларда мочевина-формальдегид смолалардан фойдаланишнинг янли энг йирик соҳаси бунёдга келмоқда. Маълум бўлишича, ерга фақат минерал ўғитларгина эмас, балки полимер ўғитлар ҳам солиниши лозим экан. Бу тупроқ ва ўсимликларга яхши таъсир қилар экан.

Мочевина бундан ташқари чорвачилик учун ҳам зарур озуқа моддасидир. Уз таркибида азот сақлайдиган бундай озуқалар 10з\Қалар билан боқилаётган молларнинг мад-•лиғй анча ошади.

, 'рмальдегиддан антисептик моддалар сифатида шо'йдаланиш мумкин. Уротропин, меламина ва ани-н-формальдегид смолалари олишда, кимёвий тола-гар'ни «уловчи» сифатида ишлатиш мумкин, уни. Табиий газдан олинадиган формальдегид ва мочевина тай-ёрлаш миқёси йил сайин тез суръатлар билан ошиб бормоқда. Яқин вақтлар ичида Бухоро табиий газини формальдегид ва мочевинага айлантириш ва шу асосда ун минглаб тонна пластмассалар, лаклар, урит, мол

озуқаси ва медицина препарагглари ишлаб чиқариш мумкин. Бундай реал муваффақиятлар яқин келажакда янада мудим, янги шший кашфиётларнинг очилишига олиб келади.

## **МЕТАН ГАЗИНИНГ ОКСИДЛАНИШИДАН ХОСИЛ БЎЛАДИГАН БОШҚА МОДДАЛАР**

Метан газидан фақат метил спиртигина эмас, балки химия саноатининг асосий мадсулотларидан бири бўлган аммиак ҳам олиш мумкин. Илгари аммиак газини сувни чур бўлиб турган кўмир устидан ўтказиб олинган бўлса, дозир Чирчиқ электрохимия комбинатида бу мақсадлар учун табиий газдан фойдаланилаётир. Комбинатда кўмир ва коксдан аммиак олиш ишига бардам берилган. Унинг ўрнига табиий газ-метанни конверсиялаш цехи қурилиб ишга туширилди.


Синтез газ ёки технологик газ олиш учун илгарилари комбинатга кўмир келтириш, сунгра уни майдалаш, қу-ритиш, чангдан тозалаш ва махсус генераторларда кўйдириш керак бўлар эди. Ана шундан кейингина газ дар хил зарарли қушимчалардан тозаланади. Бундай газ олинадиган генератор цехи ва тозалаш агрегатлари-ни 250 дан ортиқ киши бошқарарди. Дозир эса метаний конверсиялаш цехида ҳаммаси бўлиб 90 киши ишлайди. Метан унумдорлиги эса илгаридагига нисбатан уч баравар ортиқдир. Табиий газдан олинадиган технологик газнинг нархи кокс кўмиридан олинадиган газникига Караганда деярли 60 -фоиз арзон. Электр энергия сарфи ҳам дар тонна аммиакка дисобланганда кўмирни газга айлантириш учун кетадиганидан 24 фоиз камдир.

**11** Янги усулда олинган газнинг таркиби олиб, уни боища аралашмалардан ажратишга <sup>idiii</sup> сарфлаш «амайди. Шунингдек синтез катализаторларнинг ишлаш муддати ҳам анча узаяди. Арзон технотогик газнинг олинishi корхонада ундан маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, унинг қўлланилишини кен-гайтириш, турли хилдаги минерал уритларни янада кўпроқ ишлаб чиқариш имконини беради.

Метил спирти бошқа аралашмалар молекулаларига метил группаларини киритувчи воситачи ролини ҳам ўтайди. Метил спирти айрим ҳолларда турли хил лабораторияларда спиртни денатурлаштириш учун эритувчи сифатида ҳам қўлланилади. Метил спиртининг эритувчи сифатида, айниқса, лак *ишлаб* чиқариш саноатида кенг қўлланилиши ҳаммага маълумдир.

Бироқ, технологик газнинг аҳамияти метил спирти ва формальдегид олиш учун кимёвий хом ашё бўлиши билангина чекланмайди, балки ундан водород олиш ҳозирги вақтда энг муҳим ҳисобланади. Маълумки, водород аммиак азот кислотаси, ўғитлар ишлаб чиқаришда кенг қўлланилади. Ўсимлик мойларини гидрогенизация қилиб, қаттиқ ёғлар олишда ҳам технологик газнинг аҳамияти катта. Технологик газ ажойиб ёқилри ҳамдир. Ундан металлургия ва коксохимия саноатида муваффақият билан фойдаланса бўлади. Газли—Урал газ қувурини ётқизишда мазкур газнинг катта афзалликлари ҳисобга олинган, чунки ундан фақатгина кимёвий хом ашё сифатида эмас, балки ажойиб ёқилги сифатида ҳам фойдаланилади. Синтез газ, яъни углеводород оксиди билан водород аралашмаси кокс олишда, қора ва рангли металлургия саноатида ишлатилганда меҳнат унумдорлигини анча ошириш, иш маданиятини кескин яхшилаш имконини беради.

Синиль кислотаси органик синтез саноатида турли бирикмаларни циангидридлашда сезиларли роль ўйнайди ва кейинги вақтларда сунъий тола саноатида нитрон толаларини олишда кенг миқёсда ишлатилмоқда. Шу-нинг учун ҳам табиий газдан синтез йули билан синиль кислотаси олиш муҳим ақамиятга эга. Бу кислотанинг таркибий қисмидан бири бўлган углерод оксиди тегишли щароитда аммиак билан осон реакцияга киради.



Ҳозирги вақтда табиий газ ва аммиакдан синиль кислотаси олишнинг энг осон йўли топилган. Газдан қурум олиш ҳам амалий жиҳатдан муҳимдир. Газнинг чала ёниши ёки термин усулда парчаланиши натижасида икки хил — печь ва канал қурумлари олинади. Уларнинг иккинчиси саноат учун жуда керагли бўлган соф углероддан иборатдир. Шундай қурумни олиш учун ер юзида йилига 13 миллиард кубометр табиий газ ёқилади. Бу қурумда босмахона буюқлари активлаштирилган кўмир (ажойиб адсорбент —

нам тортувчи модда) олишда фойдаланилади. Шунингдек қанд ва спирт олишда «кенг қўлланилади. Противо-газларнинг қутисига қурум солинади. Пластмасса саноатида, айниқса, резина ишлаб чиқаришда қурумнинг тўлдирувчи сифатида роли катта.

## **АММИАК АЗОТ КИСЛОТАСИ, ЎҒИТ**

### **ВА МОЧЕВИНА**


Аммиак олишда ҳаво таркибидаги азот ва турли йуллар билан олинган водород асосий манба ҳисобланади. Азот, одатда, ҳаводан олинади. Водород эса қизиқ лаҳча чур бўлиб турган кўмир қатламлари орасидан иссиқ бўрни ўтказиш орқали олинади.

Бироқ кейинги вақтларда метаний чала оксидлаш орқали водород олиш усули саноатда кенг жорий қилинган. Аммиакни синтез қилиш катализатор устига ўрнатилган катта махсус минораларда олиб борилади. Бу минора кўп миқдордаги трубалардан ташкил топган бўлиб, ундан 400 градус иссиқда ва 150 — 200 атмосфера босимида аммиакни ўтказиб синтез қилинади.

Аммиак — химия индустриясининг энг муҳим маҳсулотларидан бири. У қанчалик кўп ишлаб чиқарилса, мамлакатимиз индустрия қуввати шунчалик ўсади ва қишлоқ хўжалиги минерал ўғитларга сероб бўлади. Аммиак мочевинани синтез қилишда кенг миқёсда қўлланилади.

Мочевинани цианамид методи бўйича ҳам олиш мумкин. Бироқ у анча мураккаб ва қиммат бўлганлиги учун ҳозирда қўлланилмайди.

Мочевинани синтез қилишда бевосита углерод оксидининг ўзигина эмас, балки уни янада оксидлаб олинкарбонат кислота гази ишлатилади.



Амалда мочевина 185—200 градус иссиқ температурада синтез қилинади. Температура ошиши билан реакция тезлашади. Бундай синтез учун энг керакли 200 атмосфера. Реакция бир соат давомида боради 70 фоиз тайёр маҳсулот чиқади. Мочевина карбами деб ҳам аталади. У рангсиз кристаллардан иборат бўлиб, ҳидсиз ва сувда яхши эрийдиган моддadir.

Мочевина азот ўғитларининг энг кучлиларидан биридир. У бошқа ўғитларга Қараганда кўпроқ азотга эга Унинг таркибидаги азотнинг миқдори 46 фоизга яқиндир. Юз килограмм мочевина 300 килограмм натрий селитраси ёки 225 килограмм сульфат аммонийнинг кучини беради. Унинг таркибидаги азот ўсимлик томонидан худди аммоний фосфати таркибидаги азотга ўхшаш осон ўзлаштирилади.

Мочевинадан соф холда ўғит сифатида кенг фойдаланилаётгани йўқ. Бунга, асосан, мочевинанинг қимматлиги сабаб бўлмоқда. Шунга қарамасдан қатор чет эл мамлакатларида ҳар хил аралаш ва мураккаб ўғитлар тайёрлашда мочевина кенг ишлатилмоқда. Мочевинани тупроқда эмас, балки ўсимлик барги орқали берса ҳам бўлади. Аммиак селитраси бундай қилинганда ўсимлик баргларини куйдириб юборади. Мочевина эса баргларни кўйдирмайди.

Мочевина таркибидаги азот ҳайвонлар организмида ҳам яхши ҳазм бўлади. Бу эса ундан қанд ва ёғ саноати чиқиндиларидан чорвага ҳар хил тери тайёрлаш ёки силослашда фойдаланиш имконини беради. Мочевина қўшиш билан бу озуқаларнинг таркибидаги азот ва карбонсувларни кўпайтириш мумкин. Бу эса чорва маҳсулдорлигини анча оширишга олиб келади.

Шундай қилиб, мочевина химия саноатининг энг муҳим маҳсулотларидан бири бўлиб қолади. Табиий газга эга бўлган бизнинг республикамизда мочевина ишлаб чиқаришнинг истиқболлари жуда каттадир.

**ТАБИЙ ГАЗ ЁРДАМИДА «ПОРТЛАТИШ» МУМКИНИМИ?**

Аввало шуни айтиш «керакки, кучли портловчи моддалардан динамит ва тол каби нитробирикмалар шу вақтгача газни химявий қайта ишлаш билан олинган эмас. Бу портловчи моддалар нефт, тошкўмир ва бошқа ҳар хил аралаш газлар ва улўрнинг гомогларидан олиниб келинарни. Метаний нитратлаш реакциясини биринчи марта рус олими Коновалов ишлаб чикқан. У метан ва унинг гомологлари ўта инерт бирикмалар бўлишига қарамай,улардаги водород атомларини маълум шароитда нитрогруппа билан муваффақиятли алмаштиш мумкинлигини топган. Метанда бундай реакцияни тўрт бор қайтариш билан тетранитрометан олиш мумкин экан. Коновалов усулида нитратлаш концентрацияланган азот кислотасини қиздириш орқали олиб борилади.

Ҳозирги вақтда метан ва унинг гомологларини газ фазасида нитратлашдек қулай усул ишлаб чиқилган. Бу эса метан ва унинг гомологларини саноат масштабида нитратлаш имконини беради.

Бу усулда метан 300—500 градус температурада азот кислотаси ва азот икки оксиди аралашмаси таъсир эттирилиб нитратланади. Шунингдек суюқлик ҳолатида нитратлаш усули ҳам бор. Метандан турли нитробирикмалар олиш мумкин. Шунини қайд қилиб утиш керакки, нитрометан лак саноатида эритувчи сифатида ишлатиладиган бутил спирти, аммиак буглари, бензол ва бошқалардан зарарлироқ эмас. Бу эса нитрометанни лак ишлаб чиқаришда кенг фойдаланиш имконини беради.

Нитролаklar бошқа парда ҳосил қилувчи нитроцеллюлозалар, ёглар, табиий ёки синтетик смолалар, пластификаторлар, эритувчилар

билан аралаштириб ишлатиладиган эритмалар йиғиндисидан иборат. Бундай лаклар металл, ёғоч устини қоплашда ва нитроэритмалар (нитробуёқлар) тайёрлашда ишлатилади. Нитролак билан қопланган буюмларни қайноқсув билан ювса қам кетмайди, доимо ялтираб туради. Аммо нитролак қопламалар очик ҳавода узоқда кетмайди. Шунинг учун ҳам унинг устидан парафин ёки мумни новшадилда эритиб сурилади. Бундан ташқари нитролаклар оловга ўч, тез алангаланади.

Нитрометан кучли портловчи моддалар тайёрлашда ҳам кенг қўлланилади.

Хозирги вақтда суюқ углеводородлар билан аралашганда портловчи моддалар ҳосил қиладиган тетронитраметан пиротехниклар эътиборини ўзига жалб қилмоқда. Хлорпикрин қам амалий жиқатдан эътиборга сазовордир. Метанни тўғридан-тўғри хлорлаш йули билан хлороформ олинади. Хлороформнит нитраллаш надижасида эса хлорпикрин олиш мумкин. Бу бирикмани нитрометанни озроқ бўр, оҳак ёки мармар кукуни қўшиб хлорлаш йули билан ҳам олинадн. Хлорпикрин инсектисид ва фунгисид хусусиятлари туфайли дон омборлари складлар ва бошқа жойларни дезинфекциялашда ишлатилади. Нитрометан мотор ёнилғиларининг алангаланиш температурасини пасайтирувчи сифатида ҳам муҳимдир. Унинг бу хислати алангаланиш температураси юксаклиги сабабли дизель ёнилғиси сифатида фойдаланишга яроқсиз бўлган ёнилғи хиллари учун алоҳида аҳамиятга эга.

Нитрометан ҳам табиий газни кимёвий қайта ишлаш орқали олинадиган муҳим моддаларнинг биридир. Ўзбекистонда табиий газ сероб бўлганлиги сабабли нитрометанни саноат масштабида ишлаб чиқариш имконияти бор. Шундай маҳсулот ишлаб чиқариш марказла-

рини Бухоро гази трубаларда етказиб бериладиган ҳамма жойда ташкил этиш мумкин.


## **МЕТАНИЙ ХЛОРЛАШ ВА ХЛОР ХОСИЛАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ**

Метан оддий шароитда хлорланмайди, метан ва хлор реакцияга киришмайди. Ёруғлик нури таъсир этиши билан реакция жадал боради ва амалда зарур бўлган маҳсулотлар ҳосил бўлади. Метаннинг хлорланиш вақтидаги реакция шароитларига қараб турли хлор ҳосилалари — метилхлорид, метиленхлорид, хлороформ ва тўртхлорли углерод олинади. Одатда бундай реакция натижасида метаннинг тўрт хил ҳосиласи ажралиб чиқади. Уларнинг қайнаш температуралари турлича бўлганлиги учун бир-биридан ажратиб олиш осон.

Метан хлорли ҳосилалари турли-туман мақсадлар учун фойдаланилади, уларнинг айримлари ҳақида батафсил тўхтаб ўтамиз.

Метилхлорид молекулаларга метил группасини киритувчи восита сифатида кенг қўлланилади. Шу муноса-бат билан метилланган целлюлоза — метиллцеллюлозани Ўзбекистон шароитига мослаб ишлаб чиқариш катта аҳамиятга эга.

Дарқақиқат йирик туз конлари кўп бўлганлиги учун бу тузни электролизлаб етарли миқдорда хлор олиш мумкин.Шунингдек бизга таркибида целлюлоза бўлган хом ашёлар ҳан кўп.Бу Ўзбекистонда кўплаб метил целлюлоза ишлабчиқарувчи кувватли заводлар қуриш имконини беради.



Бизнинг учун зарур бўлган уювчи натр туз кристалларини сувда эритиб электролизлаш орқали олинади. Шундай қилиб, туз электролиз қилинганда бир йула электродларда хлор ва водород, электролизда ишқор суйиқли олиш мумкин.

Метилцеллюлоза аслида оддий эфирдан иборат. Целлюлозани эфирлашни автоклавларда амалга ошириш мумкин. Унинг таркибидаги метил группаларининг миқдорига қараб икки хил типдаги метилцеллюлоза олинади: а) таркибида 2,2—2,4 фоиз метил группалари бўлган сувда эрувчи метилцеллюлоза, у газламаларни пардозлашда елим сифатида фойдаланилади, бунинг учун қимматли озуқа — крахмални исроф қилишга ҳожат қолдирмайди; б) сувда эримайдиган, бироқ ишқорларда эрийдиган, таркибида 0,2 — 0,25 фоиз метил группалари бўлган метилцеллюлоза, у тўқимачилик саноатида газламаларни намга ва мойга чидамли қилиш учун ишлатилади.

Метиленхлориднинг яхши эритувчилик хусусияти бор. Шу туфайли ҳам у поливинилхлорид, хлорли каучук полистирол каби юқори молекулали бирикмаларни эритишда кенг қўлланилади. Спиртли аралашмасидан киноплёнка ва ацетилцеллюлоза ишлаб чиқаришда фойдаланилади. Шу билан бирга метиленхлорид анча қиммат эритувчи. Шунга қарамай пластмасса, синтетик ва сунъий тола, каучук саноатида эритувчи сифатида салмоқли урин тутади. Шунинг учун ҳам уни зарур миқдорда ишлаб чиқариш жуда муҳимдир. Арзон ва бебаҳо табиий газ метиленхлорид олиш учун битмас-туганмас манба бўлиб хизмат қилади.

Хлороформ ёнмайди, наркотик таъсири бор, қисман захарли суюқликдир. Препаратив органик химия, оғир органик синтез саноати, буюқсаноатида хлороформнинг ақамияти каттадир. Буюқ саноатида халқ хўжалигида кент ишлатиладиган хилма-хил буюқларни учун метаннинг кўп хлорли ҳосилалари ва хлороформ реакциясидан фойдаланилади. Бу усул Фридель-Крафт синтези деб аталади.

Тўртхлорли углерод хлороформдан наркотик таъсири йўқлиги билан ажралиб туради. Бироқ бу ҳам ёғ ва мой, шунингдек вулканизация қилинмаган каучук канифоль, бошқа кўпгина табиий ва синтетик смолалар олтингугуртни яхши эритади. Шунинг учун ҳам тўртхлорли углерод териларни, мўйналарни ёғсизлантиришда қўлланилади, суюқ таркибидаги ва турли ўсимликларнинг уруғидаги ёғни экстракция қилишда, кийимбош ва газламаларни кимёвий йўл билан тозалашда ишлатилади. Тўртхлорли углевод олдирилган ўт ўчиргичлар электр станцияларида, нефт базаларида чиққан ёнгин-ларни оддий ўчиргичлар билан ўчириш мумкин бўлмаса ишга солинади ва жуда қўл келади.

Тўртхлорли углерод гўшт, балиқ ва бошқа тез ҳидланадиган маҳсулотларни сақлашда қўлланилади. У турли хил совитиш қурилмаларида қўлланиладиган фреонлар олиш учун асосий хом ашё ҳисобланади. Бу модда бошқа совитиш моддаларидан кимёвий инертлиги, аппарат ва ускуналарини занг бостирмаслиги билан ажралиб туради. Этиленни тўртхлорли углерод эритмасида полимерланганда реакция одатдагидан бошқачароқ тарзда ўтади. Шундай усулда полимерлашда тўртхлорли углерод реакцияга халақит берувчи бўлиб қолади ва уни дастлабки босқичидаёқ узиб кўяди. Бундай ўзилишли полимерлаш ёки тўртхлорли этиленни теломерлаш дейилиб, энант

синтетик толасини ҳосил қилишда қўлланилади. Энант олишнинг саноат усули яқиндагина ишлаб чиқилди. Бу усулда этиленни нефтни қайта ишлаш маҳсулидан, спиртни дегидротация қилишдан, тўртхлорли углеродни эса метанни хлорлаш йули билан олинади. Бу ҳар икки бирикмани бир-бирига таъсир эттириб учинчи бир маҳсулот — аминокетон кислотаси олинади. Бу кислотани кўп марта конденсациялаш натижасида энант толаси олинади. Энант толаси хоссалари капронникидан кўра анча яхши.

Синтетик толалар халқ хўжалигининг кўпгина соҳаларида революция ясади. Синтетик толанинг энг яхши хили бўлмиш энант катта истиқболга эгадир.

### АЦЕТИЛЕН ОЛИШ


Кейинги йилларда пластмасса, синтетик тола ва каучук саноатларининг тез суръатлар билан ривожланаётганлиги туфайли халқ хўжалигининг шу тармоқларига хом ашё манбаларини топиш масаласи муҳим бўлиб қолди. Бундай хом ашё арзон, енгил ташиладиган, энг муҳими, комплекс тарзда, яъни комплекс қайта ишлаш натижасида турли-туман маҳсулотлар берадиган бўлиши керак.

Шу жиҳатдан олганда органик синтез йўли билан ишлайдиган саноат, айниқса юқори молекулали материаллар саноати учун ацетиленнинг аҳамияти каттадир. Кўмирни саноат нони деб атаганларидаёқ ацетиленни органик синтез саноатининг нони деб аташ мумкин. Химия саноатининг бутун бир соҳаси ацетилен бирикмалари ва уларнинг ҳосилалари билан ишлайди. Кейинги вақтларгача ацетилен асосан кальций карбидидан

олинарди. Бунинг учун кўмир ва оҳак юқори температурада эритиларди. Кальций карбиди сув билан парчаланганда 99,5 фоиз ацетилен олинади.

Мазкур метод саноатда кенг тарқалган бўлса ҳам қатор камчиликлардан холи эмас, газ аралашмалардан тозаланади, технология схемаси нисбатан мураккаб, бир килограмм ацетилен ишлаб чиқариш учун 10 киловатт-соат электр энергияси сарф бўлади. Шу туфайли ҳам ҳозирги вақтда кальций карбиддан ацетилен олиш усули билан рақобатлашадиган янги методлар ишлаб чиқилган. Метан электрокрекинги ва термооксидлаш крекинги шундай усуллардир.

Метан электрокрекинги усули саноатда 1940 йилдан бошлаб қўлланилган. Бу усулда метан электрорадуга печларида электр ёйи орқали металл электродлари орасидан ўтказилади. Бунда реакциянинг қуйидаги шартларига риоя қилинади: реакция кетаётган бушлиқдаги температура 1600 градус цельсий, доимий токнинг кучланиши 800 в, газ оқимининг тезлиги секундига 1000 метр бўлади шунда 50 фоизгача ацетилен ажратиб олинади.



Чиқаётган газ дарҳол сув сепиб совутилади. Метан электрокрекингида ацетилен билан бирга 45 фоизгача водород, 1 фоизга яқин этилен, таркиби тарқамаган метан, синиль кислотаси қолдиқлари углерод оксиди ва бошқа аралашмалар чиқади. 1000 кд, табиий газ электрокрекинги қилинганда 300 килограмм ацетилен, 26 килограмм этилен, 21 килограмм қурум 1170 кубометр водород ҳосил бўлиши ҳисоблаб чиқилган. Кўриниб турибдики, метан электрокрекинги кўпгина миқдорда саноат учун зарур бўлган водород олишнинг энг муҳим

манбаларидан бири бўлиб қолиши мумкин экан. Бу метод бўйича бир килограмм тозаланмаган ацетилен олиш учун 9 киловатт-соат электр энергияси сарфланади. Ана шу жараён асосида олинган ацетилен арзон электроэнергиядан фойдаланилганда карбид усулида олинган ацетилендан анча арзон тушади.

Ацетилен олишнинг яна бир янги методи метаний крекинг усулида оксидлашдан иборатдир. У кислород етишмайдиган муҳитда метаннынг ёниши вақтида таркибий қисмларга ажралишига асосланган. 50 фоиз метан ва 40 фоиз кислород бўлган аралашма мах-сус печларда 1500 градус температурада ёндирилади. Бунинг натижасида 8,5 фоизгача ацетилен чиқади. Метаний ёндириб ацетилен олингандан кейин ёниб бўлган газда 26 фоиз углерод оксиди ва 55 фоиз водород (синтез-газ) қолади. Бу газ эса синтезни давом эттириш ёки водород олиш учун яхши хом ашё ҳисобланади. Шу туфайли ҳам одатда ацетилен олиш бошқа процесслар билан биргаликда боради. Бунда синтез-газ фойдаланилади. Мазкур метод қўлланилганда табиий газни кимёвий хом ашё сифатида қўлланиш имкониятлари кенгайди ҳамда иқтисодий фойдаси катта бўлади.

Метандан ацетилен олиш карбид методи билан ацетилен олишга қараганда икки баравар камроқ маблағ талаб этади. Маҳсулот таннархи эса бир ярим баравар арзон бўлади. Бундан ташқари газдан ҳар бир тонна ацетилен олиш давомида йул-йулакай шунча миқдорда синтез-газ ҳам олиш мумкин. Бу эса ўғит саноати учун зарур бўлган 4 тонна аммиак тайёрлашни таъминлайди.

Қилинган ҳисобларга кўра 1 миллиард кубометр табиий газдан комплекс равишда фойдаланилганда 500 минг тоннага яқин ацетилен,

шунча миқдорда аммиак олиш мумкин экан. Бу миқдордаги аммиакдан 2,7 миллион тонна азот уғитлари ҳосил қилиш мумкин. Шу миқдордаги ацетилендан шунча миқдорда сирка кислотаси, сирка ангидриди 4—10 миллиард метргача ацетат шойи олиш учун керак бўладиган целлюлозани ишлаш имконини беради.

Ацетилен жуда реакциябоп бирикмадир. Унда химия тили билан айтганда учламчи ёки «ацетилен» боғи бор. Бу эса бирикиш реакциясига жуда мойилдир. Ацетиленнинг мана шу хусусияти ундан халқ хўжалигида жуда муҳим аҳамиятга эга бўлган турли хил бирикмаларни олиш учун дастлабки хом ашё сифатида фойдаланиш имконини беради. Шу туфайли ҳам юксак ривожланган индустриал мамлакатларда ацетиленни кўплаб ишлаб чиқаришга жиддий аҳамият берилади. Масалан, АҚШ да йилига 1 миллион тоннадан кўп ацетилен ишлаб чиқарилади. Шундан 70 фоизга оғир органик синтез саноатига, 30 фоизи пайвандлаш ишларига сарфланади.

## **Elektron ta`lim resurslari**

[www.google.com](http://www.google.com)

[www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)

[www.yahoo.com](http://www.yahoo.com)

[www.atkallrightsreserved.com](http://www.atkallrightsreserved.com)

# **Internet ma'lumotlari**

# ТАБИЙ ГАЗ ҚИММАТЛИ ХИМИЯ

## ХОМ АШЁСИДИР

### КИРИШ

Химия қишлоқ хўжалигини кескин юксалтириш учун имконият яратибгина қолмай, халқ хўжалигининг барча тармоқларини ривожлантириш истиқболларини ҳам очиб беради. Бунда синтетик толалар, каучуқ пластмассалар асосий роль ўйнайди. Яқин вақтлар ичида мамлакатимизда химия саноатининг ишлаб чиқариш ҳажми умуман 17 баравар кўпайса, синтетик смолалар ва пластмассалар ишлаб чиқариш 60 баравар ортади. Кенг истеъмол моллари тайёрлаш учун керакли бўлган сунъий ва синтетик толалар ишлаб чиқариш 15 баравар кўпаяди.

Синтетик полимер материаллар мустақамлиги ва солиштирма оғирлигининг камлиги, говори ва паст ҳароратга чидамлилиги, нурга ва ҳар қандай об-ҳаво шароитига бардош бериши, электр токини ўтказмаслик адгезион хусусиятлари ва бошқа хоссалари билан қолган материаллардан ажралиб туради. Сунъий ва синтетик толалар ҳар қандай агрессив муҳитга чидай олади. Улардан герметик тарзда ёпиладиган идишлар яшаш, яхши сифатли елимлар тайёрлаш мумкин. Шунингдек синтетик полимер материаллар ишлашга қулай, физикавий, кимёвий ва механик хоссалари уларни қайга ишлашни осонлаштиради.

Табиийки, химия саноатининг тез суръатлар билан юксалаётганлиги ва айниқса юқори полимерли материалларни саноатининг ривожланаётганлиги мазкур материалларни ҳосил қилиш учун

ишлатиладиган хом ашё базаси манбаларини қидириб топишни тақозо этади. Бундай хом ашё манбаларидан турли-туман маҳсулотлар таннархи арзон ҳолда олинадиган бўлиши керак Олимлар Бухоро газини ана шундай хом ашё сифатида танлаб олдилар. Ушбу китобчада бу газни кимёвий қайта ишлаш билан ундан тола, каучук елим, лак пластмасса ва турли хил бўёқлар олиш йўллари ҳақида ҳикоя қилинади.

Ҳозирги замон кўп тармоқуш химия саноатининг асосий хом ашё манбаи тошкўмир, нефт, табиий ва йўловчи газлар, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари, ўсимликлардир.

Оддий тошкўмирни ҳаво кирмайдиган жойда қиздириш натижасида газ ва тошкўмир смоласи олиш мумкин (қора ва рангли металлургия учун ишлатиладиган кокс бунга кирмайди). Тошкўмрдан олинган смолада 270 хилга яқин модда мавжуд: бензол, нафталин, фенол, ан-троцен ва бошқалар Маълумки, РОССИЯ тошкўмир запаслари жиҳатидан дунёда биринчи ўринда туради. Бу йил мамлакатимизда 600—612 миллион тонна кўмир қазиб чиқарилади Бироқ, тошкўмир ўзининг таркиби ва хоссалари жиҳатдан нефт ва газга қараганда анча мураккаб. Шунинг учун ҳам химия саноатида нефт ва газдан фопдаланиш қулайроқ деб топилган.

Нефт химиклар учун битмас-туганмас хазинадир. «Қора олтин» деб аталмиш нефт фақатгина мотор ёнилғиси олинувчи манба сифатида эмас, шу билан бирга энг муҳим синтетик материаллар — пластмасса, кимёвий тола, сунъий каучуқ тозаловчи моддалар ва бошқа хил материаллар олиш учун хом ашё бўлиб хизмат қилади. Нефтни қайта ишлаш учун катта-катта печларда бир неча юз градусгача қиздирилади. Ана шундан кейингина у ўзининг бойликларини бера бошлайди. Энг аввал бензин, керосин ва

мазут ажралади. Нефт таркибидаги бошқа бойликларни ажратиб олиш анча мураккабдир.

Илгариги замонда химиклар нефтдан фақат керосин бензин олардилар. Қолган энг қимматбаҳо моддалар хўжасизларча ёндириб юбориларди. Шунинг учун ҳам улуғ рус химики Д. И. Менделеев: «қоғоз пулни ёқиб ўй иситса бўлади» деб киноя қилган эди.

Ҳозирги вақтда нефтни кимёвий қайта ишлаш йўли билан кўпгина кимёвий материаллар ишлаб чиқариш учун хом ашёнинг ўнларча хилини олиш мумкин. Энди нефт соф ҳолда мутлақо ишлатилмайди. Унинг таркибидан бензин ва керосин ҳайдаб чиқарилгандан кейингина энг қимматли моддалар қолади. Бензин ва керосин ажратиб олинган нефтда мазут- юқори молекулали угле-водородлар қолади. Уни крекинглаш натижасида майда молекулали бирикмалар- этилен, пропилен, бутилен, дивинил, гексан ва бошқа юзлаб маҳсулотлар олинади, улар эса полимер материаллар ишлаб чиқариш учун дастлабки мономерлар асосини ташкил этади.

Табиий ва йўловчи газлар юқорида айтганимиздек энг арзон ва қулай кимёвий хом ашё ҳисобланади. Уларнинг таркиби жуда содда, осон қазиб олинади ва ўз босими билан пўлат қувурлардан узоқ, масофаларга узатилади.

Газдан кимёвий хом ашё сифатида фойдаланишга ўтишнинг сабабларидан бири, аввало бу газларнинг мамлакатимизнинг кўпгина республикаларида кўп миқдорда мавжудлиги ҳамда иқтисодий самаралилигидадир. Мамлакатимизда етти йил мобайнида газ чиқариш беш баравар кўпаяди ва унинг миқдори 150 миллиард кубометрга етади.

1965 йилда кимёвий маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун 2,5 миллион тоннадан ортиқ суюқ углеводород газлари ишлатилиши назарда тутилади. Ама шу миқдордаги углеводородни озиқ-авқат ҳам ашёсидан олиш учун 300 миллион пуд дон ёки 13 миллион тонна картошка керак бўлур эди.

Химияда газ тўрт хилга ажратилади. Нефтинг оғир фракцияларини чуқур крекиглаб олинadиган моддалар нефтехимик газлар дейилади. Тошкўмрдан кокслаш йўли билан олинadиган, таркиби анча мураккаб бўлган газлар коксохимик газлар деб аталади.

Газлар, шунингдек нефт билан бирга ҳам чиқади. Улар нефт орасида эриган ҳолда бўлади. Ҳар тонна нефтда 40—50 кубометр ана шундай нефтга аралашган газлар бўлади. Шу туйғайли ҳам уларни йўловчи газлар дейилади.

Йўловчи газлар таркиби пропан-пропилен, бутан-бутилен, пентан-пентилен фракциялардан иборат бўлади. Улар махсус компрессорларда бир-биридан яхшилаб ажратилади. Ҳозирги вақтда мазкур моддалар полиэтилен, полипропилен, бутадиен каучуклари ва бошқа шу каби кенг тарқалган полимерларни олишда асосий хом ашё ҳисобланади.

Таркиби жиҳатидан энг оддий ва қайта ишлаш осон бўлган газ табиий газдир. Табиий газлар қудуқлар қазиш йўли билан олинади. Табиий газлар таркиби, асосан, энг содда углеводород-метан, оз миқдордаги этан, пропан, бутан ва юқори молекулали углеводородлардан ташкил топган. Шу туйғайли ҳам кейинги ўн йил мобайнида табиий газ бойликларини геологик қидириш ишлари жуда кенг миқёсда олиб борилмоқда. Фақатгина кейинги йиллар мобайнида 30 га яқин янги газ манбалари топилди. Бу жойлардаги газнинг запаси минг-ларча миллиард

кубометрга етади. Ҳозир мамлакатимизда 170 та газ конлари бор. Уларнинг энг йириклари Ставрополь ўлкаси, Озарбайжон, Тожикистон ва Ўзбекистон территориясидадир. Табиий запаси жиҳатидан Бухоро—Хива газ кони дунёда энг йирик ҳисобланади. Унинг аниқланган запаси ўнлаб миллиард кубометрдан ошиб кетди. Ҳозир Ўрта Осиё ва Урал саноат корхоналари шу газ асосида ишлаб турибди. Шунингдек бу газ мазкур ўлкаларнинг шаҳар ва қишлоқларида маиший эҳтиёжлар учун ҳам ишлатилмоқда.

Бухоро саноат корхоналари ва аҳолиси табиий газдан кўпдан бери фойдаланиб келмоқда. Самарканд ва Тошкент аҳолиси ҳам ёқғининг бу янги туридан тобора кўпроқ баҳраманд бўлаётир.

Ҳозирги вақтда Навоий, Самарканд, Оҳангарон ва Тошкент шаҳарларида Бухоро гази билан ишлайдиган ва электр энергияси ишлаб чиқарадиган қудратли иссиқлик станциялари қуриляпти.

Газдан ёқилги сифатида фойдаланиш саноатда янги, энг илғор технологик жараёнларни жорий қилиш, ишлаб чиқаришни техник жиҳатдан такомиллаштириш имконини бермоқда. Газ меҳнат шароитини яхшилади, меҳнат унумдорлигини оширади ва маҳсулот таннархини камайтиради. Совет кишилари газ плиталари, ҳар хил типдаги сув иситгичлар ва бошқа қулайликлардан фойдаланишмоқда. Яқин вақтларда газ билан ишлайдиган холодильниклар, кир ювиш машиналари ва бонқа замонавий аппаратлар ишлаб чиқариш кенгайтирилади.

Бухоро гази кўшни шаҳарлар ва республикалар учун ҳам катта аҳамиятга эга. Ёқилиғининг бу арзон ва қулай туридан Чимкент, Жамбўл,

Фрунзе, Олмаота ва бошқа кўпгина қардош республикаларнинг шаҳарлари энергетик ва технологик эҳтиёжлар учун фойдаланишга ўтади.

Газли- Челябинск ва Газли—Свердловск трассалари муваффақиятли қуриб битказилди, Бунинг натижасида Сибирь ва Урал саноат корхоналари ташиш, сақлаш ва йшлатиш анча қийин бўлган тошкўмир ўрнига газдан фойдаланишмоқда. Мазкур корхоналар кўмир ташиб келтириш, унинг қолдиқлари — қўл ва шлакларни чиқариб ташлаш ва бошқа шу каби машаққатли ишлардан қутулдилар.

Ҳозирги вақтда 250 га яқин шаҳар газ билан таъминланган. Шу йилнинг охирига бориб 515 шаҳар ва аҳоли пунктларида яшовчи 70 миллион аҳоли газ олади. Суюлгирилган газларни ҳам қўшиб ҳисобласак мамлакатимиздаги шаҳар аҳолисининг 65 фоизи, қишлоқ аҳолисининг 35 фоизи уз маиший эҳтиёжлари учун газдан фойдалана бошлайдилар.

## **ГАЗЛАРНИ КИМЁВИЙ ҚАЙТА ИШЛАШ**

Газ саноатининг дастлабки даврларида газдан фақат энергия манбаи сифатида фойдаланиб келинган. Газа кимёвий томондан қайта ишлаш эса фан ва техниканинг улуғвор ютуқларидан бири ҳисобланади. Табиий газларнинг кимёвий хом ашё сифатида қиймати шундаки, уларнинг таркибида кўп миқдорда метан-углеводород бор. Масалан, Бухоро конидан олинган табиий газ таркибида 98 фоизга яқин метан борлиги аниқланган. Яқин вақтларгача табиий газлар инерт бирикмалар ҳисобланиб келингани учун улардан химия саноатга фойдаланилмас эди. Метан ва унинг гомологларининг реакция хоссаси яхши эмас деб

ҳисобланарди. Бироқ катализаторлардан кенг чуқур ва ҳар тарафлама ўрганиш уларни оксидлаш парчалаш, хлорлаш, нитрлаш ва бошқа реакция натижасида мажбур қилиш имконини берди.


Метаннинг энг истиқболли кимёвий қайта ишлаш жараёнларидан бири унинг оксидланишидир. Бу реакция натижасида формальдегид ва метанол ҳосил бўлади.



Формальдегид олишнинг бу бевосита методи техника-иқтисодий кўрсаткичлари жуда қулай бўлганлиги сабабли кенг фойдаланилмоқда. Метандан формальдегид ажратиб олиш мумкинлигини дастлаб академик С. С. Медведев кашф қилган эди. Академик Н. Н. Семенов углеводородларнинг занжирли оксидланиш назариясини яратди. Бутуниттифоқ табиий газ илмий-тадқиқот институти шу назария асосида формальдегид олишнинг янги методини ишлаб чиқди.


Бу метод қўлланилганда таркибида 0,1 фоиз азот оксидлари бўлган метан-ҳаво аралашмаси 600—700 градус қиздирилган реактордан тез ўтказилади. Бу усулда реакцияга киришган метандан ажралиб чиқадиган формальдегид 70 фоизни ташкил этади. Формальдегид актив кимёвий бирикма, у бошқа моддалар билан осон реакцияга киришади. Шу туфайли ҳам формальдегид органик синтезнинг бебаҳо ярим маҳсулотига айланиб қолди. Формальдегид асосида мочевина-формальдегид, фенол-формальдегид смолалари, янги полимер-поли-формальдегид, органик буюклар, дори ва антисептик препаратлар тайёрланади. Формальдегиддан фойдаланиш миқёси йил сайин кенгайиб бормоқда.

Яқин вақтларгача формальдегидни метил спиртини темирли ва кумушли катализаторлар таъсирида оксидлаш йўли билан олиш асосий усул ҳисобланарди. Бу усулни М. И. Кузнецов, Е. И. Орлов ишлаб чиқган эдилар.



Бундай метод қўлланилганда асосий хом ашё сифатида метил спирти ишлатилади.

Метил спирти оксидланганда 90 фоиз формальдегид олинади. Бироқ, углерод ва водород оксидини коксдан олиш харажатларининг кўплиги метил спиртининг анча вақтгача жуда қиммат туришига сабаб бўлди. Ҳозирги вақтда углерод оксиди ва углерод табиий газ - метандан олинади. Бу усулда олинган формальдегиднинг таннархи икки баравар арзондир. Давлат азот саноати институтининг филиали ишлаб чиқариш лойиҳада метил спирти ва формальдегидни Бухоро табиий газидан олиш кўзда тутилган.



а) формальдегид феноль – формальдегид смола ишлаб чиқаришда қадимдан фойдаланиб келади. Мазкур смолани саноат усулида олиш методини профессор Г.С. Петров Орехово – Зуево шаҳрида ишлаб чиққан Бу смола “карболит” де аталади.

Формальдегидни фенол ёки унинг гомологлари билан кўп марта конденсациялаш натижасида термопластик ёки терморреактив фенол – формальдегид смолалар олинади. У ёки бу смоланинг пайдо бўлиши асосий моддаларнинг нисбатига боғлиқ. Термопластик фенол –

формальдегид смоласи спиртда, ацтонда яхши эрийди. Эриш натижасида юпқа парда ҳосил қилади. Смоланинг бу хоссаси ундан табиий шелак ўрнида фойдаланиш имконини беради. Шу тўғайли ҳам бу смолани янги лак деб ҳам аташади.

Полимерларнинг иккинчи типи формалдегидни кўпроқ қўшиш натижасида олинадиган ва резоль смолалари деб аталади.

б) Мочевина – формальдегид смолалар пластмасса, елим, лак сифатида қатъий ўрнашиб олади. Улар фенол – формальдегид смолалардан рангсизлиги, бўёқ қўшилгач турли хил рангга кириши билан фарқ қилади. Мазкур смолани тайёрлаш учун формальдегид ва мочевина ишлатилади. Бу моддалар эса табиий газдан олинадиган олинадиган. Мочевина-формальдегид смолалар олиш ва уни қайта ишлаш газдан фойдаланишнинг энг рационал йўллари билан биридир. Ўзбекистон химиклари яқин келажакда мочевина-формальдегид смоласини чирчиқ электрохимия комбинатида ишлаб чиқаришни мўлжаллашмоқда.

Мочевина-формальдегид смолалар ўзининг қимматли техник хоссалари тўғайли техникада кенг фойдаланилмоқда. Улар рангсиз, нурга чидамли, қаттиқ, ҳидсиз, турли эритувчи суюқликларга чидамлидир.

Мочевина-формальдегид смолалар асосан қўйма ва прессланган пластмассалар, лаклар, ғовак материаллар ишлаб чиқаришда қўлланилади. Улар электр ёйи таъсирида азот ва водород ажратиб чиқаради. Бу электр ёйини тезда ўчиради. Мочевина-формальдегиднинг бу ажойиб хислати электротехникада турли хил электр деталларини тайёрлашда фойдаланилади. Мочевина-формальдегид смолаларнинг ёғоч қипиғи ва коғоз қўшиб, прессланган порошоклари энг

кўп тарқалган Улардан абажур, лампалар, турли хил идишлар, асбоблар, фото-радио инструментлари, приёмниклар, телефонлар, штепселлар, эшик тутқичлари, пардозлаш плиталари ва бошқа шунга ўхшаш кенг истеъмол буюмлари тайёрланади. Чиқиндига чиқган ўнлаб минг тонна ёроч қипиғларига фенол-формальдегид смолалар сингдирилиб мебель саноатида фойдаланилиши мумкин. Фенол-формальдегид шимдирилиб прессланган қипиғ энг яхши навли ёгочникидан ҳам яхши плиталар ясашга ярайди.

Мочевина-формальдегид смоласининг яна бир хислати шундаки, ундан «мипора» деб аталган ғовак материаллар тайёрлаш мумкин. Бу материаллар вагонлар, кемалар, холодильник ва боиқаларни иссиқ, совуқ, товуш ва электр ўтказмайдиган қилади. Мочевина-формальдегид смолаларнинг турли хил эритмалари ҳар хил газламаларга шимдириш учун ҳам ишлатилади. Шунда газламалар оқармайдиган, ғижимланмайдиган, яхши буяладиган ва чидамли бўлади.

Офтобда айнимаслиги, турли хил буюқларга яхши қўшилиши мочевина-формальдегид смолалардан лак ва эмаль тайёрлашда фойдаланиш имконини беради. Бу смолалардан тайёрланган лак ва эмаллар аниқ ишлайдиган приборлар, машина ва механизмлар, холодильниклар, радио ва телевизион аппаратураларни юпқа парда билан қоплашда фойдаланилади.

Кейинги вақтларда мочевина-формальдегид смолалардан фойдаланишнинг янли энг йирик соҳаси бунёдга келмоқда. Маълум бўлишича, ерга фақат минерал ўғитларгина эмас, балки полимер ўғитлар ҳам солиниши лозим экан. Бу тупроқ ва ўсимликларга яхши таъсир қилар экан.

Мочевина бундан ташқари чорвачилик учун ҳам зарур озуқа моддасидир. Уз таркибида азот сақлайдиган бундай озуқалар 10з\Қалар билан боҚилаётган молларнинг мад-•лигй анча ошади.

, 'рмальдегиддан антисептик моддалар сифатида шо'йдаланиш мумкин. Уротропин, меламина ва ани-н-формальдегид смолалари олишда, кимёвий тола-гар'ни «уловчи» сифатида ишлатиш мумкин, уни. Табиий газдан олинадиган формальдегид ва мочевина тай-ёрлаш миқёси йил сайин тез суръатлар билан ошиб бормокда. Яқин вақтлар ичида Бухоро табиий газини формальдегид ва мочевинага айлантириш ва шу асосда ун минглаб тонна пластмассалар, лаклар, урит, мол озуқаси ва медицина препарагглари ишлаб чиқариш мумкин. Бундай реал муваффақиятлар яқин келажакда янада мудим, янги шший кашфиётларнинг очилишига олиб келади.

## **МЕТАН ГАЗИНИНГ ОКСИДЛАНИШИДАН ХОСИЛ БЎЛАДИГАН БОШҚА МОДДАЛАР**

Метан газидан фақат метил спиртигина эмас, балки химия саноатининг асосий мадсулотларидан бири бўл-ган аммиак дам олиш мумкин. Илгари аммиак газини сув-ни чур бўлиб турган кўмир устидан ўтказиб олинган бўлса, дозир Чирчиқ электрохимия комбинатида бу максадлар учун табиий газдан фойдаланилаётир. Комбини-натда кўмир ва коксдан аммиак олиш ишига бардам берилган. Унинг ўрнига табиий газ-метанни конверсия-лаш цехи қурилиб ишга туширилди.

Синтез газ ёки технологик газ олиш учун илгарилари комбинатга кўмир келтириш, сунгра уни майдалаш, қу-ритиш, чангдан тозалаш ва

махсус генераторларда кўйдириш керак бўлар эди. Ана шундан кейингина газ дар хил зарарли кушимчалардан тозаланарди. Бундай газ олинадиган генератор цехи ва тозалаш агрегатлари-ни 250 дан орғиқ киши бошқарарди. Дозир эса метаний конверсиялаш цехида ҳаммаси бўлиб 90 киши ишлайди. Меднат унумдорлиги эса илгаридегига нисбатан уч ба-равар орғиқдир. Табиий газдан олинадиган технологик газнинг нархи кокс кўмиридан олинадиган газниқига Караганда деярли 60 -фоиз арзон. Электр энергия сарфи дам дар тонна аммиакка дисобланганда кўмирни газга айлантириш учун кетадиганидан 24 фоиз камдир.


**11**Янги усулда олинган газнинг таркиби олиб, уни боища аралашмалардан ажратишга сарфлаш «амайди. Шунингдек синтез катализаторларнинг ишлаш муддати ҳам анча узаяди. Арзон технотогик газнинг олиниси корхонада ундан маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, унинг қўлланилишини кен-гайтириш, турли хилдаги минерал уритларни янада кўпроқ ишлаб чиқариш имконини беради.

Метил спирти бошқа аралашмалар молекулаларига метил группаларини киритувчи воситачи ролини ҳам ўтайди. Метил спирти айрим ҳолларда турли хил лабо-раторияларда спиртни денатурлаштириш учун эритувчи сифатида ҳам қўлланилади. Метил спиртининг эритувчи сифатида, айниқса, лак ишлаб чиқариш саноатида кенг қўлланилиши ҳаммага маълумдир.

Бироқ, технологик газнинг аҳамияти метил спирти ва формальдегид олиш учун кимёвий хом ашё бўлиши билангина чекланмайди, балки ундан водород олиш ҳозирги вақтда энг муҳим ҳисобланади. Маълумки, водород аммиак азот кислотаси, ўғитлар ишлаб чиқаришда кенг қўлланилади. Ўсимлик мойларини гидрогенизация қилиб, қаттиқ ёғлар олишда ҳам

технологик газнинг аҳамияти катта. Технологик газ ажойиб ёқилри ҳамдир. Ундан металлургия ва коксохимия саноатида муваффақият билан фойдаланса бўлади. Газли—Урал газ қувурини ётқизишда мазкур газнинг катта афзалликлари ҳисобга олинган, чунки ундан фақатгина кимёвий хом ашё сифатида эмас, балки ажойиб ёқилги сифатида ҳам фойдаланилади. Синтез газ, яъни углерод оксиди билан водород аралашмаси кокс олишда, қора ва рангли металлургия саноатида ишлатилганда меҳнат унумдорлигини анча ошириш, иш маданиятини кескин яхшилаш имконини беради.

Синиль кислотаси органик синтез саноатида турли бирикмаларни циангидридлашда сезиларли роль ўйнайди ва кейинги вақтларда сунъий тола саноатида нитрон толаларини олишда кенг миқёсда ишлатилмоқда. Шу-нинг учун ҳам табиий газдан синтез йули билан синиль кислотаси олиш муҳим аҳамиятга эга. Бу кислотанинг таркибий қисмидан бири бўлган углерод оксиди тегишли щароитда аммиак билан осон реакцияга киради.



Ҳозирги вақтда табиий газ ва аммиакдан синиль кислотаси олишнинг энг осон йўли топилган. Газдан қурум олиш ҳам амалий жиҳатдан муҳимдир. Газнинг чала ёниши ёки термин усулда парчланиши натижасида икки хил — печь ва канал қурумлари олинади. Уларнинг иккинчиси саноат учун жуда керагли бўлган соф углероддан иборатдир. Шундай қурумни олиш учун ер юзида йилига 13 миллиард кубометр табиий газ ёқилади. Бу қурумда босмахона бўёқлари активлаштирилган кўмир (ажойиб адсорбент —

нам тортувчи модда) олишда фойдаланилади. Шунингдек қанд ва спирт олишда «кенг қўлланилади. Противо-газларнинг қутисига қурум солинади. Пластмасса саноатида, айниқса, резина ишлаб чиқаришда қурумнинг тўлдирувчи сифатида роли катта.

## **АММИАК АЗОТ КИСЛОТАСИ, ЎҒИТ**

### **ВА МОЧЕВИНА**


Аммиак олишда ҳаво таркибидаги азот ва турли йуллар билан олинган водород асосий манба ҳисобланади. Азот, одатда, ҳаводан олинади. Водород эса қизиқ лаҳча чур бўлиб турган кўмир қатламлари орасидан иссиқ бўрни ўтказиш орқали олинади.

Бироқ кейинги вақтларда метаний чала оксидлаш орқали водород олиш усули саноатда кенг жорий қилинган. Аммиакни синтез қилиш катализатор устига ўрнатилган катта махсус минораларда олиб борилади. Бу минора кўп миқдордаги трубалардан ташкил топган бўлиб, ундан 400 градус иссиқда ва 150 — 200 атмосфера босимида аммиакни ўтказиб синтез қилинади.

Аммиак — химия индустриясининг энг муҳим маҳсулотларидан бири. У қанчалик кўп ишлаб чиқарилса, мамлакатимиз индустрия қуввати шунчалик ўсади ва қишлоқ хўжалиги минерал ўғитларга сероб бўлади. Аммиак мочевинани синтез қилишда кенг миқёсда қўлланилади.

Мочевинани цианамид методи бўйича ҳам олиш мумкин. Бироқ у анча мураккаб ва қиммат бўлганлиги учун ҳозирда қўлланилмайди.

Мочевинани синтез қилишда бевосита углерод оксидининг ўзигина эмас, балки уни янада оксидлаб олинкарбонат кислота гази ишлатилади.



Амалда мочевина 185—200 градус иссиқ температурада синтез қилинади. Температура ошиши билан реакция тезлашади. Бундай синтез учун энг керакли 200 атмосфера. Реакция бир соат давомида боради 70 фоиз тайёр маҳсулот чиқади. Мочевина карбами деб ҳам аталади. У рангсиз кристаллардан иборат бўлиб, ҳидсиз ва сувда яхши эрийдиган моддадир.

Мочевина азот ўғитларининг энг кучлиларидан биридир. У бошқа ўғитларга Қараганда кўпроқ азотга эга Унинг таркибидаги азотнинг миқдори 46 фоизга яқиндир. Юз килограмм мочевина 300 килограмм натрий селитраси ёки 225 килограмм сульфат аммонийнинг кучини беради. Унинг таркибидаги азот ўсимлик томонидан худди аммоний фосфати таркибидаги азотга ўхшаш осон ўзлаштирилади.

Мочевинадан соф холда ўғит сифатида кенг фойдаланилаётгани йўқ. Бунга, асосан, мочевинанинг қимматлиги сабаб бўлмоқда. Шунга қарамасдан қатор чет эл мамлакатларида ҳар хил аралаш ва мураккаб ўғитлар тайёрлашда мочевина кенг ишлатилмоқда. Мочевинани тупроқда эмас, балки ўсимлик барги орқали берса ҳам бўлади. Аммиак селитраси бундай қилинганда ўсимлик баргларини куйдириб юборади. Мочевина эса баргларни кўйдирмайди.

Мочевина таркибидаги азот ҳайвонлар организмида ҳам яхши ҳазм бўлади. Бу эса ундан қанд ва ёғ саноати чиқиндиларидан чорвага ҳар хил тери тайёрлаш ёки силослашда фойдаланиш имконини беради. Мочевина

қўшиш билан бу озуқаларнинг таркибидаги азот ва карбонсувларни кўпайтириш мумкин. Бу эса чорва маҳсулдорлигини анча оширишга олиб келади.

Шундай қилиб, мочевина химия саноатининг энг муҳим маҳсулотларидан бири бўлиб қолади. Табиий газга эга бўлган бизнинг республикамизда мочевина ишлаб чиқаришнинг истиқболлари жуда каттадир.

### **ТАБИЙ ГАЗ ЁРДАМИДА «ПОРТЛАТИШ» МУМКИНИМИ?**

Авалло шуни айтиш «керакки, кучли портловчи моддалардан динамит ва тол каби нитробирикмалар шу вақтгача газни химявий қайта ишлаш билан олинган эмас. Бу портловчи моддалар нефт, тошкўмир ва бошқа ҳар хил аралаш газлар ва улўрнинг гомогларидан олиниб келинади. Метаний нитратлаш реакциясини биринчи марта рус олими Коновалов ишлаб чикқан. У метан ва унинг гомологлари ўта инерт бирикмалар бўлишига қарамай,улардаги водород атомларини маълум шароитда нитрогруппа билан муваффақиятли алмаштиш мумкинлигини топган. Метанда бундай реакцияни тўрт бор қайтариш билан тетранитрометан олиш мумкин экан. Коновалов усулида нитратлаш концентрацияланган азот кислотасини қиздириш орқали олиб борилади.

Ҳозирги вақтда метан ва унинг гомологларини газ фазасида нитратлашдек қулай усул ишлаб чиқилган. Бу эса метан ва унинг гомологларини саноат масштабида нитратлаш имконини беради.

Бу усулда метан 300—500 градус температурада азот кислотаси ва азот икки оксиди аралашмаси таъсир эттирилиб нитратланади. Шунингдек суюқлик ҳолатида нитратлаш усули ҳам бор. Метандан турли нитробирикмалар олиш мумкин. Шунини қайд қилиб утиш керакки, нитрометан лак саноатида эритувчи сифатида ишлатиладиган бутил спирти, аммиак буглари, бензол ва бошқалардан зарарлироқ эмас. Бу эса нитрометанни лак ишлаб чиқаришда кенг фойдаланиш имконини беради.

Нитролаклар бошқа парда ҳосил қилувчи нитроцеллюлозалар, ёғлар, табиий ёки синтетик смолалар, пластификаторлар, эритувчилар билан аралаштириб ишлатиладиган эритмалар йиғиндисидан иборат. Бундай лаклар металл, ёғоч устини қоплашда ва нитроэритмалар (нитробуёқлар) тайёрлашда ишлатилади. Нитролак билан қопланган буюмларни қайноқсув билан ювса қам кетмайди, доимо ялтираб туради. Аммо нитролак қопламалар очик ҳавода узоқда кетмайди. Шунинг учун ҳам унинг устидан парафин ёки мумни новшадилда эритиб сурилади. Бундан ташқари нитролаклар оловга ўч, тез алангланади.

Нитрометан кучли портловчи моддалар тайёрлашда ҳам кенг қўлланилади.

Ҳозирги вақтда суюқ углеводородлар билан аралашганда портловчи моддалар ҳосил қиладиган тетронитраметан пиротехниклар эътиборини ўзига жалб қилмоқда. Хлорпикрин қам амалий жиқатдан эътиборга сазовордир. Метанни тўғридан-тўғри хлорлаш йули билан хлороформ олинади. Хлороформнинг нитраллаш надижасида эса хлорпикрин олиш мумкин. Бу бирикмани нитрометанни озроқ бўр, оҳак ёки мармар кукуни қўшиб хлорлаш йули билан ҳам олинадн. Хлорпикрин инсектисид ва фунгисид хусусиятлари туфайли дон омборлари складлар ва бошқа

жойларни дезинфекциялашда ишлатилади. Нитрометан мотор ёнилғиларининг алангаланиш температурасини пасайтирувчи сифатида ҳам муҳимдир. Унинг бу хислати алангаланиш температураси юксаклиги сабабли дизель ёнилғиси сифатида фойдаланишга яроқсиз бўлган ёнилғи хиллари учун алоҳида аҳамиятга эга.

Нитрометан ҳам табиий газни кимёвий қайта ишлаш орқали олинadиган муҳим моддаларнинг биридир. Ўзбекистонда табиий газ сероб бўлганлиги сабабли нитрометанни саноат масштабида ишлаб чиқариш имконияти бор. Шундай маҳсулот ишлаб чиқариш марказларини Бухоро вази трубаларда етказиб бериладиган ҳамма жойда ташкил этиш мумкин.

## **МЕТАНИЙ ХЛОРЛАШ ВА ХЛОР ХОСИЛАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ**


Метан оддий шароитда хлорланмайди, метан ва хлор реакцияга киришмайди. Ёруғлик нури таъсир этиши билан реакция жадал боради ва амалда зарур бўлган маҳсулотлар ҳосил бўлади. Метаннинг хлорланиш вақтидаги реакция шароитларига қараб турли хлор ҳосилалари — метилхлорид, метиленхлорид, хлороформ ва тўртхлорли углерод олинади. Одатда бундай реакция натижасида метаннинг тўрт хил ҳосиласи ажралиб чиқади. Уларнинг қайнаш температуралари турлича бўлганлиги учун бир-биридан ажратиш олиш осон.

Метан хлорли ҳосилалари турли-туман мақсадлар учун фойдаланилади, уларнинг айримлари ҳақида батафсил тўхтаб ўтамиз.

Метилхлорид молекулаларга метил группасини киритувчи восита сифатида кенг қўлланилади. Шу муносабат билан метилланган

целлюлоза — метиллцеллюлозани Ўзбекистон шароитига мослаб ишлаб чиқариш катта аҳамиятга эга.

Дарқақиқат йирик туз конлари кўп бўлганлиги учун бу тузни электролизлаб етарли миқдорда хлор олиш мумкин. Шунингдек бизга таркибида целлюлоза бўлган хом ашёлар ҳам кўп. Бу Ўзбекистонда кўплаб метил целлюлоза ишлабчиқарувчи кувватли заводлар қуриш имконини беради.



Бизнинг учун зарур бўлган уювчи натр туз кристалларини сувда эритиб электролизлаш орқали олинади. Шундай қилиб, туз электролиз қилинганда бир йула электродларда хлор ва водород, электролизда ишқор суйиқли олиш мумкин.

Метилцеллюлоза аслида оддий эфирдан иборат. Целлюлозани эфирлашни автоклавларда амалга ошириш мумкин. Унинг таркибидаги метил группаларининг миқдорига қараб икки хил типдаги метилцеллюлоза олинади: а) таркибида 2,2—2,4 фоиз метил группалари бўлган сувда эрувчи метилцеллюлоза, у газламаларни пардозлашда елим сифатида фойдаланилади, бунинг учун қимматли озуқа — крахмални исроф қилишга ҳожат қолдирмайди; б) сувда эримайдиган, бироқ ишқорларда эрийдиган, таркибида 0,2 — 0,25 фоиз метил группалари бўлган метилцеллюлоза, у тўқимачилик саноатида газламаларни намга ва мойга чидамли қилиш учун ишлатилади.

Метиленхлориднинг яхши зритувчилик хусусияти бор. Шу туфайли ҳам у поливинилхлорид, хлорли каучук полистирол каби юқори молекулали бирикмаларни эритишда кенг қўлланилади. Спиртли аралашмасидан киноплёнка ва ацетилцеллюлоза ишлаб чиқаришда фойдаланилади. Шу билан бирга метиленхлорид анча қиммат эритувчи. Шунга қарамай пластмасса, синтетик ва сунъий тола, каучук саноатида эритувчи сифатида салмоқли урин тутати. Шунинг учун ҳам уни зарур миқдорда ишлаб чиқариш жуда муҳимдир. Арзон ва бебаҳо табиий газ метиленхлорид олиш учун битмас-туганмас манба бўлиб хизмат қилади.

Хлороформ ёнмайди, наркотик таъсири бор, қисман захарли суюқликдир. Препаратив органик химия, оғир органик синтез саноати, буюқсаноатида хлороформнинг ақамияти каттадир. Буюқ саноатида халқ хўжалигида кент ишлатиладиган хилма-хил буюқларни учун метаннинг кўп хлорли ҳосилалари ва хлороформ реакциясидан фойдаланилади. Бу усул Фридель-Крафтс синтези деб аталади.

Тўртхлорли углерод хлороформдан наркотик таъсири йўқлиги билан ажралиб туради. Бироқ бу ҳам ёғ ва мой, шунингдек вулканизация қилинмаган каучук канифоль, бошқа кўпгина табиий ва синтетик смолалар олтингугуртни яхши эритади. Шунинг учун ҳам тўртхлорли углерод териларни, мўйналарни ёғсизлантиришда қўлланилади, суюк таркибидаги ва турли ўсимликларнинг уруғидаги ёғни экстракция қилишда, кийимбош ва газламаларни кимёвий йўл билан тозалашда ишлатилади. Тўртхлорли углевод олдирилган ўт ўчиргичлар электр станцияларида, нефт базаларида чиққан ёнгин-ларни оддий ўчиргичлар билан ўчириш мумкин бўлмаса ишга солинади ва жуда қўл келади.

Тўртхлорли углерод гўшт, балиқ ва бошқа тез ҳидланадиган маҳсулотларни сақлашда қўлланилади. У турли хил совитиш қурилмаларида қўлланиладиган фреонлар олиш учун асосий хом ашё ҳисобланади. Бу модда бошқа совитиш моддаларидан кимёвий инертлиги, аппарат ва ускуналарини занг бостирмаслиги билан ажралиб туради. Этиленни тўртхлорли углерод эритмасида полимерланганда реакция одатдагидан бошқачароқ тарзда ўтади. Шундай усулда полимерлашда тўртхлорли углерод реакцияга халақит берувчи бўлиб қолади ва уни дастлабки босқичидаёқ ўзиб кўяди. Бундай ўзилишли полимерлаш ёки тўртхлорли этиленни теломерлаш дейилиб, энант синтетик толасини ҳосил қилишда қўлланилади. Энант олишнинг саноат усули яқиндагина ишлаб чиқилди. Бу усулда этиленни нефтни қайта ишлаш маҳсулидан, спиртни дегидротация қилишдан, тўртхлорли углеродни эса метанни хлорлаш йули билан олинади. Бу ҳар икки бирикмани бир-бирига таъсир эттириб учинчи бир маҳсулот — аминокетан кислотаси олинади. Бу кислотани кўп марта конденсациялаш натижасида энант толаси олинади. Энант толаси хоссалари капронникидан кўра анча яхши.

Синтетик толалар халқ хўжалигининг кўпгина соҳа-ларида революция ясади. Синтетик толанинг энг яхши хили бўлмиш энант катта истиқболга эгадир.

## АЦЕТИЛЕН ОЛИШ


Кейинги йилларда пластмасса, синтетик тола ва каучук саноатларининг тез суръатлар билан ривожланаётганлиги туфайли халқ хўжалигининг шу тармоқларига хом ашё манбаларини топиш масаласи муҳим бўлиб қолди. Бундай хом ашё арзон, енгил ташиладиган,

энг муҳими, комплекс тарзда, яъни комплекс қайта ишлаш натижасида турли-туман махсулотлар берадиган бўлиши керак.

Шу жиҳатдан олганда органик синтез йўли билан ишлайдиган саноат, айниқса юқори молекулали материаллар саноати учун ацетиленнинг аҳамияти каттадир. Кўмирни саноат нони деб атаганларидаёқ ацетиленни органик синтез саноатининг нони деб аташ мумкин. Химия саноатининг бутун бир соҳаси ацетилен бирикмалари ва уларнинг ҳосилалари билан ишлайди. Кейинги вақтларгача ацетилен асосан кальций карбидидан олинарди. Бунинг учун кўмир ва оҳак юқори температурада эритиларди. Кальций карбиди сув билан парчаланганда 99,5 фоиз ацетилен олинади.

Мазкур метод саноатда кенг тарқалган бўлса ҳам қатор камчиликлардан холи эмас, газ аралашмалардан тозаланади, технология схемаси нисбатан мураккаб, бир килограмм ацетилен ишлаб чиқариш учун 10 киловатт-соат электр энергияси сарф бўлади. Шу туфайли ҳам ҳозирги вақтда кальций карбиддан ацетилен олиш усули билан рақобатлашадиган янги методлар ишлаб чиқилган. Метан электрокрекинги ва термооксидлаш крекинги шундай усуллардир.

Метан электрокрекинги усули саноатда 1940 йилдан бошлаб қўлланилган. Бу усулда метан электрорадуга печларида электр ёйи орқали металл электродлари орасидан ўтказилади. Бунда реакциянинг қуйидаги шартларига риоя қилинади: реакция кетаётган бушлиқдаги температура 1600 градус цельсий, доимий токнинг кучланиши 800 в, газ оқимининг тезлиги секундига 1000 метр бўлади шунда 50 фоизгача ацетилен ажратиб олинади.



Чиқаетган газ дарҳол сув сепиб совутилади. Метан электрокрекингида ацетилен билан бирга 45 фоизгача водород, 1 фоизга яқин этилен, таркиби тарқаманган метан, синиль кислотаси қолдиқлари углерод оксиди ва бошқа аралашмалар чиқади. 1000 қд, табиий газ электрокрекинг қилинганда 300 килограмм ацетилен, 26 килограмм этилен, 21 килограмм қурум 1170 кубометр водород ҳосил бўлиши ҳисоблаб чиқилган. Кўриниб турибдики, метан электрокрекинги кўпгина миқдорда саноат учун зарур бўлган водород олишнинг энг муҳим манбаларидан бири бўлиб қолиши мумкин экан. Бу метод бўйича бир килограмм тозаланмаган ацетилен олиш учун 9 килловатт-соат электр энергияси сарфланади. Ана шу жараён асосида олинган ацетилен арзон электроэнергиядан фойдаланилганда карбид усулида олинган ацетилендан анча арзон тушади.

Ацетилен олишнинг яна бир янги методи метаний крекинг усулида оксидлашдан иборатдир. У кислород етишмайдиган муҳитда метаннинг ёниши вақтида таркибий қисмларга ажралишига асосланган. 50 фоиз метан ва 40 фоиз кислород бўлган аралашма мах-сус печларда 1500 градус температурада ёндирилади. Бунинг натижасида 8,5 фоизгача ацетилен чиқади. Метаний ёндириб ацетилен олингандан кейин ёниб бўлган газда 26 фоиз углерод оксиди ва 55 фоиз водород (синтез-газ) қолади. Бу газ эса синтезни давом эттириш ёки водород олиш учун яхши хом ашё ҳисобланади. Шу тўғрисида ҳам одатда ацетилен олиш бошқа процесслар билан биргаликда боради. Бунда синтез-газ фойдаланилади. Мазкур метод қўлланилганда табиий газни кимёвий хом ашё сифатида қўлланиш имкониятлари кенгайди ҳамда иқтисодий фойдаси катта бўлади.

Метандан ацетилен олиш карбид методи билан ацетилен олишга қараганда икки баравар камроқ маблағ талаб этади. Маҳсулот таннархи эса бир ярим баравар арзон бўлади. Бундан ташқари газдан ҳар бир тонна ацетилен олиш давомида йул-йулакай шунча миқдорда синтез-газ ҳам олиш мумкин. Бу эса ўғит саноати учун зарур бўлган 4 тонна аммиак тайёрлашни таъминлайди.

Қилинган ҳисобларга кўра 1 миллиард кубометр табиий газдан комплекс равишда фойдаланилганда 500 минг тоннага яқин ацетилен, шунча миқдорда аммиак олиш мумкин экан. Бу миқдордаги аммиакдан 2,7 миллион тонна азот ўғитлари ҳосил қилиш мумкин. Шу миқдордаги ацетилендан шунча миқдорда сирка кислотаси, сирка ангидриди 4—10 миллиард метргача ацетат шойи олиш учун керак бўладиган целлюлозани ишлаш имконини беради.

Ацетилен жуда реакциябоп бирикмадир. Унда химия тили билан айтганда учламчи ёки «ацетилен» боғи бор. Бу эса бирикиш реакциясига жуда мойилдир. Ацетиленнинг мана шу хусусияти ундан халқ хўжалигида жуда муҳим аҳамиятга эга бўлган турли хил бирикмаларни олиш учун дастлабки хом ашё сифатида фойдаланиш имконини беради. Шу туфайли ҳам юксак ривожланган индустриал мамлакатларда ацетиленни кўплаб ишлаб чиқаришга жиддий аҳамият берилади. Масалан, АҚШ да йилига 1 миллион тоннадан кўп ацетилен ишлаб чиқарилади. Шундан 70 фоизга оғир органик синтез саноатига, 30 фоизи пайвандлаш ишларига сарфланади.



